“Til fikrni ifoda qilishga mo'ljallangan, talaffuz qilinadigan chegaralangan tovushlar majmuidir” (B.Grosse) degan fikrlar ham mavjud. Bu fikrlar ham nisbatan to'g'ri, lekin o'zi aslida “Til deb-murakkab muloqot tizimiga yoki shu tizimni o'rganish va ishlatish qobiliyatiga aytiladi. Til konkret nutq hodisalar (ayrim gaplar, hikoyalar, bir necha kishining suhbat va shu kabilari) jumladan og'zaki yoki mexanik usulda takrorlanadigan va yozuv orqali qayd etiladigan nutq hodisalarida mavjud bo'ladi. Shu bilan birgalikda til ijtimoiy hodisa deb ham yuritiladi. Bunga sabab hali voqealanmagan imkoniyat tarzidagi ma'lum jamiyat a'zolari uchun barobar xizmat qiluvchi ijtimoiy-ruhiy aloqa vositasi bu-til hisoblanadi. Demak til jamiyatga ya'ni odamlarning o'zaro munosabatga kirishuviga xizmat qiladi, shuning uchun u ijtimoiy hodisa sanaladi. Til butun jamiyatga tegishli bo'ladi. Jamiyat a'zolari yordamida shakllanib, boyib boradi. Shu bois tilsiz jamiyat, jamiyatsiz til bo'lishi mumkin emas.

Til tabiiy hodisa emas, u ijtimoiy hodisa ekanligini hammamiz bilamiz. Lekin nima uchun ijtimoiy hodisa ekanligini bilmaymiz, xo'sh nima uchun u ijtimoiy hodisa deb ataladi? Nima uchun tabiiy hodisa emas? Tilshunoslik tarixida tilshunos olimlar qadimdan 2 xil qarama-qarshi fikr o'rtasida kurash olib borganlar. Shularning biri taxminan XX asrlarda Germaniyada August Shleyxer tomonidan asos solingan tilning tabiiy hodisa ekanligi haqidagi fikridir. Bu fikrni u yoki hodisaning tabiiy yoki ijtimoiyligini xalqning irodasi shu hodisaga ta'sir ko'rsata olish olmasligi nuqtai-nazaridan aniqlagan. Uning fikriga ko'ra tilning rivojlanishi xalqni hohish istagiga qarab bo'lmaydi, u o'z qonunlari va o'z qoidalariga ko'ra rivojlanadi. Shunga asosan til tabiiy hodisalar qatoridan o'rin olish kerak degan fikrni ilgari surgan. Aslida tilning paydo bo'lishi va taraqqiyoti insoniyat jamiyati va hayoti bilan uzviy bog'langan bo'ladi. Til jamiyatning bir bo'lagi hisoblanib til bor joyda albatta jamiyat ham bo'ladi. Jamiyatdan tashqarida yashagan inson bolasi qancha umr ko'rmasin u baribir gapira olmaydi. XX asrning boshlarida Hindistonda ro'y bergan voqea bu fikrlarga yaxshi dalil bo'la oladi. U yerda bo'rilar to'dasi to'dasida 2 qiz uchragan. Ularning biri 2, yana biri 7-8 yosh bo'ladi. Ular bo'rilar to'dasi orasida yashagani sababli bo'rilarga xos xatti xarakatlar qilishgan, lekin gapira olishmagan. Hindistonlik psixolog olim bu ikki qizni avval uyda so'ngra qizchalarning biri vafot etgandan so'ng ularning kattasini bolalar uyida tarbiyalagan. Bu qiz yana 10 yil davomida hayot kechirgan. Ammo u qancha ko'p vaqt jamiyat va insonlar orasida yashasa ham tilida, yurish-turishida, xatti-harakatlarida muvaffaqiyatga erisha olmagan. Bu yillar davomida u 45ga yaqin so'z o'rgamgan-u lekin ulardan gap tuzib gapira olmagan. Bu voqeadan so'ng olimlar:

“Til tabiiy hodisa emas”

“Tilning paydo bo'lishi uchun kishilik jamiyati bo'lishi shart”

“Til-nutq muhiti bolaning chaqaloqligida yaratilishi va chaqaloqqa bir tomonlama til ta'siri o'tkazish muhim, u hal qiluvchi ahamiyatga ega”



“Til va tafakkur bir vaqtda paydo bo’ladi, birga rivojlanadi. Biri ikkinchisiz yashay olmaydi” degan hulosaga kelishgan.

Til jamiyat bilan birga rivojlanib, birga paydo bo’lib shakllanganidek jamiyat bilan birga o’ladi. Til shuning uchun ijtimoiy hodisa deb ataladi. Tabiiy hodisalar qatoriga tilni kiritib bo’lmaydi. Chunki til o’zi rivojlanib, o’zi shakllana olmaydi. Uning shakllanishi va rivojlanishi uchun albatta jamiyat, xalq kerak bo’ladi. Uning rivojlanishi uchun jamiyat ham anchagina o’z hissasini qo’shadi. Shuning bilan birgalikda til fikr almashish quroli ham hisoblanadi. Chunki insonlar bir-biri bilan o’zaro muloqotga kirishganda ham aynan mana shu tilimizdan foydalanadi, u orqali insonlar bir-biri bilan suhbatlashib fikr almashadilar. Shu sababli u fikr almashish quroli ham deyiladi. Til milliy madaniyat shakli sifatida tafakkurning harakati uning faoliyati natijasida yaratilgan ma’naviy boylik zamonda va makonda adabiy lashtiriladi. Yuqoridagi barcha keltirilgan fikrlar va ma’lumotlar tilning tabiiy emas ijtimoiy hodisa ekanligiga yaqqol misol bo’la oladi desak adashmaymiz.

Haqiqatdan ham til ijtimoiy hodisa ekanligiga u tabiiy hodisa emasligiga amin bo’ldim. Jamiyatsiz til, tilsiz jamiyat bo’lmaydi. Jamiyatimizda tilning o’rni juda katta ahamiyatga ega. Tilimiz orqali biz juda ko’p narsalarni amalga oshiramiz. Tilning rivojlanishi uning boyib borishi uchun jamiyat albatta kerak bo’ladi. Mana nima uchun til tabiiy hodisa emas chunki tilsiz jamiyat, jamiyatsiz til bo’lmaydi. Til barchaga barobar xizmat qiluvchi ijtimoiy ruhiy aloqa vositasi ekanligi uchun u ijtimoiy hodisa deb yuritiladi.

Adabiyotlar

1. M.T.Irisqulova “Tilshunoslikka kirish”



O'QUVCHILARDA IJODIY FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISHDA DIDAKTIK O'YINLARNING AHAMIYATI

Muhammadiyeva Nigora Murotovna,
Navoiy viloyati, Navoiy shahar
17-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Telefon: +998 99 757 78 45

Annotatsiya: Maqolada ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning leksikologiya va so'z turkumlari bo'limiga doir bilimlarini mustahkamlashda o'yin topshiriqlaridan foydalanish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Aralash so'zlar, topshiriq, guruh, harflar, kartochka, qarama – qarshi ma'nosi, kompyuter dasturi, ot, sifat, fe'l, semantik xato.

Boshlang'ich ta'lim o'quvchilar bilim olishining poydevori hisoblanar ekan, mazkur sinfdan boshlab o'quvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirishni taqozo etadi. Zero, 1-4-sinf o'quvchilarida ijodiy faoliyatni rivojlantirishda o'quvchilar-ning yosh xususiyatlarini e'tiborga olish, darslarni samarali tashkil etishda rivoj-lantiruvchi ta'lim texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ona tili va nutq savodxonligi darslarida didaktik o'yinli mashqlar o'quvchilarning fanga qiziqishini orttiradi, o'tilganlar yuzasidan bilimlarini mustahkamlaydi. Quyida 3—4-sinf ona tili va nutq savodxonligi darslarida o'quvchilarning leksikologiya va so'z turkumlari bo'limiga doir bilimlarini mustahkamlashda o'yin topshiriqlaridan misollar keltiramiz.

“So'zdan marjon tuzing” o'yini

O'quvchilar uch guruhga bo'linib, ularga so'zlarning aralash to'plami beriladi. Bu so'zlar ichidan har bir guruh o'z topshirig'i bo'yicha so'zlarni ajratib yozadi.

Aralash so'zlar: karnaygul, chumchuq, stol, shisha, do'ppi, gultojixo'roz, laylak, turna, lochin, shaftoli, anjir, nok, kabutar, safsargul, nastarin, terak, atirgul, o'rik, olxo'ri, gilos, behi, tut, olma, xurmo, burgut, qaldirg'och, bo'ri, mushuk, yalpiz, archa, nilufar.

Topshiriq: 1 – guruh gullarning nomlari, 2 – guruh qushlarning nomlari, 3 – guruh mevali daraxt nomlarini ajratib yozadilar. Topshiriq sinf doskasida bajariladi, doska 3 ga bo'linadi va har bir guruhga topshiriqni bajarish uchun ma'lum vaqt belgilanadi.

1 – guruh. Gullarning nomlari: karnaygul, gultojixo'roz, safsargul, nastarin, atirgul, nilufar.

2 – guruh. Qushlarning nomlari: laylak, turna, chumchuq, lochin, kabutar, burgut, qaldirg'och. **3 – guruh. Mevali daraxt nomlari:** o'rik, olxo'ri, gilos, behi, tut, olma, shaftoli, anjir, nok, xurmo.

“Men boshlayman, sen davom ettir” o'yini

Topshiriq: O'quvchilar 2 guruhga ajratilib 1 – guruh qarama – qarshi ma'noli so'zning 1 – qismini aytish, 2 – guruh esa shu so'zning qarama – qarshi ma'nosini aytishi lozim.

1 – guruh: **2 – guruh**

do'st dushman

baland past

yosh qari

tez sekin

qattiq yumshoq

uzun qisqa

“Kim ko'p so'z tuzadi?” o'yini. Kartochkalarga bosma harflar tarqoqlikda yozib qo'yiladi. O'quvchilar shu harflar ishtirok etgan so'z tuzadilar. Bu o'yin kompyuter dasturiga ham kiritilishi mumkin.

1. Berilgan harflar ishtirokida otlar tuzib yozing.

2. Berilgan harflar ishtirokida sifatlar tuzib yozing.

3. Berilgan harflar ishtirokida fe'llar tuzib yozing.

4. Berilgan harflar ishtirokida turli turkumga oid so'zlar tuzib yozing.

Kartochkalardan namunalar:

T X N O A B L K I U

Tuzilgan so'zlar: Non, nok, ota, ona, bola, kaklik, kakku, tulki, ukki, tok, bobo, aka, uka, xon va hokazo. Bu o'yin bajarilgach, Grammatik mavzu bilan bog'liq topshiriqlar beriladi. Masalan,



tuzgan so'zlaringizga so'roq bering. Ularnima'nosiga ko'ra turlarga ajrating.

"Gapni to'g'rilang" o'yini

O'qituvchi semantik xato bilan gapni talaffuz qiladi. Bolalar xatoni topib, gapni tuzatishi kerak. Namunaviy jumlar:

- | | |
|---------------------------------|-------------------------------|
| 1. Olmalar qayin ustida o'sadi. | 2. Qiz chashka yedi. |
| 3. Afrikada juda sovuq edi. | 4. Bola paltosini kiyib oldi. |

SHunday qilib, boshlang'ich ta'limda bu kabi o'yinli topshiriqlarni bajarish o'quvchilar ijodiy faoliyatini shakllanishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari. (Metodik qo'llanma) RTM. 2016-y.
2. Kompetensiyaga yo'naltirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi: Ona tili, adabiyot, o'zbek tili (1-4 sinflar). 2017-yil.
3. O.U.Avlayev, S.N. Jo'rayeva, S.P.Mirzayeva "Ta'lim metodlari" o'quv-uslubiy qo'llanma, "Navro'z" nashriyoti, Toshkent – 2017



RUS TILI DARSLARIDA LUG‘AT YODLASH JARAYONI

Rajabboyeva Guli Umrbekovna

Xorazm viloyati Qo‘shko‘pir tumani 35- son

maktabining rus tili fani o‘qituvchilari

Tel + 99-897-211-15-12

gulirajabboyeva@gmail.com

Annotatsiya: Lug‘at yodlash jarayoni bevosita xotira bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, inson miyyasining qaysi tarafi xotira bilan bog‘liqligi va mnemonika haqida quyida ma‘lumotlar beriladi.

Kalit so‘zlar: Rus tili, zamonaviy axborot texnologiyalar, xorijiy tillar, AKT, interfaol metodlar, ta‘lim jarayoni.

Lug‘at yodlash jarayoni quyidagi turlarga bo‘linadi:



❖ So‘zlarni tanlab olishda aynan bir mavzuga doir so‘zlarni tanlash maqsadga muvofiqdir.

❖ So‘zlarni eslab qolish esa bir nechta bosqichni o‘z ichiga oladi. Avvalo, biz chet tilidagi so‘zni o‘zbek tilidagi biron so‘zga o‘xshatib olishimiz lozim. Misol uchun, Kot so‘zi, bu rus tilidan tarjimada mushuk degani. Endi "ket" so‘zi qaysi o‘zbekcha so‘zga o‘xshaydi, misol "kit" so‘ziga o‘xshatishimiz mumkin. Bu nima uchun kerak? Bizning miyamiz shunday tuzilganki, biron yangi ma‘lumotni eslab qolish uchun u eski ma‘lumot bilan birikishi lozim. Agar sizda u haqidagi eski ma‘lumot mavjud bo‘lmasa, miyamiz buni tushunmaydi. Demak, bizdagi eski ma‘lumot - bu biz biladigan o‘zbek yoki boshqa tildagi so‘z hisoblanadi, shu bois biz chet tilidagi so‘zni o‘zimiz bilgan biron so‘zga o‘xshatib olamiz. Buni biz **assosiasiya** deb ataymiz. Tayyor bo‘lgan assosiasiyani tarjima bilan birlashtiramiz. Misol uchun, Kotni "kit"ga o‘xshatgandik. Endi tarjima ya‘ni mushukni olamiz, mushuk kitga minib olgan va birgalikda okeanlarni suzib yurishganini tasavvur qilamiz.

❖ Assosiasiya tayyor bo‘lgan bo‘lsa, 3 marta ruschadan o‘zbekchaga, 3 marta o‘zbekchadan ruschaga tarjima qilib qaytarasiz.

96 soat qoidasi. Har bir yodlagan so‘zingizni 4 kundan so‘ng bir marta qaytarib chiqing. Bu nega kerak? Bizning miyamiz yangi olingan ma‘lumotni 4 kun davomida o‘zida ushlab turadi, agar u qayta ishlatilmasa, uni chetga chiqarib yuboradi. Shu bois, 4chi kuni so‘zlarni bir marta qaytarib chiqing, ana shunda so‘zlar bir umrga yordingizda qoladi.

Miyamiz kichik-kichik neyronchalardan tashkil topgan. Ma‘lumot miyyaga kelishi bilan neyronlar biri-biriga sinaps ya‘ni bog‘lovchilar orqali biri-biriga ma‘lumotni uzatadi. Mnemonika aynan shunga asoslangan. Ya‘ni birinchi axborotni ikkinchisi bilan bog‘lash. Quyidagi mashqda bog‘liqlik asosida xotiraga saqlashni mashq qilib ko‘ramiz.

1. Banan 2. Ruchka 3. O‘rmon 4. Muzlatgich 5. Gilam 6. Oshpaz

Ko‘rib turibsiz, yodlab olish bilan bu ish juda qiyin. Ammo assosiasiyalar yordamida bularni



yodlab olish juda oson. Shunchaki bitta so'zni keyingisiga ulab, hikoya tuzish kerak. Mana bunday: Banan ruchkada xat yozyapti, so'ng ruchka katta qilib ruchkani rasmini chizdi. O'rmon ichi muzlatgichlarga to'la. Muzlatgichni ochyapmiz ichi muzlab qolgan gilamlarga to'la. Gilamlarni qoqib tashlanganda, u yerdan juda ko'p oshpazlar yog'ilishni boshladi. Va birdan oshpazlar osmonga uchib chiqib ketib qoldi. So'ng osmonda ovqat pishirishgandi, yog'lar yerga tushib, mashinalarni bosib qola boshladi. So'ng mashinalar qayerga qochishini bilmay, stadionga yopirilib kirib keta boshlashdi. O'sha paytda stadionda bodringlar ayiqlarga qarshi futbol o'ynashayotgandi. Birdan ayiqlarning ostidan bulutlar paydo bo'lib osmonga uchirib keta boshlashdi. Ayiqlar u yerda qulupnay topib olib, qulupnay yeya - boshlashdi. Qulupnaylar kompyuter o'ynab o'tirishgandi. Kompyuter ichida bo'lsa katta nonni rasmi bor edi. Birdan o'sha nonlarni maktablarga - tarqata boshlashdi. Maktablar televizorda ko'rsatila boshlandi. Televizorni ko'rganlar, televizorga piyozlar ota boshlashdi. Piyoz televizorga tegishi bilan ichidan o'rdaklar otilib chiqa boshladi. So'zni ilk bor yodlaganingizda, potentsialning eng pastki nuqtasida bo'lasiz. Potensial:

- 1) Ko'rganman; 2) Tushunaman, lekin tarjima qilolmayman;
- 3) Bilaman; 4) Tarjima qila olaman; 5) Ishlata olaman.

Potensialning 5chi pozitsiyasi - eng kuchlisi hisoblanadi. Birinchi to'rttasi - passiv lug'at, uni o'qiysiz, tarjima qilasiz, lekin ishlata olmaysiz. Beshinchi nuqta - aktiv lug'at hisoblanadi. Biz asosan aktiv lug'at uchun ishlaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Xorijiy tillarni o'rgatishda rol o'ynash o'yinlari. 1989
2. R.Shodiyev. H. I.A. Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida.
3. "Xalq ta'limi" 2018. Xalq ta'lim 2014. "ilmiy metodik jurnal".



COMMUNICATIVE TEACHING FOREIGN LANGUAGE

Sabirova Hilola Maxmudjonovna

Xorazm viloyati Urganch shahar
18-son maktabining ingliz tili fani o'qituvchisi

Annotation: Communicative teaching of a foreign language wears activity character, since speech communication is carried out through "speech activity", which, in turn, serves to solving problems of productive human activity in conditions "Social interaction" of communicating people. Communication participants trying to solve real and imaginary tasks of joint activity using a foreign language.

Key words: social responsibility, restructuring of the education system, contextual learning, active learning method.

Professional development specialist competency occurs intensively during implementation contextual learning, immersion in practice activities manufacturing enterprises. Mastering professional experience student activity depends on focused interaction teacher and student. The construction of the educational process at the university the basis of a set of educational and professional tasks provides development professional competence of students, their value self-determination. The conceptual position of production practice it was argued that the value orientations of the individual are its expression in social activity covering various areas activities. Such activity is based on needs, motives and interests of the individual, where needs are considered to be the main incentive by the power of personality activity. The need for labor in self-realization, as one of basic needs, characteristic of each person. The task of the university is create conditions for the formation of professional competence student, combining the following key competencies: information, foreign language, competence. Social responsibility, corporate interaction that may be fully formed in the process of professional activity future specialist.

The restructuring of the education system necessitated improving the quality of professional training, determined the search for new ways and means of ensuring it. Analysis scientific literature suggests that the training system a specialist in a higher education institution is most effective when as its organizational and methodological tools are used various pedagogical technologies. Currently widespread in practice teaching a foreign language got the game as an organic part active learning method. Business game is connected not only with the condition knowledge and acquisition of foreign language skills, but also with the subject future professional activities.

Currently holding business game based on the use of information technology, especially in the preparatory phase when working with a computer aims to achieve fluency in the necessary vocabulary, grammatical constructions, speech formulas taking into account specifics of professional activity. Game exercises enjoy success in students of various categories, they create an atmosphere natural living communication, the atmosphere of positive emotions that extremely important when learning in general, and when learning a language, especially. The language acts here in its main function - in the function of means of communication, since the goal of the game for each participant is to guess, win, win (and not only use any form correctly)

Learning to communicate in a foreign language is also a kind of a business game, and do not be afraid of the conventions used in this training situations - they would be justified enough, meaningful and motivated. The role of the "audience" may be fellow group: it is important that students have a desire (and a sense of necessity) to master a professional speech in a foreign language. Game results should not be judged by speech they should be evaluated according to the "game" criteria - who is faster guessed who first solved the problem correctly, each team is faster coped with the task, gave more correct answers, etc. As well as the use of new information technology allows you to strengthen teachings, individualize and differentiate the process teaching, giving students the opportunity, independent choice training activities and timely computer visualization studied material.

References :

1. Olifer V., Olifer. New technologies in training. .Pb.: Saint -Petersburg, 2000.
2. Akishina A.A. and other games in the lessons of the Russian language. Training allowance. .: 1988).
3. New pedagogical information technologies in the system education. Under. Ed. ..Polat., 2000.



INGLIZ TILIDA MODAL FE'LLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Tojimukhammedova Sarvinoz Abdullajon kizi

O'zbekiston Milliy universiteti Xorijiy tillar fakulteti

Filologiya yo'nalishi 1-kurs magistranti

Telefon: +998999147449

E-mail: tojimuxammedova2000@mail.ru

Annotasiya. Maqolada ingliz tilida modal fe'llarning semantikasi, ularning tilshunoslikda qo'llanishi hamda ma'no soylarining gradatsiyasi bir nechta fe'llar bilan ifodalanishi haqida fikr yuritiladi. Shu bilan birga, mazkur masalaga doir misollar ingliz va o'zbek tillarida tahlil qilinadi.

Annotation. The article discusses the semantics of modal verbs in English, their use in linguistics, and the gradation of shades of meaning expressed by several verbs. Furthermore, examples of this issue are analyzed in English and Uzbek languages.

Kalit so'zlar: modal fe'llar; semantika, ehtimollik, imkoniyat, gerundial konstruksiya, predikativlik, autentik.

Key words: modal verbs, semantics, probability, possibility, gerundial construction, predicativeness, authentic.

Tilshunoslikda modal fe'llarning semantik xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlar mavjud, ammo modal fe'llarning semantik ma'nolari masalasi munozarali bo'lib qolmoqda, chunki yondashuvga qarab tadqiqotchilar modal fe'llarning ma'nosining turli xil ko'rinishlarini ajratib ko'rsatadilar. Har qanday gapning (yoki gapning) asosiy xususiyatlaridan biri, ma'lumki, modallikdir, deya olamiz. Ingliz tilida, shuningdek, har qanday harakatga u yoki bu munosabatni bildirishga yordam beradigan fe'llarning maxsus grammatik toifasi - modal fe'llar mavjud bo'lib, ular nutq ma'nolarining eng nozik soylarini ifodalashga imkon beradi. Darhaqiqat modal fe'llar predikativlikni o'zgacha shakllarini namoyon qilish, nutqda jozibadorlikni, mayinlikni, harakatga qaratilgan ifodani, qilinishi zarur bo'lgan harakatni, maslahatni, ayrim hollarda ta'qiqni, ijozatni va h.z.larni harakat ottenkasiga qo'shadi hamda jilo beradi, deyishimiz mumkin. Zamonaviy tilshunoslikda to'liq o'z yechimini topmagan modal fe'llarni o'rganish muammolari orasida polisemiyaning mavjudligi bilan bog'liq savollar mavjud: bu fe'llarning keng kontekstda qo'llanish imkoniyati ularning semantikasida turli leksik-semantik variantlar mavjudligini anglatadimi yoki bitta keng ma'no ostida uning chegaralarini qanday aniqlash hamda bu orqali ularni samarali tasvirlash mumkinmi? [4, 38]

Bundan tashqari, ingliz tilining globallashuv jarayonlari nafaqat uning dunyoda tarqalishini, balki modal fe'llarning qo'llanilishining mintaqaviy (dialekt) xususiyatlarining ta'siri kuchayganligini va ularning global ingliz tilida tarqalishini, shu jumladan yangi tendentsiyalarni aniq ko'rsatdi. Shunday qilib, modal fe'llarni tasniflash muammosi dolzarb bo'lib qoladi. An'anaviy tasnif modal fe'llarni formal grammatik, semantik mezonlarga ko'ra, shuningdek, autentik matnlarda qo'llanish chastotasiga ko'ra farqlaydi. Ko'rinish turibdiki, lingvistik tadqiqotlarning yangi yo'nalishlari, ingliz tilining rivojlanishi va globallashuvi munosabati bilan bunday tasnif yetarli bo'lmay qoladi va uni to'ldirishni talab qiladi [3, 175].

Modal fe'llarga semantik yondashuv yarim yordamchi (modal) fe'llarni yordamchi fe'llardan ajratishga xizmat qiladi. Semantikaning rivojlanishi bilan asosiy e'tibor modal fe'llarning ma'nolariga qaratildi. Modal fe'llarning ma'nolari ularning qanday qo'llashni tushunish uchun juda ahamiyatli hisoblanadi.

Ko'pincha ma'lum bir harakatni ifodalash uchun modal fe'lni tanlash juda qiyin bo'ladi, chunki bir ma'no soylarining gradatsiyasi bir nechta fe'llar bilan ifodalanishi mumkin:

e. g. You might / should / 'd better / I'd rather you (saw) / must / will / see the film. (*Will* fe'li mutlaq ishonch ma'nosida qo'llaniladi, bunday misollar juda kam uchraydi).

Bunday holda, maslahatdan buyruqgacha qat'iyatlilik soylarining asta-sekin o'sishini kuzatish mumkin. Shunga o'xshash holat, ehtimollik qiymatining turli xil ko'rinishlarini (eng kam darajadan mutlaq aniqlikgacha) *might, could, may, should, must, will* modal fe'llari orqali yetkazishda yuzaga keladi:

e. g. That **might / could / may / should / must / will** / be James phoning at this hour.

Biroq ma'no turlari bog'lanishini bir nechta modal fe'lda emas, balki bir modal fe'lda ham



kuzatish mumkin. Demak, *may-mumkin* fe'lining ma'nosi besh xil ko'rinishda bo'lishi mumkin [1, 256].

- shunchaki imkoniyat (*It may be written with a pen - Bu qalam bilan yozilishi mumkin*);
- ehtimollik imkoniyati (*He may come; It may have drizzled - U kelishi mumkin; yomg'ir yog'gan bo'lishi mumkin*);

- imkoniyat tilash (*Mrs. Long wished all the Juniors luck in the Class and stated, "Have fun! And may you all continue to show at Westminster in the years to come!"*; *May all your days be happy!* - *Long xonim sinfdagi barcha yoshlarga omad tiladi va shunday dedi: "Vaqtini chog' o'tkazing! Shuningdek barchangiz kelgusi yillarda Westminsterda ko'rinishda davom eting!"*; *Barcha kunlaringiz baxtli o'tsin!*);

- imkoniyatni amalga oshirish uchun motivatsiya (*May you start singing the hymn! - Madhiyani kuylashni boshlaylik!*);

- imkoniyatni hal qilish (*You may perform that act on the next succeeding day which is not a Saturday, Sunday, or legal holiday; You may put on my sweater - Siz bu harakatni shanba, yakshanba yoki qonuniy bayram bo'lmagan keyingi kunlarda bajarishingiz mumkin; Mening jemferimni kiyishingiz mumkin*).

Semantik yondashuv doirasidagi yangi tendentsiyalar orasida zarurat va istak ma'nolarining rivojlanishini alohida ta'kidlash kerak. *Need* fe'lidan keyin faqat gerundiy emas, balki murakkab to'ldiruvchi (gerundial konstruktsiya) ham qo'llanilishi mumkin:

e. g. You need your car servicing. / I need my report checking.

Avtomobilingizga texnik xizmat ko'rsatish kerak. / Hisobotimni tekshirishim kerak.

I would(n't) like to have done... kabi mukammal infinitivli jumlarlar endi ba'zan murakkab ergash gapli perfekt shakllar bilan almashtirilishi mumkin.

e. g. Martin would have liked to break the man's neck.

I wouldn't have liked to sleep in a down- stairs bedroom.

Anglashiladiki, modal fe'llarning har birining semantik tuzilishi har xil. Ba'zi fe'llar yuqoridagi barcha modal ma'nolarni ifodalay oladi, boshqalari esa faqat paradigmatic qatorning alohida a'zolari bilan chegaralanadi. Modal fe'llar har qanday til tizimida muhim o'rin tutadi: ular so'zlovchining vaziyatga munosabatini bildirishga yordam beradi, gapga ma'lum bir soya beradi [2,792].

Shunday qilib, modal fe'llarni tasniflash muammosi yanada dolzarb bo'lib qoladi. Ko'rinish turibdiki, bu masala bo'yicha an'anaviy qarashlar modal fe'llarni o'qitish mazmunini to'liq qamrab olmaydi. Shunday ekan, rasmiy grammatik, semantik mezonlar, autentik matnlarda qo'llanish chastotasi mezoniga qo'shimcha ravishda stilistik, idiomatik, frazaviy, matn modalliklari kabi tasniflash asoslarini ham, ingliz tilining globallashuvi bilan bog'liq so'nggi tendensiyalarni ham hisobga olish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Veyxman G.A. Novoye v grammatike sovremennogo angliyskogo yazika. - M.: Astrel: AST, 2006. – 542 s.

2. Kondratyeva N.V., Strelkova O. B. Semanticheskiye osobennosti modalnix glagolov sisteme sovremennogo finskogo yazika // Vestnik Udmurtskogo universiteta. Seriya istoriya i filologiya. 2018. T. 28, vip. 5. - S. 785-793.

3. Milrud R.P., Karamnov A.S. Podxodi k izucheniyu angliyskix modalnix glagolov. Gumanitarnie nauki. Filologiya. ISSN 1810-0201. Vestnik TGU, Vipusk 8 (64), 2008. – S.174-182.

4. Novikov D.N., Kataeva N.O. Semantika modalnix glagolov shall i should v sovremennom angliyskom yazike: prototipicheskiy podxod. Filologicheskie nauki v mgimo. lingvistika i mejkul'turnaya kommunikasiya. № 13 (1 • 2018). - S.38-46.



ХАРАКТЕРОЛОГИЧЕСКАЯ ЛЕКСИКА СОВРЕМЕННОГО НЕМЕЦКОГО ЯЗЫКА

Асилхонова Иродахон Нуриддинхўжа кизи

Магистрант НУУ им.Мирзо Улугбека

Факультет зарубежной филологии

Направления лингвистики (немецкий язык)

Научный руководитель - к.ф.н., старший

преподаватель Туракулова С.Т.

iroda_93@list.ru; +998977354838

Аннотация: Научная статья посвящается исследованию характерологической лексики современного немецкого языка и её роли в стилистике, в лексике данного языка. В статье обоснована актуальность и важность роли характерологической лексики немецкого языка в настоящем времени. Рассмотрена лексика с дифференциальной точки зрения, приведены примеры для лексики современного немецкого языка с выявлением соответствующего колорита.

Ключевые слова: характерологическая лексика, колорит, архаизмы, неологизмы, диалектизмы, термины, профессиональная лексика, жаргонизмы, иноязычные слова.

Язык, как известно, возникает в человеческом обществе и развивается вместе с ним. Лексика немецкого языка была подвижна, постоянно обогащалась новыми словами, отбрасывая все ненужное, устаревшее. Конкретный язык, как комплексное и многофункциональное явление, характеризуется большим количеством разновидностей и вариантов.

В словарном составе языка сказывается, с одной стороны, богатство и разнообразие предметов и явлений реальной действительности, а с другой стороны, семантические процессы обусловлены также языковыми законами, подчинены определенной языковой классификации. Эта классификация имеет существенное значение для лексической системы языка, на которую указывают многие лингвисты (В.В. Виноградов, К.А. Левковская, Н.Ю. Шведова, Ю.Н. Караулов, А.В. Москальская и др.)

Сегодня в Германии немецкий язык представлен тремя основными формами: литературным языком, диалектами и обиходно-разговорными типами языка, известными под общим названием Umgangssprache [1]. Характерологическая лексика и её состав попадают под все формы, указанных выше.

Стилистически дифференцированная лексика ограничивает понятность и употребительность других слоев лексики: их отдельные словарные слои не имеют абсолютной функциональной или семантико-выразительной стилиевой окраской. Она подразделяется на:

а) стилистически полностью или частично окрашенную лексику (слова и словосочетания, абсолютная стилистическая окраска которых в системе языка уже предопределяет значение в речи и тем самым достигает определенных колебаний в распространении).

б) характерологическую лексику – слова и словосочетания различной стилистической окраской, применимая не ко всем стилям и жанрам речи, т. к. характеризуют временную, территориальную, профессиональную, социальную и национальную ситуацию. Поэтому они могут представлять трудности в понимании и особенно в использовании. Стилистическое достижение этих выражений состоит в передаче разных оттенков, так называемых колоритов [2].

«Колорит» означает, что для конкретных событий, фактов и ситуаций свойственна атмосфера, которая становится ощутимой благодаря языковому своеобразию их передачи.

Характерологическая лексика, играющая важную роль для создания различных колоритов, это следующие:

- территориальный колорит словесного произведения создаётся путём использования диалектной лексики и территориальных дублетов;
- исторический колорит словесного произведения создаётся с помощью таких групп слов, как историзмы, архаизмы, анахронизмы, неологизмы, модные слова;
- национальный колорит словесного произведения создаётся иностранными словами;
- социальный колорит создаётся такими средствами, как термины, профессионализмы,



жаргонизмы, иноязычные слова и высказывания;

-профессиональный колорит создаётся с помощью терминов и профессионализмов, наименований предметов, процессов, приемов, явлений и т.д. профессиональной деятельности.

Особенностью характерологической лексики является наличие яркой стилистической окраски, сочетания в значении лексических единиц номинативного и оценочного компонентов, лежащего в основе выделения в системе лексики трёх оценочных подсистем: положительной, отрицательной и нулевой. Анализ характерологических слов позволяет выявить в их структуре две оценочные семы «хорошо» и «плохо», что позволяет говорить о существовании в системе характерологической лексики двух эмоционально-оценочных подсистем: положительной и отрицательной. Но, как свидетельствует анализ, материал не соответствует такой категоричной оценке, что обуславливает необходимость выделения третьей, амбивалентной подсистемы, куда относятся такие слова, которые имеют несколько словарных дефиниций с разными знаками оценки, которая затем уточняется в контексте, и этот знак становится однонаправленным; или вовсе не обладают четкой речевой оцениваемостью, закреплённой в лексическом значении, их оценка индивидуальна и субъективна, это «потенциально оценочные» или «двухполюсные» лексические единицы.

Характерологическая лексика придает высказыванию определенную окраску (колорит). Э. Ризель и Э. Шендельс понимают под колоритом «характерную для конкретных событий, фактов и ситуаций атмосферу, которую можно ощутить благодаря языковой особенности их воспроизведения» [3]. Э.Г. Ризель отмечает «стилистическую окраску слова», которая показывает принадлежность слова к той или иной сфере ограниченного использования лексики, например, сфере научной, деловой, художественно - литературной коммуникации. Стилистическая окраска лексики рассматривается в аспекте создания различных колоритов.

Под колоритом понимается определенный социальный или эмоциональный нюанс слова или словосочетания словесного произведения.

В языково-стилистическом оформлении Э. Ризель и Э. Шендельс различают типизирующие колориты, основанные на социальных детерминантах. Сюда включают:

- а) исторический колорит (обусловленный основным социальным фактором – временем);
- б) национальный колорит (влияет на отличительные черты национальных вариантов внутри языка и на специфику разных национальных языков);
- в) социальный колорит (в речи отдельных групп населения и возрастных групп профессиональная окраска);
- г) индивидуализирующий колорит (характеризуют отдельных людей по их личностным особенностям в целом, но прежде всего по их манере говорить).

«Колорит» означает, что для конкретных событий, фактов и ситуации свойственна атмосфера, которая становится ощутимой благодаря языковому своеобразие их передачи. Ю. Пфитнцер выделяет три разновидности колорита: локальный, профессиональный и социальный [4].

Характерологическая лексика, то есть слова и обороты, характеризующие временные, территориальные, профессиональные, социальные и национальные условия передают:

- а) исторический колорит (обусловленный временем); к ним относятся: историзмы - слова, обозначающие предметы, свойства или явления, которые больше не существуют в современном языке, например, **der Harnisch** (броня);

Архаизмы - слова, обозначающие предметы, процессы или явления, которые исчезли из реальности (устарели), например, **der Eidam** (зять), **Neubauer, Neulehrer, Maisbewegung**; [5]

Анахронизмы – слова, используемые для обозначения явления, связанные с прошлыми временами (**Arche Noah über ein Boot alter Bauart**).

Неологизмы - это недавно введенные термины, слова или фразы, которые могут быть широко использоваться в повседневной жизни, но еще не были официально приняты как составляющие основной язык. Неологизмы представлены во всех сферах общения; **der Bachelor, Job-Floater, Riester-Rente, die Öko-Steuer, Ein-Euro-Job, das Sparpaket, prokrastinieren, Migrationshintergrund, Nikab, Hidschab, Burkini** и др. Технический прогресс, достижения науки, появление новых продуктов материальной деятельности человека преломились в соответствующих лексических инновациях, например: **die**



Datenautobahn, der Stammzellenimport, die Organspende и т.д

б) национальный колорит (влияет на отличительные черты народов в пределах одного языка и специфику различных национальных языков), в основном, это диалектизмы и территориальные дубликаты.

Диалектизмы - это не литературные, устные (диалектные) слова и обороты, которые происходят из определенной географической области устного языка, не находят письменного оформления и не понимаются за пределами этой области устного языка [6].

Территориальные дубликаты - синонимы в литературном языке; литературные допустимые северные, центральные или южногерманские варианты лексики общего языка (**der Schrank (nordd.) - der Kasten (südd.)**). В берлинском выражении „**det zieht wie Hechtsuppe**“ (о сильном сквозняке) присутствует еврейское видоизменённое „**hech supha**“ (штормовой ветер). В выражении „**mir is ganz blümerant**“ (я себя неважно чувствую) присутствует французское „**bleu mourant**“;

Национальные дубликаты - различные выражения литературного языка на отдельных государственных территориях с национально однородным населением (австриаизмы: **der Wissenschaftler**; гельветизмы: **besammeln = versammeln**);

в) социальный колорит (в речи определенных групп населения и возрастов), сюда можно отнести жаргонизмы (сленгизмы), варваризмы и вульгаризмы, а также жаргонные профессиональные слова;

Термины - выражения в области знаний с заданным значением (**das Phonem** в фонетике);

Профессиональная лексика - слова определенной профессии (**sichtiges Wetter = klares Wetter für die Seeausfahrt**);

Жаргонизмы - выражение, отличное от нормы, в определенных социальных и профессиональных группах.

Вульгаризмы - грубые вульгарные выражения (издевательство); **der Allesbesserwisser** – очкарик, ботан; **der Ärmster** – бедолага; **Alles Käse!** – полная ерунда;

г) индивидуализирующие колориты (характеризуют отдельных людей по их личным особенностям в целом, но, прежде всего, по их манере речи).

Таким образом, из вышеперечисленного можно будет сделать вывод, что современная немецкая лексика объемна, разнообразна и постоянно находится в движении. Касательно характерологической лексики немецкого языка, следует отметить, что благодаря классификациям учёных, она приобретает особую роль в лингвистике, а конкретнее в стилистическом аспекте.

Характерологическая лексика немецкого языка имеет свои границы пользования: не все носители активно пользуется ею в своей речи; имеет территориальные и национальные границы; слова в её составе не всегда всем понятны; выражают временную, социальную, профессиональную рамки. То есть стилистически дифференциальная лексика современного немецкого языка выражает колорит в различных видах.

Несомненно, данная тема является актуальной, в связи с чем, мы проводим исследования, в которой будут затронуты проблемы касаясь стилистического аспекта функционирования характерологической лексики немецкого языка с использованием различных примеров, методов и приёмов.

Список использованной литературы:

- [1] Брандес М. П. Стилистика немецкого языка/ М. П. Брандес. - М.: Высшая школа, 1983. - 241 с.
- [2] Наер, Н. М. Stilistik der deutschen Sprache/ Н. М. Наер. – М.: МПГУ, 2015. – 256 с.
- [3] Riesel E., Schendels E. Deutsche Stilistik.- М.: Высшая школа, 1975. – С.205-206.
- [4] Pfitzner Jürgen: Der Anglizismus im Deutschen: Ein Beitrag zur Bestimmung seiner stilistischen Funktion in der heutigen Presse. – Stuttgart, 1978 – S.39- 40.
- [5] Ruth Klappenbach, Wolfgang Steinitz. WdG=Wörterbuch der deutschen Gegenwartssprache. 6 Bände. - Berlin, 1964-1977. - 2130 S.
- [6] Duden-GWB: Duden. Das große Wörterbuch der deutschen Sprache. 3., völlig neu bearb. und erw. - Mannheim: Bibliographisches Institut & F.A. Brockhaus AG, 1999.



О‘ЗБЕК ТИЛИ ДАРSLARIDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASH

Bahromova Shoiraxon Rahmonaliyevna

Mo‘ydinova Surayyo Po‘latxonovna

Farg‘ona viloyati Farg‘ona shahar
42-maktab o‘zbek tili fani o‘qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tilining axborot uslubini yaratish, kompyuter dasturchilari orqali o‘zbek tili grammatikasini ixcham shaklga keltirish, shuningdek, tilshunoslik fanlarini o‘qitishda yaxshi o‘rnatilgan ko‘maklashadigan interfaol o‘qitish shakllari haqida ayrim fikr mulohazalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: o‘zbek tili, tilshunoslik fanlari, kompyuter lingvistikasi, interfaol metodlar, ta’lim, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, multimedia vositalari.

Ma’lumki, kompyuter texnologiyalari fanning barcha tarmoqlariga, xalq xo’jaligi, sport, san’at, tibbiyot, umuman, ijtimoiy hayotning har bir sohasiga kirib keldi. Fan yo’nalishlarini kompyuterlashtirish ilmnining asosiy shartlaridan bo’lgan ob’ektivlik va aniqlikka amal qilishi munosabati bilan tez rivojlana boshladi va u qo’llanilgan barcha sohalarda yutuqlarga erishildi.

Turli jarayonlarni boshidan kechirgan insoniyat uchinchi ming yillikning boshida axborot asriga qadam qo’ydi. Minglab yillar davomida rivojlangan inson tafakkuri uchun bugungi kunda dastlabki manba, yani axborot olish hayotiy zaruriyatga aylandi. Shunga ko’ra jahon bozorida axborot - ma’lumot oltindan ham qimmatroq baholandi. Mazkur axborotni topish, saqlash, qayta ishlash va boshqalarga yetkazishning qulay usullariga bo’lgan ehtiyoj kun sayin oshib bormoqda. Bu esa XX asrning buyuk kashfiyoti bo’lgan kompyuter va kompyuter texnologiyalari sohasi uchun katta vazifalarni vujudga keltirdi.

Hozirgi kunda gumanitar sohalar, xususan, til va kompyuter, adabiyot va kompyuter masalalariga juda katta etibor berilmoqda. Chunki, axborot asri bo’lgan XXI asrda oltindan qimmatroq bo’lgan ma’lumotni zarar yetkazmay qabul qilish, ishonchli saqlash va eng qulay tarzda boshqalarga yetkazib berish til bilan bevosita bog’liqdir.

Bugungi kunda tilshunosligimizda o‘zbek tili bo’yicha yanada kengroq tadqiqotlar olib borish uchun yo’l ochildi. Tilshunoslarimiz oldida o‘z yechimini kutayotgan katta masalalar turibdi. Xuddi shunday masalalardan biri o‘zbek tilining axborot uslubini yaratishdir. Buning uchun tilshunoslarimizning asosiy vazifasi kompyuter dasturchilariga o‘zbek tili grammatikasini ixcham shaklga keltirib berishdir.

Hozirgi vaqtda xalq ta’limi muassasalarida yangi pedagogik texnologiyalarning ilmiy asoslarini yaratish, ularni tasniflash, metodik ahamiyatini belgilash, talim jarayoniga tatbiq etish kabi dolzarb muammolar ustida ish olib borilmoqda. Ilg’or pedagogik texnologiyalarning kompyuter texnologiyalari bilan uyg’unlashtirib tashkil etilishi va shu asosda multimedia darslarining yaratilishi asosiy yo’nalishga aylanib qolmoqda.

Multimedia axborotning turli ko’rinishlari – matn, jadval, grafika, ovoz, animatsiya (multiplikatsiya), videotasvir, musiqa yordamida axborotni yig’ish, saqlash va qayta uzatish vazifalarini bajaradi. Multimedia «inson-kompyuter» interaktiv (dialogik) muloqotining yangi, takomillashgan pog’onasi bo’lib, bunda foydalanuvchi juda keng va har tomonlama axborot oladi.

Bir qator olimlar, metodistlar tadqiqotlari shuni ko’rsatadiki, ta’lim oluvchi birinchi marta eshitgan mavzusining faqat to’rtadan bir qismini, ko’rgan materialining uchdan bir qisminigina eslab qoladi; ham ko’rib, ham eshitsa, axborotning ellik foizini esda saqlaydi. Interaktiv multimedia texnologiyalaridan foydalanilganda esa, bu ko’rsatkich yetmish besh foizni tashkil etadi. Shu bois ta’lim jarayonida kompyuter texnologiyalaridan unumli foydalanish katta ahamiyatga ega.

S.Adilovanning “O‘zbek tilini o‘qitishda kompyuter texnologiyalardan foydalanish” nomli monografiyasida ta’kidlanishicha, til o’rgatishda quyidagi kompyuter dasturlaridan foydalanish mumkin: taqdimot texnologiyasi, elektron nusxa, elektron multimedia darsligi, elektron ensiklopediya, elektron lug’at, universal test dasturi, elektron virtual kutubxona, Internet tarmog’i va boshqalar.

Kompyuter lingvistikasining asosiy maqsadi lingvistik masalalarni hal qilishning kompyuter dasturlarini yaratishdir. Uning asosiy vazifalariga tillarga o‘qitish, bilimlarni tekshirish, matnlarni turli jihatdan tahrirlash va mashina tarjimasini uchun mo’ljallangan dasturlarni ishlab chiqish kabilar



kiradi.

Kompyuter lingvistikasi O'zbekistonda o'tgan asrning 90 yillaridan boshlab ommalasha boshladi. O'zbek tilining Davlat tili maqomiga ega bo'lishi, uning jahon miqyosida obro' - e'tiborining ko'tarilishi, o'zbek tilini o'rganishga jahon xalqlari intilishining kuchayishi kompyuter lingvistikasiga bo'lgan ehtiyojni yanada orttirdi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, kompyuter lingvistikasi o'zbek tilidagi barcha so'z turkumlari asosida ma'lumotlar bazasini yaratish va uni jahon axborotlar bankiga kiritish imkoniyatini beradi. Ushbu vazifalarni hal qilish nazariy va amaliy tilshunoslikning uzviyligini ta'minlab, nazariy tadqiqotlar natijalarini jamiyat manfaatlari yo'lida qo'llashga imkoniyat yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muhamedova S. O'zbek tilidagi harakat fe'llari asosida kompyuter dasturlari uchun lingvistik taxmin yaratish.-Toshkent, 2006.-143 b.
2. Po'latov A. O'zbek kompyuter lingvistikasi.- Toshkent, 2009. -56 b.
3. Chitaeva Yu.A. Pedagogicheskie tekhnologii formirovaniya klyuchevykh kompetentsiy uchashixsya professional'nykh shkol// http://www.superinf.ru/view_helpstud.php?id=2189
4. <http://tadqiqot.uz>
5. www.ziyouz.com



EFFECTIVENESS OF INTEGRATED ENGLISH LANGUAGE TEACHING

Begjanova Aysiliu Maxmudovna

A second year master's student in
Karakalpak State University named after Berdakh
Telefon: +998976555455
aysuliwmaxmudovna@gmail.com

Abstract: *In many circumstances, the pragmatic objectives of language acquisition underline the necessity of integrated language skill teaching and adaptable instruction, as English has become a lingua franca and a medium for world-wide broadcasting of information and knowledge. When studying one theme, integration allows for the learning of complicated knowledge from several subjects. Because it helps students understand their place in the social world, the process of lesson integration has a general humanistic orientation. Integrated learning enables students to move beyond a deductive approach to observing academic events and to personalize the value of each subject in accordance with his or her own personality and circumstances. The purpose of this article is to describe the effectiveness of integrated approach used in teaching process of English language.*

Key words: *communicative language teaching (CLT) integrated approach, integrated skills, listening, speaking, reading, writing, teaching.*

Today, the modern world, thanks to rapid globalization, is undergoing major changes that affect all the most important areas of public life. Such changes have also affected the educational sphere and, of course, school education, which in this regard is subject to ever new requirements regarding its quality. In the traditional system of education, school subjects are independent and isolated from each other, which leads to such a problem as the fragmentation of students' worldviews and, as a result, a lack of understanding of the essential relationships of phenomena and processes. Therefore, one of the tasks of modern education is the formation of a comprehensively developed personality with a holistic view of the world.

Harmer considered that English language has grown and becomes global lingua franca by the end of the twentieth century due to the fact that it is spoken by more hundred million people of non-native speaker all over the world. [1]

The term "integration" is derived from the Latin word integer (whole) and it implies "to combine into one whole any parts, elements". Integration in education has a long history. It has been considered and developed by great scientists such as Ya.A. Comenius, J. Locke, I.G. Pestalozzi, I.F. Herbart, K. D. Ushinsky since the 17th century. The main factor in considering the issue of integration was finding the relationship between scientific processes and their practical application.

The integration of subjects in secondary school is one of the active and rapidly developing areas in the field of pedagogical solutions.

Annotation: When you have become more aware of words, reading is the next important step to increasing your knowledge of words, because that is how you will find most of the words you should be learning. It is also the best way to check on words you have already learned. When you come across a word you have recently studied, and you understand it, that proves you have learned its meaning.

Key words: communication, vocabulary, words, foreign languages.

The basic reason for learning foreign languages that all people have in common is communication - communication in any mode. It is a two-sided process, which requires the ability to understand each other, to be able to code a message that someone wants to convey to someone else in a way, which will be comprehensible to the receiver and also appropriate to a concrete situation and status of all participants. Vice versa the person should be able to interpret a message that someone else is conveying to them. To acquire a good skill of communication in foreign language it is necessary to be familiar not only with vocabulary (single words and their meanings, collocations, phrases and phrasal verbs etc.) but also with language structures and above all with strategies for using them in right context according to concrete situations. Learners can generally communicate well, having learnt all the basic structures of the language. However, they need to broaden their vocabulary to express themselves more clearly and appropriately in a wide range of situations.

Students might even have a receptive knowledge of a wider range of vocabulary, which means they can recognise the item and recognise its meaning. Nevertheless, their productive use of a wide range of vocabulary is normally limited, and this is one of the areas that need greater attention. At this stage we are concerned not only with students understanding the meaning of words, but also being able to use them appropriately, taking into account factors such as oral / written use of the language; degree of formality, style and others. To know a language means to master its structure and words. Thus, vocabulary one of the aspects of the language to be taught in school. The problem is what words and idioms pupils should retain. It is evident that the number of words should be limited because pupils have only 2-4 periods a week; the size of the group is not small enough to provide each pupil with practice in speaking; schools are not yet fully equipped with special laboratories for individual language learning. The number of words pupils should acquire in school depends wholly on the syllabus requirements. The later are determined by the condition and method used. For example, experiments have proved that the use of programmed instruction for vocabulary learning allows us to increase the number of the words to be learned since pupils are able to assimilate them while working independently with the programme. Learning how to build a better vocabulary can be a pleasurable and profitable investment of both your time and effort. At least fifteen minutes a day of concentrated study on a regular basis can bring about a rapid improvement in your vocabulary skills, which in turn can increase your ability to communicate by writing, conversing, or making speeches. Acquiring a large vocabulary can benefit you in school, at work, and socially. It will enable you to understand others' ideas better and to have the satisfaction of getting your thoughts and ideas across more effectively. Of course, you already know thousands of words, and you will continue to learn more whether you work at it or not. The fact is that many of the words you know were probably learned simply by coming across them often enough in your reading, in conversation, and even while watching television. But increasing the pace of your learning requires a consistent, dedicated approach. If you learned only one new word a day for the next three years, you would have over a thousand new words in your vocabulary. However, if you decided right now to learn ten new words a day, in one year you would have added over three thousand to what you already know, and probably have established a lifetime habit of learning and self-improvement.

Many people are surprised when they are told they have small vocabularies. “But I read all



the time!” they protest. This shows that reading alone may not be enough to make you learn new words. When we read a novel, for instance, there is usually a strong urge to get on with the story and skip over unfamiliar or perhaps vaguely known words. But while it is obvious when a word is totally unknown to you, you have to be especially aware of words that seem familiar to you but whose precise meanings you may not really know. Instead of avoiding these words, you will need to take a closer look at them. Once you have begun looking up words and you know which ones to study, vocabulary building is simply a matter of reviewing the words regularly until you fix them in your memory. This is best done by setting aside a specific amount of time each day for vocabulary study. During that time you can look up new words you have noted during the day and review old words you are in the process of learning. Set a goal for the number of words you would like to learn and by what date, and arrange your schedule accordingly. Fifteen minutes a day will bring better results than half an hour once a week or so. However, if half an hour a week is all the time you have to spare, start with that. You may find more time later on, and you will be moving in the right direction. Teaching a word does not cause its automatic learning by the students. That is one of the first things teachers realize when they start teaching. It would be wonderful if finishing a unit of the course book meant that the students master all the words in it. Unfortunately, a lot of work (recycling, vocabulary notebooks keeping, memory techniques ...) has to be done before students thoroughly know a word. The activities which follow have been tested on students and provide a practical suggestion for a systematic approach to vocabulary learning. English vocabulary is enormous and grows steadily with technological and cultural assimilations.

References

1. Jalolova T. tadqiqot.uz Proceedings of the Republican Conference. Tashkent, 2020
2. Hymes, D. H. 1981. On communicative competence. In The communicative approach to language teaching. (ed.) C. J. Brumfit and K. Johnson. Oxford: Oxford University Press
3. Krashen, Stephen: Principles and Practice in second language acquisition Logman, 1993
4. Nunan David: Language Teaching Methodology, a textbook for teachers Longman, 2000



CHET TILIDA GAPLASHISHNI O‘RGANISHNING SAMARALI YO‘LLARI

Mexmonova Dilrabo Olimovna

Farg‘ona viloyati O‘zbekiston tumani

22- son maktabning Ingliz tili fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola chet tili o‘rganishning muhimligi, chet tilida gaplashishni o‘rganishning samarali usullari va bunda qo‘llaniladigan metodlar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: chet tili, metod, ingliz tili, nutq, speaking, listening, writing, reading, maktab, gaplashish.

Bugungi kunga kelib chet tillari ayniqsa, ingliz tili o‘rganishga bo‘lgan talab va qiziqish shunchalik kuchaydiki, bog‘cha yoshidagi bolalardan boshlab katta yoshdagi mutaxassislargacha ingliz tili o‘rganishga harakat qilyaptilar. Bu ijobiy holat albatta, chunki, til o‘rganish o‘sha tilda gaplashuvchi davlatlar madaniyati, tarixi va urf odatlarini o‘rganish bilan birga shaxsiy manfaatlar yo‘lida ham eshiklar ochilishiga zamin yaratadi.

XXI asrda texnologiyalarning shiddatli rivojlanishi tilshunoslik sohalariga ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatmoqda. Bu o‘z navbatida ishlab chiqarish texnologiyalarini import va eksport qilish, turizm, chet davlatlarida o‘z kasbiy faoliyatini davom ettirish kabi bir qator sabablar bilan bog‘lanadi. Ayniqsa, O‘zbekistonda shijoatli yoshlarning chet tillariga bo‘lgan qiziqishi yanada ortib bormoqda. Chet tilini o‘rganish jarayoni yosh bilan aloqador hisoblanadi. Chunki “Yoshlikda o‘rganilgan bilim – toshga o‘yilgan naqsh” deyilishi bejiz emas. Kuzatishlar natijasida yosh o‘rganuvchilarning chet tilini o‘rganishida bir qator qiyinchiliklarga duch kelganini guvohi bo‘ldik. Masalan, ingliz tilini Grammatik jihatdan o‘rganishlarga oson tuyulsada, u tilni gapirish faoliyatida qo‘llash birmuncha qiyinchilikka olib keladi.

Gapirish og‘zaki muloqotning ko‘rinishi bo‘lib, u nutq faoliyatlaridan biri hisoblanadi. Gapirish og‘zaki muloqotning integral(bog‘liqlik) qismi bo‘lib, fikrni ifodalashda aniq leksik, grammatik va fonetik qismlarning to‘g‘ri shakllanishi bilan bog‘lanadi. Masalan, ingliz tilida” Men kitobni 3 hafta mobaynida o‘qib bo‘ldim “I have read the book for 3 weeks”. Bu gap zamon va so‘zlarning to‘g‘ri o‘z ma‘nosida qo‘llanilishi leksika va uni nutqda to‘g‘ri talaffuz qilinishi fonetika bilan bog‘lanadi.

Ingliz tilida gapirish (speaking) ga o‘rgatish, o‘qish (reading) va yozish (writing) ga nisbatan muhimroq. Tinglab tushunish (listening) o‘z navbatida gapirish bilan birgalikda amaliyotda qo‘llanila boshlaydi. Masalan, maktabgacha ta‘lim yoki boshlang‘ich sinf o‘quvchilari hali o‘z ona tilisida yozish va o‘qishni endi o‘rganish borasida, chet tilida ularni qo‘llay olish bir qator qiyinchiliklar tug‘diradi. Hali gapirishni bilmaydigan chaqaloqni olaylik, u uchun atrofdagi gapiruvchilarning tili tushunarsiz bo‘lishi mumkin. Lekin eshitish, ma‘nolarni bilish orqali u o‘sha tilda gapirishni o‘rganadi. Demak, tinglab tushunish yosh o‘rganuvchi uchun gapirishda muhim rol o‘ynar ekan. Yuqoriroq sinflarga ko‘chgan sayin writing va reading mo‘ljaldagi maqsadlarga aylana boradi.

Ingliz tiliga o‘qitishda yangi g‘oyalar, texnologiyalardan foydalanilgandagina rivojlanishga, taraqqiyotga erishish mumkin bo‘ladi. Mashg‘ulotlar jarayonida ularga amal qilinsa, yaxshi samara berishi shubhasizdir. Qo‘shimcha matn o‘qitish texnologiyasidan foydalanishdan maqsad, ta‘lim olishda eng umumiy g‘oyalar bilan o‘quvchilarni tanishtirishdan iboratdir. Bu texnologiya shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni aks ettiradi, har bir o‘quvchining bilim, malaka va ko‘nikmalarni egallashlarigina emas, balki uning rivojlanish individual xususiyatlarini hisobga olgandagina unumli, ijobiy natijalarga erishish mumkindir.

O‘qilgan qo‘shimcha matnni tushunganligini tekshirishga mo‘ljallangan mashqlar quyidagicha ifoda etilishi mumkin: *Answer the questions on the text Tashkent.* Savol-javob mashqlaridan o‘qilgan matnni o‘zlashtirilganini bilish uchun, foydalanilganda ayrim savollarni soddalashtirish mumkin.

Qo‘shimcha matn o‘qitishda maxsus xonalarda dars olib borish, haqiqatda samarali bo‘lishi uchun darsda lingofon qurilmasidan foydalanib, o‘quvchilarning mustaqil ishlashlariga sharoit yaratish kerak bo‘ladi. So‘nggi paytlarda darsda bunday uslubdan foydalanishga e‘tibor kuchaymoqda. So‘nggi ilg‘or metodikalarga tayanib, ingliz tili darslarida o‘quvchilarning mustaqil ishlari deb ularning nutqiy ko‘nikmalarini shakllantirish va takomillashtirish, berilgan



topshiriq bilan o'quv jarayoni uslublari ma'lum tartibda nutqiy malakalarini rivojlantirishga oid mustaqil ishlarni tushunamiz.

Yosh o'rganuvchilar uchun harakatlar asosida tilni o'rganish samarali bo'ladi. Chunki kinetik yo'l bilan o'rganish ularga o'yin jarayoni tuyuladi va qiziqishi oshadi. Bu jarayonda “Ko'prik” o'yinini qo'llab ko'rish mumkin. Rangli to'rtburchak qog'ozlarning har biriga yangi so'zlar (hafta kunlari, ranglar, sonlar) ni yozib chiqing. So'ngra ularni ko'prik shaklida terib chiqing. Bola ko'prikdan o'tishi uchun har bir qog'ozdagi so'zni aytib qadam tashlashi kerak. Bu takror qilinsa, so'z yodlash osonlashadi.

Shuningdek, yosh o'rganuvchilarda “role play” (sahna ko'rinishi) lari ham gapirishni rivojlantiradi. Qo'g'irchoqlarni ertaklar asosida tilga kiritish. Bu bolaning ijodkorligini ham oshiradi. Shuningdek o'zlari ertak qahramoni obrazida ishtiroki ayniqsa o'ziga bo'lgan ishonchni ko'taradi. Bu esa o'zgalar oldida uyalmasdan yoki qo'rqmasdan chet tilida gapirishga yo'l ochadi.

Yuqori sinflarda, “story telling” (hikoya tuzish) ni qo'llash mumkin. Bunda sinfdagi har bir o'quvchi bitta gap orqali hikoyani uzluksiz va mazmunan bog'liq holda davom qildirishi kerak. “Surat tasvirlash”, “Farqni top” kabilar shu yoshdagilarga mosdir.

Demak, chet tilida gapirish, til o'rganishning dastlabki va uzluksiz jarayoni hisoblanib, birmuncha e'tibor talab qilinadi. Bu jarayonda o'rganuvchiga amaliy ko'mak va motivatsiya lozim bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. J.J.Jalolov. Chet tili o'qitish metodikasi. Foreign Language Teaching Methodology. -T.O'qituvchi, 2012.
2. R.P.Millrood. English Teaching Methodology. -M. Drofa, 2007.
3. <https://infocom.uz>
4. <https://conferences.uz>



THE IMPORTANCE OF INTERNATIONAL CULTURE

Мейлинорова Феруза Бахтиер қизи,

Тошкент юридик техникуми

“Юристлар учун инглиз тили” фани ўқитувчиси

Телефон: +998998300885

feruzamahmudova030392@gmail.com

Аннотация: If people want to be successful in global business, they must understand the cultures of other countries and learn how to adapt to them, or change their practices in different cultures. It is important for them to avoid business decisions that are based on misconceptions – mistaken ideas [1].

Калит сўзлар: global business, misconception, ethnocentrism, value, attitude, manner, custom, material elements, material culture, economic infrastructure, social infrastructure, financial infrastructure.

One cause of misconceptions is ethnocentrism, the belief that one's own culture's way of doing things is better than the way of other cultures [2]. Ethnocentrism can exist in an individual person or in an organization. In the case of an individual person, ethnocentrism takes the form of “we are better than anyone else.” For a global company, there are several examples of ethnocentrism:

1. The company uses the same methods abroad that it uses in the home country.
2. It does not adapt (change) a product to fit the needs of other country.
3. It sends managers with no international experience to work abroad.

To avoid ethnocentrism, it is necessary to study the different elements of culture. These include language, religion, values, customs, and material elements.

Language

Knowledge of the local language can help international businesspeople in four ways. First, people can communicate directly, without relying on someone else to translate or explain what is happening. Second, people are usually more open in their communication with someone who speaks their language. Third, an understanding of language allows people to infer the implied meanings and other information that is not said directly. Finally, knowing the language helps people to understand the culture better.

Religion

Religion influences everything about people, including their work habits. In the United States, people talk about the *Protestant work ethic*, which simply means a belief that people should work hard and save their money. In many Asian countries, the same idea is called *Confusion work ethic*. In Japan, it is the *Shinto work ethic*. Such a work ethic may influence even members of the culture who do not practice the religion.

Values and Attitudes

Values are people's basic beliefs about the difference between right and wrong, good and bad, important and unimportant. An attitude is a way of thinking or acting. Values and attitudes influence international business. For example, many people in the United States believe that chocolate from Switzerland is better than chocolate from other countries (a value), and they buy a lot of it (an attitude).

Customs and Manners

Customs are common social practices. Manners are ways of acting that the society believes are polite. For example, in the United States, it is the *custom* to have salad before the main course at dinner, not after. American table *manners* include not talking with food in your mouth and keeping your napkin in your lap, not on the table. In some countries, it is polite to arrive at a party late; in others it is important to be on time. International business needs to understand the customs and manners of other countries, or they will probably have difficulty selling their products. For example, an American orange juice company in France will have a problem if it sells orange juice as a breakfast drink because the French do not usually drink juice with breakfast.

Material Culture

Material culture means the things that people make or own. When we study material culture, we need to think about how people make things (technology) and who makes them and why



(economics) [3]. International businesses need to consider the *country's economic infrastructure* such as transportation, communication, and energy systems [4]; the *social infrastructure* – for example, the health and education systems [5]; and the *financial infrastructure*, such as banking services [6].

These – and other – elements of culture help to explain the different cultures. Without an understanding of cultures, global business will not be successful. Knowledge of a country's language, beliefs, customs, and infrastructure can help business to avoid costly mistakes.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/misconception>
2. Ethnocentrism and cultural relativism.
3. <https://open.maricopa.edu/culturepsychology/chapter/erelativism>
4. Material and non-material culture. <https://cliffnotes.com>
5. Namratha Reddy. “Economic Infrastructure – Intro, Types, Significance”, May 31st, 2018. <https://www.toppr.com/bytes/economic-infrastructure>
6. Herbert Clients Freehills. Social infrastructure.
7. <https://www.herbertsmithfreehills.com/hsfpdf/our-expertise/sector/social-infrastructure>
8. The financial infrastructure. www.riskbank.se



INGLIZ TILIDA SO‘ZLASHUV FRAZEOLOGIZMLARI HAMDA ULARNING SEMANTIK TURKUMLANISHI

Muhtorxonova Murtazamxon Umarovna

Farg'ona viloyati O'zbekiston tumani
22-son maktabning Ingliz tili o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ingliz tilida so'zlashuv frazeologizmlari, ularning semantik turkumlanishi haqida malumotlar berilgan va misollar yordamida tushuntirilgan.

Kalitso'zlar: frazeologiya, frazeologik birliklar, neytral frazeologizmlar, adabiy frazeologizmlar, modal-imperativ formalar.

Tilning frazeologik sathi insoniyatning necha yillik bilim tajriba va madaniyati asosida rivojlanib, boyib boradi. Frazeologik birliklar til egasi bo'lgan xalqning ma'naviyati, madaniyati, urf-odatlar, kasbi, yashash sharoiti, intilishlari, voqelikka munosabati bilan uzviy ravishda bog'liqdir. Ma'lumki, inson dunyoni nafaqat ob'yektiv tasvirlashga balki, borliqdagi predmetlarning xususiyatlarini anglash, ularni baholashga ham intiladi. Frazeologik birlik (FB) larda esa ob'yektiv bilimlar va insonning ularga nisbatan sub'yektiv munosabatlari aks etgan bo'ladi, ya'ni FB larda so'zlovchining nutq holatiga nisbatan shaxsiy bahosi aks etgan bo'lishi mumkin. FB lar turlicha klassifikatsiya qilinib, bu ularning ma'nosi, ma'lum bir kontekstda qanday qo'llanilishi, qaysi gap bo'lagini ifodalab kelishi hamda ko'plab qator omillar bilan bevosita aloqador. FB larni funksional-stilistik jihatdan turkumlarga bo'lganda, ular eng avvalo ikki yirik guruhlarga ajratiladi:

1. Neytral frazeologizmlar;
2. Adabiy frazeologizmlar;

Neytral FB larga iste'moli cheklanmagan, ko'pchilik tomonidan qo'llaniladigan hamda tushunarli bo'lgan, hech qanday qo'shimcha emotsional- stilistik bo'yogga ega bo'lmagan frazemalar kiritiladi. Bunday birliklar og'zaki nutqda ham yozma nutqda ham bemalol qo'llanila oladi. Masalan: take care of- g'amxo'rlik qilish; look through-ko'zdan kechirmoq; day by day-kundan kunga;

Adabiy FB lar yuqori darajadagi kitobiyli, badiiy stilga xoslanganligi, bilan xarakterlanadi, hamda ularga poetik frazeologizmlar, istorizmlar, arxaizmlar, antik davr adabiyotidan kirib kelgan FB lar, boshqa tillardan o'zlashgan frazemalar, bibliizmlar, adabiyot va san'atga oid iboralar kiritiladi.

Poetik-adabiy FB lar nazmda yuqori ruh bag'ishlaydi va emotsional ta'sirni oshiradi: the silken band-do'stlik va sevgi rishtasi; under the sad-qabr holati; to bring to mould-yer bilan yakson qilmoq; under the rose-sirli ravishda, tun qorung'usida;

-arxaik FB lar hozirda mavjud bo'lmagan tushunchalarni ifodalab kelgan birliklar bo'lib, ba'zan badiiy asarlarda makon va zamonni ifodalash uchun xizmat qiladi. Bu turga ba'zi shekpirizmlar ham kiritilishi mumkin. Masalan: lady of the manor house-feodal qasr bekasi; to shuffle off-hayotdan ko'z yummoq; germane to the matter-maqсадga yaqin;

-adabiy FB larga qadimgi grek yoki qadimgi lotin tili adabiyotidan kirib kelgan namunalar ham kiritiladi: the Islands of the Blessed –devonalar oroli, the Age of Reason –ratsionalizm asri, the cask of Danaides –Daneyd bochkasi, tubsiz bochka. Bu turkumga sud, parlament, armiya bilan bog'liq FB larni ham kiritamiz: the Newgate Calendar –Nyugeyt qamoqxonasi ma'lumotlar bo'limi; to accept the Chiltern Hundreds – o'zini ahamiyatli parlament a'zosi deb hisoblamok;

-istorizm FB larga tarixiy- shaxslar nomlari, turli tarixiy qonunlar, geografik joy nomlari bilan bog'liq birliklar kiritiladi. Bill of Rights –Bill qonunlari, a Florence nightingale – tirishqoq hamshira va boshqalar;

- ingliz frazeologiyasida terminologik FB lar ham salmoqli hissani tashkil qiladi va ularga Buyuk Britaniya davlat boshqaruvi, uning mintaqaviy bo'linishi va boshqa davlat ahamiyatiga molik voqea-hodisalarni ifodalovchi terminologik birliklar kiritiladi: members above the gang way- sobiq vazirlar va parlamentning oddiy a'zolari; Lords temporal- oqsuyak janoblar.

Umumxalq tilning ma'lum bir ko'rinishi sifatida ko'zga tashlanuvchi va nutqiy aloqaning ma'lum turi sifatida qo'llaniluvchi til vositalarining majmui til uslubi hisoblanadi. U tarixan shakllangan hisoblanadi. Ma'lumki tilda nutqiy aloqaning u yoki bu turiga qarab til materialini tanlash va qo'llash tajribasi mavjud. Masalan, oilaviy suhbatda, rasmiy bayonotda, ilmiy maqolada,



gazeta xabarlarida umumxalq tili asoslari turlicha tanlanadi va ishlatiladi. Natijada ular o'zining uslubiy maqsadi va bo'yog'i ekspressiya va ma'no nozikliklari bilan bir-biridan farqlanadi.

So'zlashuv uslubi maxsus tayyorgarlik ko'rilmay shakllangan uslub sistemasidir. So'zlashuv jarayonida suhbatdoshlar bir-birining savoliga javob berganda tayyorgarlik ko'rmay vaziyatga qarab fikr yuritadi, bunda suhbatdoshlar aktivligi va operativligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Aktivlik va operativlik natijasida til vositalarini iqtisod qilishga intiladilar va natijada so'zlashuv FB lari vujudga keladi. So'zlashuv uslubi sub'yektiv xarakterdagi uslubdir, kishi ob'yektiv borliqni turlicha baholaydi, natijada uning sub'yektiv fikrlari shakllanadi. Kishi shoshilinch tarzda tezlik bilan biror voqea-hodisa haqida xabar bermoqchi bo'lsa, o'z nutqini sub'yektiv qobiqqa o'raydi. Natijada sub'yektiv fikrni ifodalovchi uslub shakllanadi.

So'zlashuv nutqida modal-imperativ formalar ko'p ishlatiladi. Kundalik aloqada bevosita suhbatdoshning fikriga ta'sir o'tkazish uchun imperativ ekspressiyadan foydalaniladi. Shu sababli modal xarakterga ega imperativ FB lar ko'p uchraydi. Masalan: Man alive! (Tezroq, jonliroq harakat qilinglar!), Marry come up! (Buni qarang-a!). Shunisi xarakterliki, so'zlashuv nutqida informativlikdan ko'ra kommunikativlik kuchli bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии.
2. Арсеньева Е.Ф. Фразеология и фразеография в сопоставительном аспекте.
3. Жуков В.П. Семантика фразеологических оборотов.
4. Йулдошев Б. Ўзбек фразеологияси ва фразеографиясининг шаклланиши ҳамда тараққиёти.



INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI OTLARNING BIRLIK VA KO‘PLIKDA QO‘LLANILISHINI O‘RGANISH

Narimanova Mavluda Adamboy qizi

Xorazm viloyati Yangibozor tumani

31-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi

ingliz tili fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi jamlovchi va yakka otlar, ingliz tilidagi jonli va jonsiz otlarning birlik hamda ko‘plikda qo‘llanilishi masalalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: ingliz tili, o‘zbek tili, ot, jamlovchi otlar, yakka otlar, tur, birlik, ko‘plik, predmet, so‘z, jonli otlar, jonsiz otlar, konkretlash.

O‘zbek tilida otlarning **jamlovchi** va **yakka** turlari ajratiladi. Jamlovchi otlar muayyan jinsdagi predmetlarning yig‘indisini bir butun holda anglatadigan turdosh otlardir. Jamlovchi otlar birlik shaklda yakka-yakka predmetlarni emas, balki bir butunga jamlangan ko‘p predmetlarni anglatadi: *armiya, xalq, olomon, to‘da, meva* kabi. Yakka otlar esa mazmunan jamlovchi otlarga qarama-qarshi turadi. Yakka otlarda predmetlar yakka-yakka holatda tasavvur qilinadi: *inson, soldat, kitob* va h. Bunday otlar -lar ko‘plik shaklini bimalol qabul qila oladi.

Ingliz tilida otlar jonli va jonsiz turlarga bo‘linadi. Jonsiz otlar mavhum va konkret otlarga ajratiladi. Konkret otlar birlik va ko‘plikda ishlatiladi: *A book – books*; mavhum otlar ko‘plikda ishlatilmaydi: *love, freedom, hatred, hope, will*.

Ingliz tilida ko‘plik shakli bilan bog‘liq quyidagi holatlar mavjud:

1. Moddiy otlarning xili, turi inobatga olinsa, ular ko‘plik formasini qabul qiladi, biroq ko‘plik ma’nosini ifodalamaydi: *Water is necessary for life. There are several mineral waters in Uzbekistan*.

2. Moddiy otlar konkretlashganda ko‘plik formasini qabul qiladi va birlikda **a/an** noaniq artikl bilan ishlatiladi: *The ground was as hard as stone. The boy threw a stone into the water*.

3. Mavhum otlar konkretlashganda birlik va ko‘plikda ishlatilishi mumkin: *He made a speech yesterday. His speeches are always interesting. Animals do not possess the power of speech. There are very many amusements in this park. He does that for amusement*.

O‘zbek tilida, odatda, -lar affiksini qabul qilgan turdosh otlar ko‘plik son shaklini, -lar affiksini qabul qilmagan turdosh otlar esa birlik son shaklini tashkil qiladi. Birlik sonning **Ø** shakli hamda ko‘plik sonning **-lar** shakli bir-biriga ziddiyatda turadi va otlarga xos bo‘lgan morfologik belgilardan biri son paradigmasini yuzaga keltiradi. Masalan, *daftar – daftarlar, uy – uylar, talaba – talabalar, universitet – universitetlar*. Otlarning birlik son shakli ham, ko‘plik son shakli ham o‘z umumiy va xususiy grammatik ma’nolariga ega.

Otning birlik shakli yakka bir predmetnigina anglatib qolmay, matnda aniq va noaniq ko‘plik ma’nolarini ham ifodalaydi. Chunonchi, *Bobom erta bahorda yigirma tup ko‘chat o‘tqazdilar* (aniq ko‘plik); *Uzoqdan uch-to‘rt otiq ko‘rindi* (*M. Ismoiliy*) (noaniq ko‘plik).

Ingliz tilida otlarda son kategoriyasi morfologik yo‘l bilan amalga oshiriladi, ya’ni **-s** yoki **-es** qo‘shimchasi otning o‘zak yoki negiz qismiga qo‘shiladi. Jarangli va jarangsiz undoshlardan keyin **-s**, sirg‘aluvchi va shovqinli undoshlardan hamda unlilardan keyin **-es** tarzida qo‘shiladi: *hand – hands, pen – pens, book – books, class – classes, bench – benches, dish – dishes, box – boxes*.

Unli **e** harfi bilan tugagan otlarning ko‘plik formasi **-s** qo‘shimchasini qo‘shish bilan yasaladi: *horse – horses, place – places, prize – prizes, judge – judges*; otlar **y** harfi bilan tugab, **y** dan oldin undosh harf kelgan bo‘lsa, ko‘plik formasini yasash uchun **y** harfi **i** ga aylanadi va **-es** qo‘shimchasi qo‘shiladi. *City – cities, army – armies, factory – factories*, otlar **«y»** harfi bilan tugab, **y** dan oldin unli harf kelgan bo‘lsa, **«y»** harfi o‘zgarib **-es** qo‘shimchasini qabul qilaveradi: *day – days, boy – boys, toy – toys, key – keys*; otlar **o** harfi bilan tugagan bo‘lsa, **o** dan keyin **-es** qo‘shimchasini qo‘shish orqali ko‘plik formasi yasaladi: *cargo – cargoes, hero – heroes, tamato – tomatoes*; ba’zi **o** harfi bilan tugagan so‘zlarning ko‘plik formasi **-s** qo‘shish bilan ham yasaladi: *mosquito – mosquitos, mosquitos*; otlar **“f”** harfi bilan tugagan bo‘lsa, **f** harfi **v** ga aylanib, **-es** qo‘shimchasini qabul qiladi: *leaf – leaves, knife – knives; wife – wives*; ba’zan **f** harfi bilan tugagan otlar **f** harfini o‘zgartirmay **-s** qo‘shimchasini qabul qiladi: *chief – chiefs, handkerchief – handkerchiefs, roof – roofs, safe – safes; wharf, sear* so‘zlarining ko‘plik formasi ikki xil yasaladi:



wharfs/wharves, scarfs/scarves.

Rus tilida faqatgina birlikda ishlatiladigan *export* va *import* soʻzlari (eksport, import) ingliz tilida birlik va koʻplikda ishlatiladi. Chiqarilgan yoki kiritilgan tovarlarning soni yoki narxi inobatga olinsa, bu otlar koʻplik formasini qabul qiladi: *Chinese import have increased in our country*. Chiqarilgan yoki kiritilgan tovar jarayoni inobatga olinsa, bu otlar birlikda ishlatiladi: *This firm is engaged in the export and import of different machines.*

Oʻzbek tilida kompozitsiya usuli bilan yasaladigan turdosh qoʻshma otlarga koʻplik qoʻshimchasi erkin qoʻshilaveradi: *beshiktebratarlar; gulbeorlar; gultojixoʻrozlar* kabi. Ammo atoqli ot (*Gala Osiyo*), sanalmaydigan, oʻlchash mumkin boʻlgan predmetlar(*paxtayog*)ning nomini ifodalovchi ot koʻrinishidagi qoʻshma otlarga qoʻshilgan -lar qoʻshimchasi koʻplik maʼnosini ifodalamaydi.

Ingliz tilida qoʻshma otlarda koʻplik maʼnosi quyidagicha ifodalanadi:

a) koʻplik formasini asosiy maʼnoga ega boʻlgan ot qabul qiladi: *custom – house – custom – houses. Man of war – men of war; hotel Keeper – hotel – Keepers, mother – in – law – mothers – in – law, passer-by – passers - by.*

b) agar qoʻshma otning birinchi qismi **man** yoki **woman** soʻzidan iborat boʻlsa, har ikkala qism koʻplik formasini qabul qiladi: *man – servant – men servants, woman – doctor – women – doctors.*

d) tez – tez ishlatiladigan qoʻshma otlarning ikkinchi qismi koʻplik formasini qabul qiladi: *schoolboy – schoolboys, housewife – housewives, postman – postmen.*

e) qoʻshma otlarning ikkinchi va uchinchi elementlari otdan iborat boʻlmasa, oxirgi element koʻplik formasini qabul qiladi: *forget – me – not forget – me – nots, merry – go – round – merry – go – rounds.*

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alimova M., Yuldasheva D. Ingliz va oʻzbek tillarining qiyosiy morfologiyasi. –Buxoro, 2006.
2. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Darslik. – T.: Fan va texnologiya, 2010.
3. Bobojonova S. tadqiqotuz respublika konferensiya materiallari. T., 2020.
4. Internet materiallari.



“ТА’ВИЗ-УЛ OSHIQIN” DEVONIDA QO‘LLANGAN FITONIMLARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI

Rajapova Ozodaxon Bahromovna

Xorazm viloyati Urganch shahar

18-son maktabining o‘zbek tili

fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. «Ogahiy poeziyasidagi fitonimlar» nomli maqolada o‘simlik nomlarini tizimli (sistem) tahlil qilish barobarida, ular orasida uchraydigan dialektal so‘zlarga ham munosabat bildirilgan

Kalit so‘zlar: sozoq, sipand, arg‘uvon, sunbul, shamshod, sanavbar, ar‘ar, tok, bug‘doy, mosh, juvan, kadu, bodom, nilufar, gul, ko‘lcha, badrav, yop, rosh

Ogahiy poeziyasida boshqa soha so‘zlari qatori, fitonim (o‘simliklar nom) larga ham duch kelinadi. Uning she‘riyatidan yovvoyi, madaniy, xonaki, ko‘p yillik o‘simliklar nomlari o‘rin olgan. O‘simliklar nomlari o‘z ma‘nosida, shuningdek, ko‘chma ma‘noda qo‘llanilgan. Bunday o‘simliklar va qishloq xo‘jaligiga oid so‘zlarga sozoq, sipand, arg‘uvon, sunbul, shamshod, sanavbar, ar‘ar, tok, bug‘doy, mosh, juvan, kadu, bodom, nilufar, gul, ko‘lcha, badrav, yop, rosh kabilar misol bo‘la oladi. Bularning ayrimlari Xorazm shevalariga taalluqli bo‘lib, Ogahiy poeziyasida leksik dialektizm sifatida ishlatilgan:

Qish mavsumida qurilsa bir toza o‘tov,
YOnsa ichida quruq sozoq birla olov,
Armoni bo‘lurmu dahr aro ul kishining –
Kim, anda tuzub bazm, esa yog‘li palov.

Ogahiy ruboiysida ajratib ko‘rsatilgan sozoq so‘zini professor F.Abdullayev saksovlarning mayda turi ekanligini qayd etadi: ras bir mashym sazaq o‘dymñ vosa, hāzātīp yaqyb yassañ (Hazoraspi).

O.Madrahimov bu so‘zning Xorazm shevalaridan tashqari, turkman tilida sazak, ozarbayjon tilida sazag tarzida uchrashini qayd etadi.⁵

Qoraqalpog‘istondagi o‘zbek shevalarida esa sazaq, botanikaga oid termin sifatida aynan saksovlarni ifodalashi ta‘kidlangan.

Ogahiy poeziyasida iste‘molda bo‘lgan o‘simlik nomlaridan yana biri isiriq ma‘nosidagi isvānd//sipand hisoblanadi. F.Abdullaev Xorazmning Gurlan, Mang‘it, Yangibozor tumanlari aholisi nutqida isiriq+ādrāsmān, Xiva, Urganch, Xonqa, Hazoraspi da esa isvānt tarzida ishlatilishini qayd etgan.

O. Madrahimovda ādrāsmān varianti uchramaydi. U isvānt so‘zining o‘g‘uz shevasiga xos bo‘lib, bu o‘simlikning toshloq joyda o‘sadigan giyohli-gini, bundan tashqari, ысыгық so‘zi qipchoq hamda o‘g‘uz shevalarida mavjudligini ko‘rsatadi.

Qoraqalpog‘istondagi o‘zbek shevalarida, xususan, To‘rtko‘l va Beruniyda isvānt⁵; Xo‘jayli, Qo‘ng‘irot, Mang‘itda adyrasman//adrasman shaklida uchraydi.

Demak, Xorazm vohasi o‘zbek shevalarida pastki cho‘l mintaqasida o‘sadigan tuyatovonlar oilasiga mansub isiriq o‘simligi nomi isvānt// ысыгық//adyrasman//adrasmin//ādrāsmān kabi variantlarda uchraydi.

Ogahiy poeziyasida esa bu o‘simlikning nomi vazn talabiga ko‘ra, sipand//ispand tarzida qo‘llanilgan:

Savodi zulfini ko‘rgach yumor Ogahiy tun deb ko‘z,
Yuzig‘a nozir o‘lg‘och ham tutar qo‘l birla kun deb ko‘z,
Ko‘ngul hayratda qolma ko‘rmas oni ne uchun deb ko‘z,
Ul oy o‘tlug‘ yuzin ochsa, Navoiy, tegmasun deb ko‘z,
Muhabbat tuxmidin o‘zga ul o‘t uzra sipand etmas.⁷

Tadqiqotchi H.Norimov bir maqolasida, jumladan, ispand va adrasman so‘zlariga ham e‘tibor berib, isvant so‘zining «Avesto»dagi sipenta; sipanta bilan bog‘liqligi, isvant so‘zining asp (ot) va band (bog‘lovchi, band qiluvchi) so‘zlaridan iboratligi, sababi isvant o‘simligidan qadimda otga arqon tayyorlanganligi, ana shuning uchun ham bu so‘z aspband (otni bog‘lovchi) so‘zining fonetik o‘zgarishga uchragan shakli deb baholanishi, keyingi tadqiqotlarda «Avesto»dagi



sipanta (ezgu, muqaddas) soʻzi bilan aloqadorligi, sipanta>isvant>ispant tarzi talaffuz qilinishi, shuningdek, Yangibozor va Gurlan shevalaridagi adraspan soʻzining ham isvant soʻzi bilan bogʻliqligi, oʻz navbatida, adraspan adr va spanta komponentlaridan tashkil topishi, spanta soʻzidagi -ta elementining tushib qolishi, bundan tashqari, adr komponentining avesto tilidagi oʻt, olov maʼnosini bildiruvchi atar bilan aloqadorligi, pirovardida, ator-adar-adr shakli vujudga kelib, adraspan soʻzining muqaddas olov, ezgu olov maʼnolarini anglatishini taʼkidlaydi.

Ogahiyning “Toʻynoma” sheʼrida tilga olingan, dorbozlar oyogʻiga kiyib oʻyin, tomosha koʻrsatadigan kadu soʻzi, aslida, tojikcha boʻlsa-da, Xorazm shevalarida oshqovoq maʼnosida ishlatiladi. Xorazm shevalarida: kadi+qovoq–oshqovoq, nas+qovoq; Qoraqalpogʻistondagi oʻzbek shevalarida kadi–qovoq: sälläkadi//markädi (Beruniy–anjir oshqovoq); dasmal kadi–idish-tovoq yuvadigan qovoq; shāñgil kadi–suv qovoq (krujka sifatida ishlatiladi); almakädi–tomosha qovoq; naskädi–nosqovoq; chilim kadi–chilim solinadigan oshqovoq; palav kadi–yaxshi nav oshqovoq; suvkädi–suv solib keladigan, suv turadigan qovoq; dästärkadi–katta oshqovoq; kadi bäräk (Toʻrtkoʻl) - qovoq chuchvara; kadi shoʻrva–qovoq shoʻrva; kadi gömmä–qovoq somsa; O. Madrahimovda kä:di oʻgʻuz shevasida: 1) oshqovoq; 2) gʻaltak; bir kadi ip maʼnolariga ega.

Shuni taʼkidlash joizki, Ogahiyning prozaik asarlariga nisbatan nazmiy asarlarida oʻsimliklar nomlari va qishloq xoʻjaligiga oid soʻzlar kamroq uchraydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov Gʻ., Shukurov Sh., Mahmudov Q. Oʻzbek tilining tarixiy grammatikasi. – Toshkent: Oʻzbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2008. – 528 b.
2. Abdurahmonov A. Ulugʻbek akademiyasi. – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1993. 29 b.
3. Abdurahmonov Gʻ., Rustamov A. Qadimgi turkiy til. –Toshkent: Oʻqituvchi, 1982. – 168 b.



CHET TILINI O‘QITISHNING MAQSADLARI

Quronboyeva Yulduz Bekmurod qizi

Xorazm viloyati Urganch tumani

43-son maktabning nemis tili fani o‘qituvchisi

Matrasulova Shaxnoza Xamidovna

Xorazm viloyati Urganch tumani

43-son maktabning ingliz tili fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim tizimida chet tilini o‘qitishning maqsadlari keltirilgan va ular nazariy tushuntirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: maqsad, chet tili, o‘qitish, amaliy, umumta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, gapirish, nutq.

Har qanday maqsad ehtiyoj tufayli paydo bo‘ladi. Maqsad tushunchasi rejalashtirilgan natija, tasavvurdagi oqibat ma’nosini anglatadi. Chet tili maktabda nima uchun o‘qitiladi, degan savolga chet tilini amaliy, ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarda o‘rganadilar, deb javob qaytarish mumkin. Ta’lim maqsadlari ijtimoiy buyurtma — topshiriq bo‘lib, har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirish va tarbiyalashga qaratiladi.

Ta’lim tizimida chet tili 4 maqsadda o‘qitiladi.

Chet tili o‘qitishning amaliy maqsadi. „Amaliy“ atalmish metodika termini hozirgacha muallimlar orasida birdan ortiq assotsiatsiya (fikran bog‘lanish) ga sabab bo‘lib, turli hajmdagi va shakldagi tushunchalar uyg‘otmoqda. Amaliyotni „og‘zaki nutq“ yoki „gapirish“ deb yuritish kabi xato fikrlar ham mavjud. Chet tilini amaliy egallash, o‘zgalar nutqini tushunish va o‘z fikrini bayon etish degan to‘g‘ri umumiy ta’rif ham uchraydi. O‘rta ta’lim kursida chet tili amaliy tarzda o‘rganilishining yakuniy maqsadi o‘qib ma’lumot olish demakdir.

Maktab, litsey va KHMni tugatuvchilar yakuniy maqsadga ko‘ra o‘qishdek nutq faoliyati turini chet tilida egallashadi. Oraliq maqsad esa turlicha bo‘ladi. Ta’lim bosqichi yoki alohida sinflarda nutq faoliyati turlaridan gapirish oraliq maqsadda o‘rganilishi mumkin. Masalan boshlang‘ich davrda og‘zaki nutqni maqsad maqomida o‘rganadilar. Shu bilan birga, o‘qish va yozuv ham o‘rganiladi, biroq ularga vosita deb qaraladi.

Chet tili o‘qitishning umumta’limiy maqsadi. Majburiy o‘quv predmetlaridan bo‘lmish chet tili boshqa fanlar qatorida umumiy ta’lim berishda o‘z ulushini qo‘shadi. Chet tili o‘rganish natijasi ham, jarayoni ham umumta’limiy ahamiyatga molikdir. Chunki chet tili vositasida olinadigan axborotdan tashqari, uni o‘rganish jarayonida qo‘llanadigan til birliklari tafakkurni rivojlantiradi, nutqning ifoda planidagi yangi hodisalar o‘quvchilar uchun qiziqarli bo‘lib, ularning til tajribasini boyitadi.

Til materialida o‘quvchilar ona tiliga mos kelmaydigan hodisalarga duch kelishadi. Masalan grammatikada fe‘l zamonining murakkab shakli, leksikada polisemiya (ko‘p ma’nolilik)ning ushbu tilga xos ko‘rinishlari, talaffuzda ona tili yoki ikkinchi tilda uchramaydigan fonetik birliklar shular jumlasidandir. Juda ko‘p lisoniy hodisalar turli tillarda o‘xshash bo‘ladi. Tillardagi mushtaraklik va tafovutlarni bilib olish o‘quvchi bilim saviyasining oshishiga yordam beradi.

O‘quvchilar tili o‘rganilayotgan mamlakat(lar) madaniyati, san’ati, tarixi, adabiyoti, urf-odatlarini, an’analaridan voqif bo‘lishadi. Xalq madaniyati xazinasi sifatida tilning *kumulativ vazifasidan* bahramand bo‘lishadi. Til o‘rganishning ilk bosqichida leksik, grammatik va talaffuz birliklarini og‘zaki nutq jarayonida o‘zlashtirishga ko‘proq e’tibor beriladi. Yuqori bosqichda chet tilidagi grafik va audiomatndan axborot yig‘ish o‘quvchilarda hayotiy yangiliklarni bilish ishtiyoqini kuchaytiradi. Xullas, maktab o‘quvchisi chet tilni umumta’limiy maqsadda o‘rganar ekan, u ikki xil mazmundagi ta’limiy ma’lumot olishga erishadi. Birinchi turdagi axborot o‘rganilayotgan chet til (leksik, grammatik va talaffuz) materialini izohlab beruvchi qoidalar, tushunchalar va tilning o‘ziga xos hodisalari to‘g‘risidagi ma’lumotlardan tashkil topadi. Til haqida o‘zlashtiriladigan oddiy bilim chuqur nazariy sistemadan butunlay farq qiladi. Chet tili o‘qitishni nazariylashtirishga yo‘l qo‘yilmasligi kerak. Sodda nazariya nutq ko‘nikmalarini shakllantirish uchungina yetarli bo‘lishi metodik qonuniyat hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda e’tirof etilgan va muallimlar tan olgan „chet tilida nutqni o‘rgatamiz“ (chet til haqidagi bilimlar yig‘indisini emas), degan metodik shiorni esdan chiqarmaslik kerak.



Chet tili o'qitishning tarbiyaviy maqsadi. Ta'lim va tarbiya hamjihatligi qadim zamonlardan kishilarga ma'lum. Ta'lim o'choqlari, so'zsiz, tarbiyaga ham e'tiborni qaratadi, tarbiyalash yoki tarbiyalanish tushunchasini ta'limsiz tasavvur etib bolmaydi. Metodika fanida chet tili o'qitishning tarbiyaviy maqsadi qisqacha shunday ta'riflanadi: o'quvchilarga g'oyaviy-siyosiy tarbiya berish, ularda aqliy mehnat ko'nikma va malakalarini hosil qilish, shuningdek, o'quvchilarning bilish faolligini oshirish.

Chet tili o'qitishning rivojlantiruvchi maqsadi. Rivojlantiruvchi maqsad chet tili o'qitish metodikasida yangi qabul qilingan ilmiy kategoriyadir, Binobarin, ushbu maqsad haqida yetarli metodik ma'lumotlarni topish mushkul. „Rivojlantiruvchi maqsad“ tushunchasi o'quvchi shaxsining aqliy, hissiy va motivatsion (ichki turtki) tarafini rivojlantirishni ifodalay boshladi. Demak, chet tili o'qitishda o'quvchilarning aqliy saviyasini quyidan yuqoriga ko'tarish, aqliy jihatdan ravnaq toptirish, mazmunan yuksaltirish, ijobiy ma'noda aqlan yanada ulg'ayishini ta'minlash ushbu maqsadning ro'yobga chiqishida ko'zlanadigan birinchi vazifadir. Ikkinchidan, chet til o'rganishda rivojlantiruvchi maqsad o'quvchilarning his-tuyg'ularini kamol toptirish, tashqi ta'sirni sezgilar va analizatorlar yordamida idrok etib tushunishni ravnaq toptirishni nazarda tutadi. Uchinchidan, rivojlantiruvchi maqsadning o'quvchilar oldiga qo'yadigan vazifalari qatoriga yana faoliyat ko'rsatish yordamida ichki turtki (ruhshunoslik termini bilan aytganda, motivatsiya)ni avj oldirish, faol ishga tushirish kabilar ham kiradi. Xullas, rivojlantirish aql, hissiyot, motivatsiyani yuqori pog'onalarga ko'tarish ma'nosida qabul qilindi. Chet tilni amaliy egallashda ta'lim berish, tarbiyalash va, oqibat natijada, shaxsning atroflicha kamolotga erishishiga ko'maklashishdek muqaddas va murakkab pedagogik choratadbirlar amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jamol Jalolov. Chet tili o'qitish metodikasi.
2. А. А. Миролюбова, И. В. Рахманова, В. С. Цетлин. Общая методика обучения иностранным языкам в средней школе.
3. Internet saytlari.
4. www.tadqiqot.uz materiallari.



ОНА ТИЛИ ВА АДАБИЙОТ ДАРSLARIDA MATN VA LUG‘AT BILAN ISHLASH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISH

Raxmanova Ro'za Shukirullayevna

Xorazm viloyati Urganch tumani

6-sonli maktabning ona tili va
adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya. O'qituvchilarning o'quvchilarda ona tili va adabiyot darslarida matn va lug'atlar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishlari uchun tahliliy-uslubiy materiallar va maqolada o'qituvchilar uchun "Matn va lug'atlar bilan ishlash" mavzularini o'quv jarayonida keng ko'lamda tadbiriq etalishlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: lug'atlar, ibora, matnni sharhlash, nutq qobiliyatlari, kommunikativ kompetentsiyasi, nutq madaniyati, ijodiy qobiliyatlar.

KIRISH

Ona tili va adabiyot darslarida matn bilan ishlash doimiy ravishda amalga oshiriladi: bola qanchalik katta bo'lsa, matnlar shunchalik qiyin bo'ladi. Matnga singdirish, taklif qilingan matnni tahlil qilish (deformatsiyalangan, tugallanmagan, yetishmayotgan qismlar, jumlar, so'zlar va boshqalar), lug'at bilan ishlash, introspeksiya mavjud. Matnni kalit so'zlar, iboralar bo'yicha tiklash, o'z so'zlaringiz bilan yozish, o'z bilimlaringiz asosida va qo'shimcha ma'lumotlarni qidirish (lug'atlar, ensiklopediyalar, shunga o'xshash ma'noga ega boshqa matnlar) orqali o'quvchilar matn haqida ma'lumotga ega bo'ladi.

ASOSIY QISM

Darslarda matnlarni o'qish jarayoni uch bosqichdan iborat.

Birinchisi, matnni idrok etish, uning mazmuni va ma'nosini ochish, alohida so'zlar, iboralar, jumladan umumiy tarkib hosil bo'lganda, o'ziga xos dekodlash. Bunday holda, o'qish quyidagilarni o'z ichiga oladi: ko'rish, so'zlarning ma'nosini aniqlash, yozishmalarni topish, faktlarni tan olish, syujetni tahlil qilish, takrorlash va qayta hikoya qilish.

Ikkinchisi - ma'noni chiqarish, mavjud bilimlarni jalb qilish orqali topilgan faktlarni tushuntirish, matnni sharhlash, tartiblash, tasniflash, tushuntirish, umumlashtirish, farqlash, taqqoslash, guruhlash, tahlil qilish va umumlashtirish, o'z tajribasi bilan bog'liqlik, kontekst va xulosalar haqida fikr yuritish.

Uchinchisi - o'zining yangi ma'nosini yaratish, ya'ni o'zlashtirgan yangi bilimlarni fikrlash natijasida o'zlashtirishi. O'qishning birinchi bosqichida to'xtaganlar reproduktiv tarzda o'qiydilar, tarkibni mexanik ravishda takrorlaydilar, faktlar va syujetni takrorlaydilar.

Ona tili fani o'qituvchilarni fikr bayon qilish va uni o'qib olish faoliyatiga tayyorlaydi. Fikr til vositasida royobga chiqar ekan, har bir kishi tilni va undan foydalanishni bilishi zarur. Tilni bilish uning grammatik – qonun qoidalarini, ta'rifini o'zlashtirishgina emas, balki ona tilning boy imkoniyatlaridan amaliy foydalana bilishdir, ya'ni fikrini og'zaki va yozma shaklda to'g'ri, tushunarli va savodli ifodalay bilishdir. Bunga erishish uchun ona tili darslarida lug'at ustida ishlashga alohida e'tibor qaratish lozim.

Darslarda lug'at bilan ishlashda so'zning ma'nosi talaffuzi va imlosi e'tiborda tutiladi. Shular ustida ishlashdan asosiy maqsad ehtiyoj sezilgan paytda o'quvchilarning nutqda foydalanishlariga erishish, o'zgalar nutqini anglashlarini ta'minlashdir. Buning uchun o'qituvchi ona tili darslarida qo'llangan har bir so'zning, ta'limiy jarayonlarda: ekskursiya, o'zaro suhbat, turli tadbirlarda, ishlatilgan so'zlarning ma'nosiga e'tibor bilan qarashi, ularning qaysilari maxsus ishlashni taqozo etishini belgilab olish kerak.

Men ushbu maqolamda klassik uslubiy an'ana va zamonaviy innovatsiyalarning sintezidan foydalanaman: birinchi navbatda, T.M.Paxnovaning tavsiyalari va P.Ya.Galperinning aqliy harakatlarini bosqichma-bosqich shakllantirish usuli.

Maqsadga erishish uchun - matn bilan ishlash orqali o'quvchilarning kommunikativ kompetentsiyasini shakllantirish - men o'z oldimga quyidagi vazifalarni qo'ydim:

1) ona tili va adabiyot darslarida talabalar nutqini rivojlantirishga hissa qo'shadigan matn bilan ishlash shakllari va usullarini joriy etish;

2) Tematik matn materialini tanlash, metodlarni ishlab chiqish ko'nikmalarni rivojlantirishga



qaratilgan matn bilan amaliy ish til hamda matnni tahlil qilish, sintez qilish, umumlashtirish va tizimlashtirish birliklar;

3) o'quvchilarni rivojlantirish maqsadida sinfdan tashqari mashg'ulotlarga jalb qilish ijodiy qobiliyatlar, tilshunoslik bo'yicha iqtidorlilarni aniqlash bolalarga nisbatan;

XULOSA. Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, zamonaviy ta'limda davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash o'quv jarayonining tuzilishi va mazmunidagi o'zgarishlarni, shuningdek, o'qituvchining o'zi faoliyatiga qo'yiladigan talablarni o'zgartirishni nazarda tutadi. Bugungi kunda o'qituvchi o'qitishda tizimli-faollik yondashuvini amalga oshirish zarurati bilan yuzma-yuz turibdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ona tili (Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik) O'zXTaV. Toshkent - 2019.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", Davlat ilmiy nashriyoti - 2006.
3. <https://nsportal.ru/shkola/raznoe/library/2019/12/11/rabota-s-tekstom-na-urokah-russkogo-yazyka-i-literatury-kak>
4. <https://multiurok.ru/files/priemy-raboty-s-tekstom-na-urokakh-literatury.html>



O‘ZBEK TILIDA O‘ZLASHGAN SO‘ZLARNING O‘ZGA MA’NOLARI

Shahriyoroza Gulnoza Zamonqulovna

Navoiy viloyati Navoiy shahar

1-son maktabning o'zbek tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek tilida o'zlashgan so'zlarning o'zga ma'nolari keltirilgan, qiyosiy tahlil qilinib, o'z qatlam va o'zlashgan qatlamlarni farqlash keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: o'zbek tili, o'zlashgan, Холодильник, Muzlatgich, til, ona tili, Baxt-u saodat, Bosh-oyoq sarpo, Lahim go'sht, Xarsang tosh, ma'no, so'z.

Barchamizga ma'lumki, hech bir til o'z qobig'ida taraqqiy etmaydi, uning rivojida o'zga tillarning ta'siri beqiyosdir. Bu borada bizning ona tilimiz ham bundan mustasno emas. Barcha tilning lug'at boyligi o'z qatlam yani, o'z tilida paydo bo'layotgan yangi so'zlar bilan va o'zlashgan qatlam boshqa tillardan kirib kelayotgan atamalar bilan boyiydi.

Ona tilimizga boshqa tillardan kirib kelayotgan so'zlarning hammasi o'zi atab kelayotgan narsa yoki buyumning ma'nosini anglatadimi?

Tilimiz tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, unda o'zga tillardan kirib kelib aynan o'zi atayotgan ma'noni bildiruvchi so'zlar juda ko'p. Masalan: Холодильник bizda bu so'zning o'zbekcha nomi ham bor (Muzlatgich) biz bu so'zlarning qaysi biridan foydalanmaylik baribir, ko'z oldimizda sovitgich gavdalanadi.

Tilimizda shunday so'zlar ham borki, ular ham boshqa tillardan o'zlashgan bo'lib, ular atalganidek emas, balki boshqa ma'nolari bilan ongimizda shakllangan. Biz u so'zlarni aynan o'zbekcha varianti bilan yonma-yon qo'llaymiz va u so'zlar takror so'zdek emas, balki boshqa ma'no bilan tushunchamizda shakllanadi. Ularning bir nechtasini ko'rib chiqamiz. Baxt-saodat; Saodat-arabcha so'z bo'lib, baxt degan ma'noni anglatadi. Biz baxt-saodat deganda ikki marta baxt-baxtni emas, balki birinchisida baxtni ikkinchisida esa, osuda, sokin hayotni nazarda tutamiz. Masalan: “Shaxzoda malikaga uylanibdi va ular baxt-u saodatli hayot kechirishibdi.” (Ertakdan). “Zeboning o'sha qarashi, turishi, quvnoq kulgusi, tabassumi Elmurodni hali ma'lum bo'lmagan sevinch to'la, baxt-saodat to'la bir olamga imlardi” (Shuxrat shinelli yillar).

Bosh-oyoq sarpo; Sarpo-tojik tilidan o'zlashgan so'z bo'lib, sar-bosh, po-oyoq degan ma'noni anglatadi. Bizning ongimizda sarpo so'zi bir kishiga bir sidra kiyim, yangi kiyim ma'nosida qotib qolgan va bu so'zlarni yonma-yon qo'llaganda biz bir kishini boshdan oyoq yangi kiyinishini tushunamiz. Masalan: “Birlamchi, kelinning oyilariga, ya'ni yangimizga bitta plash bilan bir kiyimlik girbishin atlas, umuman olganda bosh-oyoq sarpo.” (S. Ahmad) “Sumbulxon aya Fotimaga juda katta hurmat ko'rsatib, bosh oyoq sarpo qoydi.” (Mirmuhsin).

Lahim go'sht; Lahim-tojik tilidan o'zlashgan bo'lib, o'zbek tilida go'sht degan ma'noni anglatadi. Lahim deganda biz go'shtni emas balki suyaksiz go'shtni tushunamiz. Masalan: “Omon ikkimiz go'shtning lahim joylarini tez-tez qopga joyladik.” (G'. G'ulom).

Xarsang tosh; Xarsang-O'zbek tilidagi tosh so'zining tojikcha nomi. Bizning ongimizda xarsang katta ma'nosida shakllanadi va biz xarsang tosh deganda katta toshni tushunamiz. Masalan: “Ahmoqqa aytgan bilan gap uqmaydi, xarsangga qoqqan bilan mix o'tmaydi” (O'zbek xalq maqoli). “Shoxlar quyiga cho'kar, yana uning ustiga xarsanglar tashlanar edi” (S. Ahmad).

Yuqorida ko'rib chiqilgan so'zlarimiz boshqa ma'nolarni anglatishi bilan ham fikrimizni, nutqimizni aniq va ravon ifodalashimizga yordam beradi. O'zbek tilining jozibasi ham anashundadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G'afur G'ulom “Shum bola”
2. Said Ahmad “Hajviy asari”. Toshkent-1979 y
3. O'zbek tilining izohli lug'ati.
4. O'zbek xalq maqollari. Sharq nashriyoti. Toshkent-2005 y
5. O'zbek xalq ertaklari. Sharq nashriyoti. Toshkent- 2001 y
6. www.conferences.uz konferensiya materiallari.



NEMIS TILIDA FRAZELOGIZMLARNING SEMANTIK ASPEKTI

Mansurova Shahlo

O'ZMU magistranti

shaxlo.mansurova@mail.ru

Ilmiy rahbar: f.f.f.d (PhD) Begmatova R.

Annotatsiya: Ushbu maqola leksikologiyaning bir bo'limi bo'lmish, frazeologiya sohasiga bag'ishlangan bo'lib, unda asosan nemis tilshunosligidagi frazeologizmlarning o'ziga xosligi, shuningdek semantik jihatlarini tasnif qilinadi. Tilshunos olimlarning bu haqdagi fikrlari tahlil qilinadi. Ularga umumiy xulosalar beriladi.

Tayanch so'zlar: fraza, frazeologizm, leksema, morfema, lisoniy birlik, semantik, semantika, sema

SEMANTIC ASPEKT OF PHRASEOLOGISMS IN GERMAN LANGUAGE

Shakhlo Mansurova

National university of Uzbekistan

shaxlo.mansurova@mail.ru

Abstract: This article is devoted to the field of phraseology, being a section of lexicology, in which mainly the specificity of phraseologies in German linguistics, as well as semantic aspects, are classified. The opinions of linguistic scientists about this are analyzed. They are given general conclusions.

Key words: phrase, phraseology, lexeme, morpheme, linguistic unit, semantic, sema

Tilshunoslikda lug'at zahirasi boyib borishi uchun turli xil imkoniyatlar mavjud. Tilning lug'at boyligi asosan so'zlardan iborat. Leksik birliklar deganda, nafaqat alohida so'zlarni tushunamiz, balki turg'un so'z birlikmalarini (faza, turg'un ibora, frazeologizmlar) ham tushunamiz. Frazeologiya (yun. phrasis - ifoda, ibora va ...logiya) -1)tilshunoslikning tilning frazeologik tarkibini uning hozirgi holatida va tarixiy taraqqiyotida tekshiruvchi bo'limi; 2)muayyan tildagi frazeologizmlar majmui [1].

Yuqoridagi fikrdan anglash mumkinki, frazeologiy aatamasi tilshunoslikda ikki ma'noda qo'llaniladi, frazeologik birliklarning o'ziga xos xususiyatlarini, tarixiy va zamonaviy takomillashuvini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi bo'lsa, ikkinchi o'rinda esa aynan shu bo'limga kiruvchi barcha frazeologik birliklarning yig'indisini atash mumkin. Bu ikki ma'noni qo'llanilgan matn yoki kontekstdan farqlab olish mumkin albatta.

“Frazeologiyani kengroq ta'riflash uchun uning nazariy va amaliy jihatlariga e'tibor berish kerak. Frazeologiya – bu til hodisalarining frazeologik jihatdan ifodalanishi uchun bugungi kunda turli xil baxs-munozaralarga sabab bo'lmoqda” [2].

Bizga ma'lumki, har bir sohaning rivojlanishi baxs-munozaralar, fikrlar to'qnashuvi asosida rivojlanib kelmoqda. Xususan, frazeologiya sohasini oladigan bo'lsak ham, uning asl mohiyatini anglash, ochib berish uchun bu kunga qadar yaratilgan nazariy qarashlar, shuningdek, ularning amaliy qo'llanilishidagi o'ziga xosliklarga alohida e'tibor qaratish lozim.

Tilshunos olimlardan aksariyati A.V. Kuninning frazeologizmlar to'g'risidagi ta'rifiga tayanib ish olib boradilar, ya'ni: —*frazeologizmlar bular shunday so'z birlikmalari, ularning komponentlari to'la yoki qisman ko'chma ma'noga, ya'ni frazeologik ma'noga ega bo'lgan komponentlardan iborat. Frazeologik birliklarga umuman turg'unlik muhimdir, bundan tashqari so'z komponentlari qonuniy ravishda bir-biriga bog'liq bo'lib, unga strukturali semantik modellik xarakterli bo'lad*” [3].

Bizga ma'lumki, frazeologik birlik bo'lish uchun so'z yoki birlik uch eng muhim xususiyatni o'z ichiga olishi lozim, ya'ni:

1. Polylexicalität (bir necha so'zdan iboratlik). H. Burgerning fikricha, frazeologik birliklar kamida ikki so'zdan iborat bo'lmog'i lozim.

2. Festigkeit (turg'unlik) ya'ni frazeologik birlik sifatida olingan so'zlar turg'un holatda,



o'zgarishdan keladi.

3. Idiomaticitet (idiomaticity) ya'ni frazeologik birlik tarkibida qo'llangan so'zlarning ma'nosiga bog'liq bo'lmagan holda ma'no anglatish.

Frazeologizmlar nemis tilshunosligida o'rganila boshlangach, frazeologik birliklarni tasniflash, tizimlashtirish, shu qatorda klassifikatsiyalash masalasi yuzaga kela boshladi. Nemis tilshunos olimlari frazeologizmlarni turlicha yondashuvlar asosida tadqiq etgan va klassifikatsiyalaganlar. Jumladan, M. D. Stepanova hamda I. I. Chernishyovalar frazeologizmlarning strukturaviy hamda semantik jihatdan tasniflagan [4].

Frazeologizmlar so'z va so'z shakllaridan shaklan tarkib topadi. Frazeologizmlarni tashkil etadigan leksemalarning Grammatik, shuningdek, semantik o'zaro bog'lanishi bir-biriga uyg'un bo'lishi kerak.

Shu o'rinda semantika haqida so'z boradigan bo'lsa birinchi galda uning ma'nosini oydinlashtirish lozim. Buni biz H. Burgerning semantika haqidagi ta'rifiga yuzlanamiz [5].

Haqiqiy nutqiy vaziyatlarda frazeologik birliklardan foydalanishga bag'ishlangan barcha tadqiqotlar uchun semantik mezonlarga asoslangan tasniflar ancha muhimdir. *Vorteile aus einer Sache ziehen* (biror narsadan foyda olish) ma'nosini mustaqil deb hisoblash kerak. Bu qandaydir tarzda so'zma-so'z ma'nodan kelib chiqqanligi, bu iborani ishlatish imkoniyati uchun hech qanday ahamiyatga ega emas.

R. Karnap semantikani tildan foydalanishning mavhumligi deb ta'riflaydi (pragmatika), lekin u "designata" dan mavhumlashtirmaydi. Bundan kelib chiqadiki, bir vaqtning o'zida semantikaning ikki turi mavjud: "tavsiflovchi" va "sof" semantika [6].

Semasiologik tahlil shuni ko'rsatadiki, aksariyat davriy frazeologik birliklarning semantikasi nafaqat tarkibiy qismlarning leksik-semantik potentsiali bilan belgilanadi, balki ma'lum darajada oldindan aytib berish mumkin.

Frazeologik birliklar o'rtasida semantik aloqalar shakllanadigan semantik maydon tushunchasidan boshlab, frazeologik birliklarga nisbatan munosabatlarning ketma-ket ko'rsatilgan turlarini ko'rib chiqiladi [7].

Fikrlarni H. Hessening „Sämtliche Werke 6“ (Erzählungen 1) asaridan bir qancha misollar bilan boyitamiz.

Jumladan, „To'plangan asarlar“ asarining birinchi bobi „Erwin“ hikoyasida quyidagi iborani uchratish mumkin,

Ich sehe seine Mauern und Säulen trotzig stehen und lange Schatten in mein Jugendleben werfen bu iborada *lange Schatten werfen* [8] iborasi frazeologik ma'noga ega bo'lib kelmoqda. Bizga ma'lumki, *Schatten* so'zi soya ma'nosini beradi, *werfen* esa, *uloqtirmoq*, *otmoq* demakdir. *Uzun soyani uloqtirmoq* deb tarmija qilinsa, ma'no anglashilmaydi. To'liq ma'noga erishish uchun lu'g'atlariga murojaat qilamiz.

(*lange/immer längere/...*) *Schatten werfen* [9] bu kontekstda bu ibora o'z ma'nosida ya'ni daraxtning soyasi tushmoq deb berilgan, ammo keyingi misolda frazeologik ma'no anglashilgan.

einen/seinen Schatten auf die Beziehungen/...werfen (formell) [10] ya'ni munosabatlarga soya solmoq, negativ soya solmoq deyilgan.

Yuqoridagi misolimizni tahlil qiladigan bo'lsak, *men uning devor va ustunlarini viqor ila tunganini ko'rmoqdaman va ular yoshlik chog'imga soya solmoqda* kabi ma'noni ko'rish mumkin.

Bu frazeologizmni boshqa lug'atlarda ham uchratish mumkin, xususan, *seinen Schatten werfen* [11] - *etw. beeinträchtigen, in negativer Weise beeinflussen* – ya'ni aks, yomon ta'sir o'tkazmoq.

Einen Schatten auf j-n werfen - *бросать тень на кого-л., компрометировать кого-л* [12].

L.E. Binovichning ta'kidlashicha, bu ibora *kimnidir obro'sizlantirmoq* demakdir.

einen langen Schatten haben/werfen- großen Einfluss haben, noch lange spürsam sein, sich auswirken [13] Bu misolda esa yuqoridagi frazeologizm neytral ifodalangan, ya'ni davomiy ta'sirga ega bo'lmoq, ta'sir etmoq kabi.

Yuqoridagi iboraning ma'nosi har qaysi lug'atda o'ziga xos, ammo qisman ma'noviy yaqinlikni ko'rish mumkin. Har bir iboradan *Schatten* o'z ma'nosida ya'ni, *soya* ma'nosini bermayotganini, aksincha aks ta'sir, jumladan *yomon xotira*, *ta'sir tasavvur* ma'nolarini bermoqda.

Asardagi parchadan anglash mumkinki, devorlar va ustunlar asar qahramonining o'smirlik chog'laridan yomon xotiralarni eslatadi, hamon ularning ta'siri sezilib turadi.

Heute nehmen viele Entsagungen für mich ein Ende [14] ushbu jumlada *ein Ende nehmen*



iborasini uchratish mumkin, o'zbek tilida *yakunni olmoq, oxirini olmoq* deb tarjima qilinsada, lug'atlarda quyidagi ma'noni uchratish mumkin.

ein Ende nehmen – закончиться [15] ya'ni o'z yakuniga yetmoq. nihoyasiga yetmoq.

Bundan kelib chiqib, yuqoridagi jumlani quyidagicha o'zbek tilida bayon etish mumkin.

Bugun men uchun ko'plab rad etishlar (voz kechishlar) o'z yakuniga yetadi. Asarda keltirilgan iborani faqatgina Binovichning lug'atidan topishga muvoffaq bo'ldik. Ayrim lug'atlarda bu ibora o'zgacharoq ko'rinishda berilgan.

Ein böses /kein gutes Ende nehmen- böse ausgehen, schlimm enden [16] bundan ma'no anglash mumkinki, *biror narsa yaxshi emas, yomon yakunlanishi* tushuniladi.

Xuddi shu kabi misol Duden lug'atida ham keltirilgan.

ein böses (schlimmes/...) Ende nehmen (formell) [17] – rasmiy ma'noda *yomon, zolim yakun topmoq.*

Bu bilan aytishimiz mumkinki, har bir frazeologik birlikni tadqiq qilayotganda, chuqur izlanib, ma'noviy jihatda to'g'ri anglashilganiga katta e'tibor qaratish lozim, yo'qsa, ma'nodan qochish xattoki tushunmovchiliklarga sababchi bo'lishi ham mumkin. Frazeologik birliklarning bunday o'ziga xosligi, har bir xalqning etnik kelib chiqishi, yashash tarzi, shuningdek, til imkoniyatlariga bog'liq deb o'ylaymiz.

Frazeologiya sohasidagi semantik munosabatlarning standart turlarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, ularning harakati frazeologik birliklarga ham tegishli. Biroq, semantikaning xususiyatlari va frazeologik birliklarning tuzilishi ushbu munosabatlarni amalga oshirishning turli omillariga ta'sir qiladi: ya'ni ma'lum bir munosabatlarning chastotasi (tarqalishi), shuningdek uning muntazamligi va mahsuldorligi. Ushbu sohadagi frazeologiyaning o'ziga xosligining asosiy sababi ma'lum bir semantik munosabatni amalga oshirishning mumkin bo'lgan variantlari doirasini kengaytiradigan yoki aksincha cheklaydigan jonli ichki shaklning mavjudligi deb hisoblanishi kerak.

Xulosa qilib aytish mumkinki, frazeologizmlarni o'rganish, tadqiq qilish chuqur malaka va bilim talab etib, ikki tildagi frazeologizmlarning o'ziga xoslikni ochib berish ko'p izlanish va aniqlik talab etadi. Frazeologizmlarning nutqimizda sosiy vazifasi bu muloqotga ma'noviy ko'rk berish va yoinki, majoziy ma'noni boyitishdir.

Nemis tilshunosligida frazeologizmlarning o'ziga xosligi aynan yuqorida ta'kidlanganidek, tarkibining ko'p qismlardan tashkil topganligi va turli so'z turkumlarining uyg'unlashuvidan turg'un birikma sifatida paydo bo'lganligidadir. Bu kabi tasniflarni kelgusi maqolalarimizda yanada to'ldirib borish rejalashtirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rakhmanova D. Zaripova G. Rakhmatov F. Abdukhaliyova G. Nemis va o'zbek tilshunosligida frazeologizmlar tasnifi//Science and education, 2020. P.330
2. Имяминова Ш.С. Немис тили фразеологияси. –Т.: Мумтоз сўз, 2011. 3-б
3. Кунин А.В. Фразеология современного английского языка. Москва. Международные отношения, 1972. Ст.6
4. Rakhmanova D. Zaripova G. Rakhmatov F. Abdukhaliyova G. Nemis va o'zbek tilshunosligida frazeologizmlar tasnifi//Science and education, 2020. P. 332
5. Burger H. Phraseologie. Eine Einführung als Beispiel des Deutschen. Erich Schmidt, Berlin, 2010. S.11
6. Carnap R. Der logische Aufbau der Welt. Felix Meiner, Bonn, 1999, S. 66
7. Баранов А.Н. Добровольский Д.О. Семантические отношения во фразеологии. Институт русского языка им. В.В. Виноградова РАН. Ст.1
8. H.Hesse. Sämtliche Werke 6. Die Erzählungen 1. 2.Auflage. Suhrkamp Verlag, Frankfurt am Main: 2001, S. 2
9. Deutsche Idiomatik Wörterbuch der deutschen Redewendungen im Kontext. 2. Auflage, mit vollständig überarbeiteter Einführung von Hans Schemann. Walter de Gruyter GmbH & Co. KG, Berlin/Boston, 2011, S. 700
10. Deutsche Idiomatik Wörterbuch der deutschen Redewendungen im Kontext. 2. Auflage, mit vollständig überarbeiteter Einführung von Hans Schemann. Walter de Gruyter GmbH & Co. KG, Berlin/Boston, 2011, S. 700
11. Duden. Redewendungen. Wörterbuch der deutschen Idiomatik. Band 11. Dudenverlag, Berlin. 2013, S. 640



12. Бинович Л.Э. Немецко-русский фразеологический словарь. Аквариум, Москва: 1995, ст. 556
13. www.redensart-index.de
14. H. Hesse. Sämtliche Werke 6. Die Erzählungen 1. 2. Auflage. Suhrkamp Verlag, Frankfurt am Main: 2001, S. 10
15. Бинович Л.Э. Немецко-русский фразеологический словарь. Аквариум, Москва: 1995, ст. 170
16. Deutsche Idiomatik Wörterbuch der deutschen Redewendungen im Kontext. 2. Auflage, mit vollständig überarbeiteter Einführung von Hans Schemann. Walter de Gruyter GmbH & Co. KG, Berlin/Boston, 2011, S. 187
17. Duden. Redewendungen. Wörterbuch der deutschen Idiomatik. Band 11. Dudenverlag, Berlin. 2013, S. 184



СОВРЕМЕННЫЕ ИНФОРМАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА

Машарипов Абдушариф, Примова Шахноза

Учитель русского языка в школе
№25 Хивинского района Хорезмской области

АННОТАЦИЯ: Данная статья содержит в себе современные информационные технологии (ИТ), в целях обучения начинающих исследователей (студентов, молодых ученых, преподавателей) для использования современных технологий в учебном процессе. В статье дается для чего и как пользоваться новыми информационными технологиями на уроках русского языка.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: методы, компьютерные технологии, ИКТ, процесс обучения

ОБЪЕКТ данного исследования: процесс развития мышления и познавательной деятельности при применении информационных технологий на уроках русского языка.

ПРЕДМЕТ исследования: уроки русского языка с использованием новых информационных технологий.

Современное общество ставит перед учителями задачу развития личностно значимых качеств школьников, а не только передачу знаний. Главной компетенцией учителя-предметника становится его обновлённая роль – роль проводника знаний, своего рода «навигатора», помогающего учащимся ориентироваться в безграничном море информации. Формирование нового мышления неразрывно связано с тем информационным пространством, в котором проживает ученик, в котором познаёт окружающую действительность, в котором он активно действует.

Эффективным средством активизации познавательной, рефлексивной деятельности учащихся является использование информационных технологий в образовательном и самообразовательном процессе.

Основные преимущества ИКТ: позволяет разнообразить формы работы, деятельность учащихся, активизировать внимание, повышает творческий потенциал личности.

ИКТ интенсифицирует процесс обучения: повышает темп урока, увеличивает долю самостоятельной работы учащихся, позволяет проверить усвоение теории у всех учащихся, углубить степень отработки практических умений и навыков, вести дифференцированную работу с каждым учеником.

Так какие технические средства можно использовать при обучении русского языка?

1. Обучение при помощи цифровых технологий на уроках русского языка (Телевизор.)

Под использованием цифровых технологий мы пока понимаем лишь показ презентаций и обучающих видеороликов, раздачу ссылок на текстовые материалы да компьютерное тестирование.

2. Применение интерактивной доски в процессе обучения. Активно используется интерактивная доска и мультимедийный проектор на занятиях русского языка. Интерактивные доски во многом удобнее своих традиционных аналогов, на которых пишут мелом или маркером, а также бумажных флипчартов.

3. Мультимедийный проектор предназначенный для создания действительного изображения объектов на рассеивающей поверхности, служащей экраном. Мультимедийный проектор визуализирует классные комнаты, помогает организовать высокоорганизованные заметки для занятий. Учителя могут использовать маркированные мультимедийные презентации PowerPoint и визуализировать их с помощью проекторов. Занятия с использованием проекторов могут помочь избежать почти всех проблем с методикой преподавания в прошлом.

Литература:

1. Апатова Н.В. Информационные технологии в учебном процессе. М.: 1994. Беспалько В.П.



УМУМТАЪЛИМ МАКТАБЛАРИДА ЗАМОНАВИЙ ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯ АСОСИДА ЎЗБЕК ТИЛИНИНГ НУФУЗИ ВА УНИНГ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ

Ахмедова Гулрухсор Уктамжоновна

Пўлатова Гулноза Суннат қизи

Сирдарё вилояти Гулистон шаҳар 11-умумтаълим мактабининг она тили ва адабиёт фани ўқитувчилари

Телефон рақами: 99-854-37-39

Аннотация: Ушбу мақолада умумтаълим мактабларида замонавий педагогик технология асосида ўзбек тилининг нуфузи ва унинг самарадорлигини ошириш ва тил инсоннинг бирламчи эҳтиёжи, англаш, билиш, сўзлаш, алоқа-муносабат воситаси, мансуб-хослик омили бўлгани боис ҳамиша жамият равнақининг асосий мезонлари ҳусусида мулоҳазалар юритилган.

Калит сўзлар: ўзбек тили, таълим методлари, усул, умуммиллий ҳаракат, мақом.

Таълимнинг бугунги вазифаларидан яна бири ўқитувчиларга методик ёрдам бериб, уларни замонавий билим бериш билан кулланатириш зарур. Бунинг учун, ҳусусан кимё фанини ўқитишда қўлланиладиган методлар, воситаларни мазмунан янгилаш, тўлдириш, инновацион технологияларга оид методик қўлланмалар, тавсиялар яратиш, бу орқали таълимда самарадорликка еришиш йўллари ишлаб чиқиш бугунги куннинг долзарб муаммоларидан биридир. Дунёдаги қадимий ва бой тиллардан бири бўлган ўзбек тили халқимиз учун миллий ўзлгимиз ва мустақил давлатчилигимиз тимсоли, бебаҳо маънавий бойлик, буюк қадриятдир.

Она тили – миллатнинг руҳидир. Тил — давлат тимсоли, мулки. Тилни асраш, ривожлантириш – миллатнинг юксалиши демак.

Кимда-ким ўзбек тилининг бор латофатини, жозибаси ва таъсир кучини, чексиз имкониятларини ҳис қилмоқчи бўлса, мунис оналаримизнинг аллаларини, минг йиллик дostonларимизни, ўлмас мақомларимизни эшитсин, бахши ва ҳофизларимизнинг сеҳрли қўшиқларига қулоқ тутсин.

Туркий тилларнинг катта оиласига мансуб бўлган ўзбек тилининг тарихи халқимизнинг кўп асрлик кечмиши, унинг орзу-интилишлари, дарду армонлари, зафарлари ва ғалабалари билан чамбарчас боғлиқдир.

Аждодларимиз, ота-боболаримиз айнан она тилимиз орқали жаҳонга ўз сўзини айтиб келганлар. Шу тилда буюк маданият намуналарини, улкан илмий кашфиётлар, бадиий дурдоналар яратганлар.

1989 йил 21 октябрь санасини — «Давлат тили ҳақида»ги қонун қабул қилинган кунни эслашимиз ўринлидир.

Ўзбек тили давлат тили сифатида халқимизни бирлаштирадиган, жамиятимизни улуғ мақсадлар сари сафарбар этадиган қудратли куч бўлиб майдонга чиқди. Айни вақтда у Ўзбекистоннинг давлат мустақиллиги сари қўйилган биринчи дадил қадам эди. Бу қонун халқимизнинг ўз тақдирини ўзи белгилаш йўлидаги азму қарорининг ёрқин намоёни бўлди. Орадан икки йил ўтиб, Ўзбекистон Республикасининг давлат мустақиллиги айнан она тилимизда жаҳонга эълон қилинди. Мамлакатимизнинг Асосий қонуни — Конституциямизнинг ўзбек тилида яратилиши унинг нуфузини янада юксалтирди. Таълим соҳасидаги ислохотлар ёш авлоднинг билимли, мустақил ва эркин фикр юритадиган, онгли интизомга эга бўлган шахс бўлиб шаклланишини назарда тутди. Умумтаълим мактабларда ўзбек тили фан ўқитувчиси ўзининг бор маҳорати билан дарс ўтишга, уни тўғри тақсимлашга, замонавий педагогик технологиялар ва аждодлар ўғити билан дарсни бойитиб боришга тайёр туриши лозим. Тил инсоннинг бирламчи эҳтиёжи, англаш, билиш, сўзлаш, алоқа-муносабат воситаси, мансуб-хослик омили бўлгани боис ҳамиша жамият равнақининг асосий мезонларидан бўлиб келган. Жумладан, ўзбек тили ўзбек миллатининг узоқ тарихий илдишларига, ўз сиёсий-ҳуқуқий асосларига эга муқаддас қадрияти, улкан маънавий ютуғидир. Бугунги тараққиётга қадар шонли ва шарафли йўللарни босиб, кескин ва шиддатли тўфонларни енгиб келаётган миллий тилимиз давлат мақомида



янада улуғвор ва устуворлигини намоён қилмоқда. Миллий тилга эътибор ва эҳтиром миллатсеварлик, ватанпарварлик, олийжанобликнинг ёрқин ифодаси. Миллий тил–миллий урф-одат, қадриятларни, миллий маънавий мерос-манбаларни билиш, ўзлаштириш, етказиб бериш, тарғиб этишда, ўзликни англаш, англатишда бирламчи восита. Ўз миллий тилига муҳаббати йўқ, ўзга тилларга эҳтироми юксак инсонни миллат вакили, ватанпарвар шахс деб аташ мумкинми? Тил миллатга, жамиятга, Ватанга дахлдор олий тушунча. Шу боисдан бу борада эҳтиёткор бўлиш, аجدодлардан мерос буюк неъмат илдизига болта урмаслик талаб қилинади.

Тил – миллатнинг маънавий бойлигидир. Тил нафақат муаммола воситаси – балки халқнинг маданияти, урф-одати, унинг турмуш тарзи, тарихидир. Турли халқларнинг тилларига ҳурмат эса ўз навбатида ўзаро тушунишни, мулоқотларга имконият яратади. Тилларни сақланиб қолиши учун эса бу тилларни қўллаб-қувватлаш зарурдир. Айнан тил туфайли инсоният у ёки бу халққа мансублигидан фахрланиб яшайди. Барча тилларни тан олиш ва ҳурмат қилиш тинчликнинг бирдан бир қафолатидир. Шу сабабли ҳам ҳар бир халқ ўз тили сақланиб қолиши учун ҳаракат қилади. Юқоридаги фикрларни ўқувчи ёшларга дарсларимиз жараёнида етказиб бермоғимиз керак. Одатда таълим жараёнини самарали бошқариш ўқитувчилар томонидан ўқув машғулотларини илмий-педагогик ва амалий-методик жиҳатдан тўғри ташкиллаштириш, олиб бориш ва натижаларни ҳолис, тизимли таҳлил этишга доир билим, кўникма ва малакаларга эга бўлишига боғлиқ. Масалага муносиб ечим излаб олиб борилган таҳлилий кузатишлар ўзбек тилининг давлат тили мақомидаги рутбасини янада мустаҳкамлаш, қонуний асосларни кенгайтириш, қатъийлаштириш зарурати мавжудлигини кўрсатади. Нафақат айни шу кунларда, балки ўтган йиллар давомида ҳам миллатсевар тилшунослар, маърифат зиёлиларини ўзбек тилининг расмий талабларини кучайтириш, миллий мартабасини ошириш, барча соҳа вакилларининг адабий тил меъёрларига амал қилишига эришиш каби долзарб муаммолар ҳамиша ўйлантириб, мунозарага чорлаб келган. Шу асосларга таяниб, қуйидаги вазифаларни кечиктирмасдан ҳал қилиб бориш талаб этилади: Ўқитувчи таълим жараёнини ташкил этишни режалаштиришда календар-тематик ёки дарслар режаларини тузишга эътибор қаратади. Ўқитувчининг таълим жараёнини ташкил этишдаги роли ўқувчилар олдида ўқув масалаларини қўйиш, уларнинг самарали бажарилиши учун зарур шароитни яратишдан иборат. Агарда таълим жараёнида ўқувчилар фаолиятини бошқаришда ўқитувчи уни тўғри йўналтириш вазифасини бажарса, назорат ўқувчилар фаолиятининг мақсадга мувофиқ, самарали ташкил этилишини таъминлайди. Дарҳақиқат, тилнинг эгаси халқ, аммо халқда тилга лоқайдлик бўлса тилнинг софлигига путур ета бошлайди. Тил нафақат давлат тимсоли, мулки, руҳи, тил – миллатнинг маданий ва маънавий бойлиги ҳамдир. Тил маданиятига амал қилинмаса, маънавият сустлашади, маданиятга доғ туша бошлайди. Шу сабабли ўзбек тилининг мамлакатимизда давлат тили сифатида амал қилишининг ҳуқуқий асослари қонунан белгилаб қўйилган. Тил билган эл билади дийишади доно халқимиз. Ҳозирги олиб борилаётган миллий тарбиявий ишларимизнинг асосий мақсади кўлами жихатидан кенгрок, ахамияти жихатидан муҳимроқ бўлиб бормоқда. Бунда белгиланган вазифа ёшларнинг миллий-маънавий иммунитетини шакллантиришдан иборатдир. Таълимни тубдан ислоҳ қилиш, Ўзбекистон Республикасининг миллий таълимини жорий қилишда ўз хиссамизни қўшиб, уни амалда қўллаш ҳар бир педагог учун шарафли ишдир. Дунё олимларининг эътирофига кўра, бугун кунда ер юзи аҳолиси 2976 хил тилда гаплашар экан. Жонажон ўзбек тилимиз хусусида сўз кетганда, унинг дунё тиллари орасида ўзига хос мавқега эга эканлигини эътироф этиш ўринлидир. Бундан барчамиз фахрланамиз.

Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, бундан 30 йил муқаддам 1989 йил 21 октябрда муҳтарам Биринчи Президентимиз ташаббусига кўра, ўзбек тилига давлат тили мақоми берилган эди. Бу ўз даврида том маънода оламшумул воқеа бўлган ва шу тариқа Беруний, Ибн Сино, Ал Хоразмий, Ал Фарғоний, Алишер Навоий, Амир Темур, Мирзо Улуғбек, Бобур Мирзо сингари буюк сиймоларни етиштирган халқ тили янада жонлана бошлаган. Тил нафақат муаммола воситаси – балки халқнинг маданияти, урф-одати, унинг турмуш тарзи, тарихидир. Турли халқларнинг тилларига ҳурмат эса ўз навбатида ўзаро тушунишни, мулоқотларга имконият яратади. Тилларни сақланиб қолиши учун эса бу тилларни қўллаб-қувватлаш, ҳурмат қилиш зарурдир. Айнан тил туфайли инсоният у ёки бу халққа мансублигидан фахрланиб яшайди. Барча тилларни тан олиш ва ҳурмат қилиш тинчликнинг бирдан бир қафолатидир.



Шу сабабли ҳам ҳар бир халқ ўз тили сақланиб қолиши учун ҳаракат қилади. Инновацион технологиялар таълим сифати ва самарадорлигини ошириб, таълим жараёнининг марказига ўқувчиталабаларнинг ўқув-билув фаолиятини кўяди, таълим жараёни яхлитлигини таъминлайди. Ўқувчи фаолиятининг юқори даражадаги кўрсаткичи, ўқув-билув фаолиятини ташкил этиши, ирода ва фаолиятнинг ўқувчи онгининг предметига айланишдир. Бу мақсадни амалга ошириш учун, аввало, таълим берувчи мақсадга елтувчи усулларни танлай билиши, ўқув-тарбиявий жараён яхлитлигини таъминлаши лозим. Инновацион технологияларни таълим жараёнига жорий этиш, таълим самарадорлигини ошириш учун тинимсиз изланиш бугунги куннинг еҳтиёжига айланмоқда. Янги методларни таълим жараёнига татбиқ этиш педагоглар олдида турган масалалардан бири ҳисобланади.

Адабиётлар рўйхати

1. Ғуломова М.Х., Собирова Н.К. Янги инновацион технология ёрдамида таълим самарадорлигини ошириш усуллари – Т.: 2009
2. Шайхисламов Н. З. Она тили ва адабиёт дарсларида замонавий педагогик технологияларни қўллаш маҳорати т. 2017



СТИЛИСТИКА РУССКОГО ЯЗЫКА

Рўзиева Дилшода Рустамжон кизи

Дадаева Феруза Мухамедовна

Учителя русского языка и литературы

(в национальных классах) средней

общеобразовательной школы

№ 42, г. Фергана, Ферганская область

Аннотация: Эта статья предоставляет информацию о русской стилистике и объясняет ее примерами.

Ключевые слова: стилистика, лексическая стилистика, стиль, типовой стиль, слово, стиль языка.

Расположение М. В. Ломоносов разделяет на натуральное и художественное, т. е. на прозаическое (ученое) и поэтическое. Единицей композиции считается хрия, т. е. речь, имеющая относительно самостоятельную смысловую цельность. Хрии у М. В. Ломоносова относятся, прежде всего, к похвальным словам, т. е. к показательной речи.

Стилистика русского языка. Стилистика — это наука о высоком уровне речевой культуры, правильном употреблении слов и связей между словами. Предметом стилистики является стиль языка. Основная стилистическая единица — слово. Лексическая стилистика изучает:

- лексические средства языка;
- стили и их средства;
- нормативное словоупотребление в различных стилях;
- средства наиболее точной передачи информации (антонимия, синонимия, омонимия, полисемия, паронимы);
- стилистическое расслоение лексики (архаизмы, неологизмы, слова ограниченной сферы употребления);
- лексические образные средства (тропы).

Лексическая стилистика устраняет следующие речевые недочеты:

- неправильное словоупотребление;
- употребление слова без учета его семантики;
- нарушение лексической сочетаемости;
- неправильный выбор синонимов;
- неправильное употребление антонимов, многозначных слов, омонимов;
- смешение паронимов.

Стиль — одна из разновидностей языка, языковая подсистема со своеобразным словарем, фразеологическими сочетаниями, оборотами и конструкциями, отличающаяся от других разновидностей экспрессивно-оценочными свойствами.

Стиль — это всегда ситуативное проявление языка в речи. Существует также понятие об индивидуальном стиле. Речевое произведение, помимо общепринятых средств, может содержать индивидуальные особенности. Типовой стиль служит основой для создания индивидуального. Типовой стиль обладает следующими характерными признаками:

- социальная стилистическая традиция;
- социальные правила и нормы стилеобразования.

Проявление индивидуального стиля речи определяется различными социальными фактурами:

- социальное положение. Стиль речи может быть высоким, средним или низким в зависимости от того, какое положение мы занимаем в обществе;
- пол. Стиль речи мужчин и женщин имеет существенные различия. Например: женщины, как правило, более эмоциональны; для их речи характерны сентиментальность, сумбурность, многословие. Для речи мужчин чаще характерны вульгаризмы, парадоксы, каламбуры;
- возраст. Каждый возрастной период (детство, юность, зрелость, пожилой возраст) характеризуется определенными стилистическими нормами;
- профессия. Речь людей разных профессий различается как тематически, так и



стилистикаси.

Языковая норма ~ совокупность явлений, разрешенных системой языка, отраженных и закреплённых в речи носителя языка и являющихся обязательными для всех носителей языка.

Слово — совокупность определенных звуков, которая называет предметы, явления действительности, обозначает признаки, действия, выполняет связующие функции между другими словами. Слово является основой для понимания речи. Одной из важнейших проблем стилистики является смысловая точность речи, то есть правильный выбор слова в конкретной речевой ситуации. Неправильное словоупотребление искажает смысл высказывания, вызывает различного рода речевые ошибки.

Проблема смысловой точности возникает при редактировании текста. При редактировании устраняются лексические и стилистические ошибки, вызванные неправильным выбором слова.

Список использованной литературы:

1. Кожина М. И. Стилистика русского языка. - М.: Просвещение, 1977
2. Валгина Н.С., Розенталь Д.Э., Фомина М.И. Современный русский язык. М.: Просвещение, 2002
3. Введенская Л.А. и др. Русский язык и культура речи. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2004.



НОРМЫ СТИЛИСТИКИ РУССКОГО ЯЗЫКА

Суванова Сурайё Ходиевна
Рахматуллаева Азиза Ҳамидуллаевна
Бозорова Маржона Авазовна
Икромов Фарағиз Бахтиёржон қизи
Учителя русского языка и литературы
общеобразовательной школы № 2
г. Навои Навоийской области

Аннотация: В данной статье представлена информация о нормах стилистики на русском языке.

Ключевые слова: стилистические нормы, функциональные стили, лексическое значение, стилистическая соотнесенность, экспрессивно-оценочная окраска.

Стилистические нормы - это исторически сложившиеся и вместе с тем закономерно развивающиеся общепринятые реализации заложенных в языке стилистических возможностей, значений и окрасок, обусловленные целями, задачами и содержанием определенной сферы общения.

Нормы стилистики регулируют те или иные особенности употребления речевых средств в различных сферах общения, не допускают столкновения разностилевых средств в узком контексте.

Пассмотрим пример. Слово обедать имеет значение «принимать пищу, есть что-либо в качестве обеда», а слово обед - «основное принятие пищи, обычно в середине дня, в отличие от завтрака и ужина». Можно сказать: обедал дома, обедал в столовой, пригласил на обед друзей, угостил обедом и т. п. Может создаться впечатление, что слова обедать и угостить обедом можно употреблять где угодно и когда угодно. Однако в языке имеются близкие им по значению другие синонимические средства: присутствовать на обеде и дать обед. В одном случае стилистика устанавливает сферу их употребления: выражения присутствовать на обеде и дать обед имеют крайне ограниченную сферу употребления - они используются только в официально-деловом стиле и то лишь в его дипломатической разновидности: Правительство России дало обед в честь находящегося с дружеским визитом премьер-министра Франции. В остальных стилях употребляются слова обедать и угостить обедом, имеющие нейтральную стилистическую окраску.

Подобные вопросы возникают и в сфере фонетики, морфологии. Стилистика рассматривает особенности употребления синтаксических вариантов в тех или иных речевых условиях.

Стилистика изучает те же элементы структуры языка, что и фонетика, лексика, морфология и синтаксис, но не ограничивается строением и значением этих элементов, а сопоставляет их с точки зрения особенностей употребления в речи, смысловых и эмоциональных оттенков и т. п. В связи с этим ученые выделяют стилистические нормы как предмет изучения стилистики.

Разновидности литературного языка, обслуживающие различные стороны общественной жизни, называются функциональными стилями. Выделяют следующие функциональные стили:

- 1) научный стиль;
- 2) официально-деловой стиль;
- 3) публицистический стиль;
- 4) разговорная речь;
- 5) язык художественной литературы.

Каждый стиль имеет свои особенности, в соответствии с которыми он находит применение в той или иной сфере речевой деятельности.

Нормативность речи во многом определяется правильным употреблением слова. Выделяют следующие главные принципы выбора слова:

1. Лексическое значение слова должно соответствовать тому значению, в котором оно употребляется. Например, слова зритель, посетитель совпадают в значении «публика», но имеют разные значения в зависимости от цели, ради которой собирается публика: зритель —



на зрелищные представления; посетитель — на выставку или другие общественные места;

2. Стилистическая соотнесенность слова должна привести к правильному выбору слова в зависимости от коммуникативной ситуации, в которой оно употребляется. В зависимости от стилевой принадлежности слова делятся на три основные группы:

- лексика, стилистически неокрашенная, то есть нейтральная. Такие слова, как день, голос, я, и, чтобы, дорога, двадцать и др., могут употребляться в любой ситуации;

- слова строго официальные. К ним относятся книжные слова: возложить, интерпретация, термины, то есть слова, употребляющиеся в официальном общении специалистов: консолидация (финансы), парадигма (лингвистика,);

- лексика подчеркнуто неофициальная. К ней относятся слова разговорные, разговорно-просторечные и просторечные (пятак, глазастый, психушка), а также профессионализмы — слова, употребляющиеся в неофициальном общении людей одной профессии (баранка, окно);

3. Экспрессивно-оценочная окраска слова часто определяет его значение. Например, вонь (неодобрительное) — запах (без оценки) — аромат (одобрительное).

Список использованной литературы:

1. Столярова Е.А. Стилистика русского языка.
2. Валгина Н.С., Розенталь Д.Э., Фомина М.И. Современный русский язык.
3. Ткаченко И. В., Шарохина Е. В. Риторика.
4. Кожина М. И. Стилистика русского языка.



TILSHUNOSLIKNING RIVOJLANISHIDA FALSAFANING O'RNI

Abdumuxtorov Xurshidbek,
ADCHTI talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola tilshunoslikning paydo bo'lishi, bu jarayonda faylasuflarning falsafiy qarashlari bayon etilgan. Tilshunoslikda yunon olimlarining qarashlari yoritilgan. Falsafaning tilshunoslikka ta'sir qilgan jihatlari, bu jarayondagi boshqa fanlarning ahamiyati korsatib berilgan. Umumiy tilshunoslikning fan sifatida shakllanish jarayoni aks ettirilgan.

Tayanch so'zlar: til, jamiyat, falsafa, antik tilshunosligi, sotsiologiya, leksika.

Til kishilik jamiyatida yaratilgan bo'lib, aloqa vositasi sifatida xizmat qiladigan ijtimoiy hodisadir. Uning ijtimoiy tabiati ayrim shaxsga emas, balki jamiyat uchun xizmat qilishda namoyon bo'ladi. Til insoniyatning tarixiy taraqqiyoti jarayonida yaratgan barcha madaniy va ilmiy boyliklarini ifodalaydigan va avloddan avlodga meros qoladigan asosiy vositadir.

Demak, jamiyatning eng muhim aloqa vositasi bolgan tilning bir butunligiga asoslanib, uni tirik organizmga o'xshatish noto'g'ri. Til o'zining tuzilishi bilan, ayrim unsurlarining o'zaro munosabati bilan butun bir tizimni tashkil etadi.

Tilshunoslikning vujudga kelish tarixiga nazar solsak, antik davridagi yunon- rim faylasuflarining o'rni beqiyosdir. Antik tilshunosligi barcha yevropa maktablariga ta'sirini o'tkazadi. Qadimgi yunonlarda til nazariyasi falsafaning bir bovlagi deb qaralgan. Shuning uchun ham qadimgi yunon tilshunosligi quyidagi ikki bosqichni farqlash zarur:

1. Falsafiy davr (Miloddan avvalgi V-III asrlar)

2. Aleksandriya davri (Miloddan avvalgi III asr - milodiy IV asr) Keyingi davrda tilshunoslik alohida fan sifatida maydonga chiqadi.

Yunon tilshunosligida olimlar diqqatini tortgan masalalardan biri tilning kelib chiqish masalasidir. Ular tilning xudo osmonidan yuzaga kelishi muammosini tan olmadilar. Xususan, Tit Lukretsiy Kar —Narsalarning tabiatil nomli asarida tabiatda barcha predmetlar tovush chiqaradi va ularni tushuna olish odamzod tilini maydonga keltiradi deb tovushga taqlid nazariyasini ilgari surdi. Demokrit esa jamoa bo'lib yashayotgan odamlarning barchasi so'zlarni har bir vaziyat asosida yuzaga keltirdilar, bu esa turli-tuman tilshunoslarning maydonga kelishini olib keldi, deydi.

Shunday qilib, so'z va predmet mosligi to'g'risidagi munozara maydonga keladi. Demokrit so'z va predmet o'rtasida moslik yo'q, balki o'rganish, odat mavjud deydi. U bunga asos qilib quyidagilarni aytadi:

- Ko'pgina so'zlar bir necha ma'nolariga ega.
- Ko'pgina tushunchalar bir necha nomlariga ega.
- Bir so'z ikkinchi so'z bilan almashtirilishi mumkin.
- Ko'pgina tushunchalarni so'z bilan ifoda qilib bo'lmaydi. Bunga Aristotel ham qo'shiladi.

Boshqa guruh olimlar Geraklit nom bilan predmet o'rtasida bog'liklik bor, deydi. Har bir narsa qandaydir tomoni bilan sezgi organlariga ta'sir qiladi yoki ma'lum tovushlar chiqaradi. Bu tovushlar unga nom bo'lib qoladi. Tovushlar ham shunday ayrim tovushlar kishiga yoqimli va mayin eshitilsa boshqalari qo'pol yoki qat'iy eshitiladi. Bular ularga nom bo'lib qoladi. Bunday qarashga idealist - faylasuf Platon qarshi chiqadi. U o'zining —Kratil yoki nomlarning to'g'riligi haqidal nomli asarida Kratil bilan Germogenning munozarasini bayon qiladi. Germogen narsalarning nomi ularga avvaldan berilgan, nom predmetning o'zida bor desa Kratil bunga qarshi chiqadi va bu suhbatga Suqrot aralashadi. U Platonning qarashlarining ifodachisi sifatida maydonga chiqib, nomlarning predmet bilan bog'lik emasligini izohlaydi. Germogen va Kratilning bahsidan keyin til va hayotning, predmetlarning bog'likligi haqidagi bahs analogistlar va anomalistlar orasida davom etdi. Nom bilan predmet o'rtasida moslik bor deyuvchilar analogistlar, ular o'rtasidagi bog'liklikni inkor etuvchilar anomalistlar hisoblanadi. Ular o'rtasidagi kurash va baxsning mohiyati rim olimi Mark Terentsiy Varronning —Lotin tili to'g'risidal nomli asarida bayon qilingan.

Tilshunoslikning antik davrining eng gullagan vaqti Aleksandriya davriga to'g'ri keladi. Bu davr Ptolomeylar podshohlik qilgan miloddan avvalgi III-II asrlarga to'g'ri keladi. Ular yunon adabiy tili an'analarini saqlash va Gomer, Sofokl, Esxil asarlarini tahlil qilish masalalarini birinchi o'ringa qo'ydi.



Tilshunoslikka qarashlar davrlar davomida o'zgarib o'zining alohida fan bo'lib shakllanishiga asos bo'ladi. Umumiy tilshunoslik fanining asoschisi V. fon Gumboldt (1767-1835) tilshunoslik fanining asosiy masalalarini, predmetini va chegarasini belgilab berishga harakat qilgan mashhur olim edi. V. Gumboldt tilshunoslikni inson o'rganadigan tarixiy, falsafiy, etnografik fanlar qatoriga qo'shishga harakat qildi.

V. fon Gumboldt fikricha, til nihoyat darajada murakkab va ko'p aspektli hodisa bo'lib, uni ilmiy o'rganish esa tilning barcha aspektlarini tekshirishni talab qiladi. Uning ta'kidlashicha, tilning har doim, rivojlanib o'zgarib turishi uning eng asosiy xususiyatidir. Tilshunoslik fanining asosiy masalasi tilning ana shu xususiyatini o'rganishdan iboratdir. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan masalalar tilshunoslik fanining predmeti masalasi bilan bevosita aloqadordir.

Garchi V. Gumboldtning nazariyasi idealistik falsafaga asoslangan bo'lsa ham, uning ilmiy faoliyati, ayniqsa, til bilan nutq antinomiyasi xususidagi ta'limoti tilshunoslik fanining taraqqiyoti uchun juda katta hissa bo'ldi. V. Gumboldtning til haqidagi falsafiy nazariyasi, o'zidan keyingi tilshunoslik fanining takomillashuvida, turli ilmiy maktablar va oqimlarning shakllanishida asosiy omil bo'ldi.

Tilshunoslik fanining rivoji boshqa fanlar aloqasi bilan ham bog'liq. Masalan, til va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni, tilning falsafa, ijtimoiy psixologiya, etnografiya bilan bog'liq jihatlarini o'rganuvchi soha **sotsiolingvistika** (ijtimoiy tilshunoslik) dir. Quyidagi masalalarni o'rganadi:

Jamiyat va til o'zaro bog'liq, mutanosib tarixiy jarayon, hodisadir.
Jamiyat taraqqiy eta borgan sari tilning ijtimoiy vazifalari ham takomillashib boradi.
Adabiy tilning, shevalarning lug'at boyligi kengayadi, ortib boradi.
Yashash muhiti yaqin, turmush tarzi o'xshash hamda o'zaro iqtisodiy munosabatlari shakllangan xalqlarning tillari bir-biriga ta'sir ko'satadi. Tillar leksik jihatdangina emas, balki grammatik jihatlariga ko'ra ham ta'sirlashadi.

Sotsiolingvistika tilning ijtimoiy tabiatini tahlil qiluvchi asosiy soha hisoblanadi. Sotsiolingvistika tilning ijtimoiy tabiatini yoritishda **tarixiylik, hayotiylik, me'yoriylik, hududiylik** kabi qator mezonlarga amal qiladi.

Uning **tarixiylik** tilning paydo bo'lishi, yaxlit tizim tarzida shakllanishi, ijtimoiy hodisa sifatida mavjudligi bo'lsa, **hayotiylik** aloqa-munosabat vositasi sifatida mavjudligidir. **Me'yoriylik** tilning muayyan me'yorlar asosida muvofiqlashtiriluvda aks etadi. **Hududiylik** esa tilning ma'lum hudud bilan bog'liqligini ifoda etadi. Hududiylik millat, elatga xos urf-odat, an'analar, tarixiy-etnik birlik va yagona davlat tizimining shakllanganligi bilan bog'liq.

Xulosa qilib aytganda, til kishilik jamiyatining asrlar davomidagi tarixiy- ijtimoiy tajribasi asosida yuzaga kelgan ijtimoiy hodisadir. Til va jamiyat taraqqiyoti uzviy bog'liqdir. Jamiyatda ro'y beradigan har qanday voqelik, ma'lum ma'noda tilda o'z ifodasini topadi. Tilning ijtimoiy tabiati uning jamiyatda mavjud bo'lishi hamda jamiyat manfaatlariga xizmat qilishida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan Adabiyotlar Ro'yxati:

1. Xolmanova Z.T. Tilshunoslikka kirish. - Toshkent, 2007
2. Usmonov S. Umumiy tilshunoslik. - Toshkent, 2006
3. Umumiy tilshunoslik fanidan ma'ruzalar matni. - Toshkent, 2012
4. Shermuhammedova N. Falsafa va fan metodologiyasi. - Toshkent, 2008



TILSHUNOSLIKDA SEMANTIK VA MAZMUNIIY MAYDON NAZARIYASIGA OID QARASHLAR

Abdumuxtorov Xurshidbek,
ADCHTI talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tilshunoslikdagi semantik maydon nazariyasining asl mohiyati yoritilib jahon va o'zbek tilshunosligidagi semantik maydon nazariyasiga oid bir qator fikr-mulohazalar o'rganilib ular atroficha tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: semasiologiya, lingvistik, paradigmatic, sintagmatik, maydon, semantic, differensial.

Tilshunoslikda semantik maydon nazariyasi haqidagi qarashlar so'z ma'nosining tadqiqi bilan bog'liqdir. Olamdagi narsa, voqea-hodisa, harakat hammasi inson ongida tushuncha sifatida aks etadi. Tushuncha esa ma'no yaxlitligidan iborat tovush tizimida so'z shaklida namoyon bo'ladi.

Insonning aloqa vositasi sifatida yuzaga kelgan til ham belgisi va sistemalar tarkibiga kiradi. F.De Sossyur tilning belgisi tabiatni yoritib belgi nazariyasi bilan shug'ullanuvchi alohida fan – semasiologiya fanining mavjud bo'lishini alohida ko'rsatib o'tgan edi.

F.De Sossyur tilshunoslar diqqatini lingvistik birliklar orasidagi munosabatni ochishga qaratib, paradigmatic va sintagmatik turlari mavjudligini ko'rsatgan edi. Lingvistik birliklarni muayyan birlashtiruvchi ma'no asosida ma'lum paradigmalarga birlashuvi keyinchalik tilshunoslikda maydon nazariyasini vujudga keltirdi.

Maydonni atamasi qator fanlar doirasida mavjud bo'lib, jumladan, fizikada:

Maydon – fizikaning asosiy tushunchalaridan biri ekanligi fazodagi taqsimlangan fizik kattaliklarning xususiyatlarini tekshiruvchi nazariya hozirgi vaqtda maydon nazariyasi ekanligi qayd etiladi.

Algebrada esa qo'shish, ko'paytirish va ularga teskari amallar –ayirish, bo'lish kiritilgan to'plam sifatida belgilanadi.

Lingvistikada esa ma'no umumiyliigi bilan birlashgan va belgilanayotgan hodisalarning tushunchaviy, predmetlik yoki vazifaviy o'xshashligini aks ettiruvchi leksik birliklar yig'indisi maydon sifatida belgilanadi. Lingvistik birliklarning ma'lum ma'no asosida birlashuvi, ma'lum bir tildagi lug'aviy birliklarni ana shunday mazmuniy uyalarga birlashtirish sharq tilshunosligida rivojlangan. Keyinchalik XIX asrda lingvistik birliklarni mazmuniy guruhlariga birlashtirish yoki butunni ma'lum mazmuniy guruhlariga ajratish g'oyasi Yevropada avj oldi. Shunga ko'ra, bu nazariya Yevropa tilshunosligi bilan uzviy bog'lanib qoldi.

O'zbek tilshunosligida so'z semantik maydonlarini tadqiq etish o'tgan asrning 80-yillarigacha hali boshlangan emas edi. Faqat ma'lum semantik maydonga so'zlarni ajratib olib, keyin unga semasiologiyaning boshqa yo'nalishlarida yondashish bo'lgan. So'z semantik maydonlarni lingvistik-semantik asosda o'rganish o'tgan asarning 90-yillaridan o'zbek tilshunosligiga keng ko'lamda kirib kela boshladi

Semantik maydon haqidagi fikrlarni sema, semema kabi tushunchalarni sharhlash bilan davom ettiradigan bo'lsak, semema va leksik ma'no terminlari bir tushunchani bildiradi. Semema bo'linmas birlikdan iborat emas, balki tarkibiy uzvga egadir. Leksik ma'noning mana shu elementini R.Yunusov, Sh.Xo'jayevlar sema deb qayd etishadi.

Tilshunoslikda differensial-semantik metod keyingi vaqtlarda faol

qo'llanmoqda. Shunga ko'ra lug'aviy birlik holatidagi so'z —leksema, leksik ma'no —semema, leksik ma'noning komponentlari, tarkibiy uzvlari —sema deb qo'llanmoqda.

Har bir milliy tilda leksemalar muayyan qonun-qoidalar asosida bir yerga jamlanib, to'dalanib boradi. Tilning o'ziga xos tarixiy taraqqiyot jarayonida mazkur leksik-semantik guruhlar sifat va miqdor jihatidan tinmay o'zgarib boradi.

Foydalanilgan Adabiyotlar ro'yhati

1. Iskandarova Sh. O'zbek tili leksikasini mazmuniy maydon sifatida o'rganish (shaxs mikromaydoni). –Toshkent, 1999.

2. Iskandarova Sh. Til sistemasiga mazmuniy maydon asosida yondashuv. - Toshkent: “Fan”. 2007-yil.

3. Iskandarova Sh. O'zbek tili leksikasini mazmuniy maydon sifatida o'rganish (shaxs mikromaydoni). –Toshkent, 1999. 23-b.



PUSHKIN, QISHLOQ: SHOIRNING OZODLIKSEVAR LIRIKASI TAHLILI

Atajanov Xusinbay Mavlanovich

Xorazm viloyati Bog'ot tumani 21-son
maktabning rus tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Amanova Oksana Narimanovna

Xorazm viloyati Bog'ot tumani 21-son
maktabning rus tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada Aleksandr Sergeevich Pushkinning eng mashhur she'rlaridan biri batafsil ko'rib chiqiladi va tahlil qilinadi. "Qishloq" (Pushkin) - shoirning siyosiy qarashlari, uning krepostnoylik huquqi va rus dehqonlarining mamlakat hayotidagi o'rni haqidagi fikrlarini aks ettirgan asar.

Kalit so'zlar: Yaratilish tarixi, mavzu va g'oya, lirik "men", tarkibi, she'riy hajmi, yaxshi va ifodali vositalar.

Pushkin she'riyatining xususiyatlari

Buyuk shoir ijodi bir necha bosqichlarga bo'lingan. Biroq, ularning barchasi Pushkinning shakllanishining dastlabki davrida paydo bo'lgan bir qator mavzular va xususiyatlar bilan birlashtirilgan. Dekabristlar va taniqli yozuvchilar bilan aloqa, ayniqsa, yozuvchining badiiy ongining shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Shuningdek, uning adabiy qobiliyatlarini rivojlanishiga rus folklorlari va G'arbiy Evropa madaniyati va adabiyoti ta'sir ko'rsatdi.

Tahlil: "Qishloq" (Pushkin)

She'rning yaratilish tarixi

She'r shoir ijodining ikkinchi, Sankt-Peterburg davriga tegishli bo'lib, 1819 yilda yozilgan. Faol ijtimoiy va siyosiy hayot, dekabristlar bilan yashirin uchrashuvlar, Chaadaev va Ryleev bilan mulotot - bularning barchasi "Qishloq" she'riyatining mavzusiga ta'sir ko'rsatdi. Pushkin she'ri tahlili shoirning avtokratiyaning despotizmi, odamlarning siyosiy va ijtimoiy erkinligi yo'qligi, krepostnoylik g'ayriinsoniyliqi haqidagi gaplarini o'z ichiga oladi.

Mavzu va g'oya

Asarning asosiy mavzusi - krepostnoylik huquqi muammosi. Pushkin o'zining buzg'unchiligini, barbarligini va antigumanizmini namoyish etishga intiladi. Xalqqa nisbatan shafqatsizlik va adolatsiz munosabatlarga e'tibor qaratish uchun shoir qarama-qarshiliklarga duch keladi. "Qishloq" (Pushkin) oyatining tarkibiy tahlili ikki qismli kompozitsiya haqida gapirishimizga imkon beradi.

She'rning birinchi qismi ("Qalbdan chuqur pishadi ..." so'zlari bilan tugaydi) qishloq hayotining idil rasmini aks ettiradi. Pushkin uning tinchligi, tabiiy go'zalligi, uyg'unligini madh etadi, u ilhom beradi va ijodkorlik va she'riyatni targ'ib qiladi, axloqiy jihatdan poklaydi. Ikkinchi qism shoirning avtokratik despotizmga qarshi ochiqdan-ochiq gapiradigan, ezilgan xalqning azob-uqubatlariga, krepostnoylik va qullik tizimining shafqatsizligiga ishora qilgan keskin qarshilikka o'xshaydi.

Lirik qahramon obrazi

Lirik qahramon - bu tabiat qonunlari asosida mavjud bo'lgan dunyoning go'zalligi va uyg'unligini qadrlay oladigan odam, bu qishloq. Uning uchun bu idil dunyo, "tinchlik va ilhom makoni", bu erda u erkinlikni topadi. Shoir jannat manzarasini tasvirlaydi: dalalar, o'tloqlar, "salqinligi va gullari bilan bog'", "yorqin soylar", "eman o'rmonlarining tinch shovqini".

Birinchi qismdagi qahramon nozik uyushgan qalb va go'zallikni his qilish qobiliyati bilan romantik rol o'ynaydi, ikkinchi qismida - fuqarolik pozitsiyasidan, bu tahlil bilan tasdiqlangan. "Qishloq" (Pushkin) - bu shoirning lirik "men" i tubdan o'zgargan, romantik o'z mamlakatining monarxiya tuzumidagi kamchiliklarni mukammal tushunadigan siyosatchiga aylanadigan asar. Er egalarning qiyofasi diqqatga sazovordir: "Xo'jayin vahshiydir, hissiz, qonunsiz ..." Bu johil zolim kuch "oriqlarning qulligi" bilan yashaydi.

Lirik qahramon uning ovozi "yurakni bezovta qila olmasligini" achchiq-achchiq pushaymon qiladi, shuning uchun u mamlakatda yuz berayotgan o'zboshimchalikni o'zgartira olmaydi. Uning aziz orzusi - "ma'rifatli erkinlik tongini" ko'rishdir, shunda uy egalari "mehnat, mol-mulk va dehqonning vaqtini" o'zlashtirishni to'xtatadilar.

Tarkibi va she'riy o'lchagichi

She'r notiqlik tarzida yozilgan bo'lib, unda shoir o'z davrining taraqqiyparvar kishilarining



fikrlari va g'oyalarini ifodalaydi. Hikoya qishloq go'zallariga murojaat qilish va idil tasviri bilan boshlanadi. Ushbu kirish notiqlik san'atiga mutlaqo mos keladi. O'z fikrlarini tanlangan uslubda rivojlantirishda davom etayotgan shoir ikkinchi va uchinchi misralarni xuddi shu tarzda quradi. U ikkinchi bo'limda xuddi shu texnikani qo'llaydi, misrani "mana" so'zi bilan boshlaydi. Undov va so'roq gaplarining ko'pligi, shuningdek, notiqlik uslubi bilan belgilanadi. Pushkin bunday kompozitsion tuzilishga sabab bilan murojaat qiladi. Uning she'ri nafaqat mazmunan, balki shaklan ham jozibador. Bu asrlar oldin paydo bo'lgan adolatsizlikni yo'q qilishni talab qiladigan ochiq nutq.

Yaxshi va ifodali vositalar

Nafaqat mazmuni, balki "Qishloq" she'rining turli qismlarining badiiy vositalari ham har xil. Pushkin ijodining tahlili shuni davom ettirishi mumkinki, shoir boshlang'ichni intonatsion tarzda quradi, shunda o'quvchi xotirjamlik va do'stlik dunyosiga singib ketadi. Ushbu atmosfera "tinch shovqin", "dalalar sukunati", "azur tekisliklar" epitetlari tufayli yaratilgan.

Ikkinchi qism ko'proq ifoda etilgan, shoir g'azablangan va g'azablangan. Demak, yorqin hissiy ma'noga ega so'zlar juda ko'p: "yovvoyi lordlik", "chidab bo'lmas egasi", "odamlarning vayron bo'lishi", "og'riqli g'azab".

Foydalanilgan adabiyotlar:

Internet manbalar

www.uzsayti

Ziyonet ta'lim tarmog'i



LITERARY ANALYSIS OF MOTIF AND SYMBOL IN LITERATURE

Davlatova Laylo Baxodirovna

Xorazm viloyati Urganch shahar

18-son maktabining ingliz tili fani o'qituvchisi

Annotation: This is an authoritative presentation and discussion of the most basic thematic elements, such as motif, symbol, theme, universally found in literature. The reference provides a detailed analysis of the most common archetypes or motifs found in the literature of selected communities around the world.

Key words: motif, theme, symbol, literary work, central idea, plot, archetype.

From the literary textbooks we know that a motif is a literary term that is an idea, object, or concept that repeats itself throughout a text. ... However, the motif may appear in various forms. Motif Examples: For example, "death" could be a motif in a literary work. In a literary work, a motif can be seen as an image, sound, action, or other figure that has a symbolic significance, and contributes toward the development of a theme. ... In a literary piece, a motif is a recurrent image, idea, or symbol that develops or explains a theme, while a theme is a central idea or message. A motif is a recurring narrative element with symbolic significance.

If you spot a symbol, concept, or plot structure that surfaces repeatedly in the text, you're probably dealing with a motif. They must be related to the central idea of the work, and they always end up reinforcing the author's overall message. How Great Authors Use Motif. Motif is when you repeat something in your narrative. Often, authors repeat description, but dialogue, action, or any other element of narrative can be repeated as well. The interesting part is that this repeated thing gains symbolic meaning as you repeat it. A symbol is an object, a picture, a written word, or a sound that is used to represent something. ... A symbol can be repeated once or twice, while a motif is constantly repeated. 3. A symbol can help in the understanding of an idea or thing, while a motif can help indicate what the literary work or piece is all about. A repeated reference or visual of shattered glass (something in life is about to break) Recurring dishonest characters (to cue up the discovery of an unfaithful spouse) A character who constantly misplaces things (as the loss of someone or something significant is on the horizon) The key difference between a central idea and a motif is b) A central idea is abstract, while a motif is concrete. A central idea of a literary work -the theme- is the dominant idea the author wants to convey. A motif is something symbolic that shows up in a work to reinforce the work's main theme. Usually, it's a physical object, but sometimes it can take on a different form. Motifs recur throughout a work as opposed to only appearing once, and they must hold significance to the plot. Common symbols used in literature include colors, animals, seasons, and weather. One instance of this motif is Romeo's lengthy meditation on the sun and the moon during the balcony scene, in which he describes Juliet as the sun. Romeo uses figurative language to describe her as banishing the "envious moon" and transforming the night into day. The difference between a Motif and a Theme. A theme is the underlying dominant idea in every written piece, while a motif is a repetition of certain patterns, ideas or images to reinforce the main theme. A theme is broader than a motif. Typical examples of themes of this type are conflict between the individual and society; coming of age; humans in conflict with technology; nostalgia; and the dangers of unchecked ambition. A theme may be exemplified by the actions, utterances, or thoughts of a character in a novel. How does the motif in this passage connect to the central idea? the blood motif suggests that revenge will lead to violence and death. the omens motif suggests that Octavius will die avenging Caesar's death. the sword motif suggests that all leaders are eventually assassinated. Its ability to represent ideas and qualities requires deeper thought than other literary elements do. But when symbolism is used effectively, it can make a story even more powerful and unforgettable. Plus, its purpose can serve as another way of nurturing literary themes. They're related, but generally a metaphor is used to draw a comparison between two distinct objects, whereas a symbol is used as a stand-in for a much more complex, and generally more abstract, idea.

A symbol is a mark, sign or word that indicates, signifies, or is understood as representing an idea, object, or relationship. Symbols allow people to go beyond what is known or seen by creating linkages between otherwise very different concepts and experiences. ... Numerals are symbols for



numbers. An archetype is described as a recurring symbol, theme, character, or setting in multiple works. It's something that's appeared in literature so often that it's very recognizable. A motif, though, is a recurring contrast, structure, or literary device that comes back in different forms. Recurring themes in American literature exist with clarity in Hemingway's work. Leslie Fiedler sees the theme he defines as "The Sacred Land"-the American West-extended in Hemingway's work, to include mountains in Spain, Switzerland and Africa, and to the streams of Michigan. The American West is given a symbolic nod with the naming of the "Hotel Montana" in *The Sun Also Rises* and *For Whom the Bell Tolls*. Although Hemingway writes about sports, Carlos Baker believes the emphasis is more on the athlete than the sport. According to Stoltzfus and Fiedler, Hemingway's nature is a place for rebirth, for therapy, and the hunter or fisherman has a moment of transcendence when the prey is killed. Nature is where men are without women: men fish; men hunt; men find redemption in nature. Fiedler believes Hemingway inverts the American literary theme of the evil "Dark Woman" versus the good "Light Woman". The dark woman-Brett Ashley of *The Sun Also Rises*-is a goddess; the light woman- Margot Macomber of "*The Short Happy Life of Francis Macomber*"-is a murderess. Robert Sholes admits that early Hemingway stories, such as "*A Very Short Story*", present "a male character favorably and a female unfavorably".

References:

1. Baker, Carlos, ed (1981). *Ernest Hemingway Selected Letters 1917-1961*. New York: Charles Scribner's Sons. ISBN 0-684-16765-4.
2. Benson, Jackson (1989). "Ernest Hemingway: The Life as Fiction and the Fiction as Life". *American Literature* (Duke University Press) 61 (3): 345-358. doi:10.2307/2926824.



FOUR FEATURES OF CLASSROOM PRACTICE IN ESP

Djurayeva Dilafruz Rustamovna

Xorazm viloyati Urganch shahar

1-son maktabining ingliz tili fani o'qituvchisi

Annotation: The aims of the lecture. In this lecture we will discuss the influence of these four features: learners' specialists knowledge, case study, class size, beyond classroom and their impact on ESP classroom practice. In considering which approach to take, it is most important to remember that there is no best way; all techniques and methods are a response to a particular situation. One of the skills ESP teachers need is the ability to assess a situation from a variety of viewpoints and then to select and adapt their methodology to match the learners' needs.

Key words: learners' specialists knowledge, case study, class size, beyond classroom.

The classroom is the only place in which learning takes place and so will also look more autonomous ways of learning. Increasingly, developments in technology, such as computers, word processors, CD-ROM and interactive video are influencing when, where and how we learn. Learners' specialist knowledge. ESP learners bring to language learning some knowledge of their own specialist field and the communication within it. Those who are still students to the specialist field bring less than those who are already experienced and practicing specialists. One aspect of the ESP teacher's job may be to develop a conscious awareness so that control is gained, whether over language, rhetorical structure or communication skills. Content knowledge: Teaching ESP is different from teaching EFL because learners have knowledge that they need to use. Business people do not expect a business English teacher to know how to run a business; they expect knowledge of how language is used in business. In EFL the carrier content is selected from a stock of shared knowledge and concepts. In ESP it is also necessary to include more specialized carrier content. One of the skills an ESP practitioner has to acquire is the ability to balance content level and language level and to see the real content.

Roles and relationships: One effect is on the kind of relationship that is appropriate between teachers and ESP learners. The ESP teachers must acknowledge and use the learners' greater knowledge of the carrier content. ESP teacher ? ESP learner ESP teacher ? ESP learner Exactly how this role is developed depends on the learners' experience, cultural expectations and what status a teacher has and how status is awarded.

Teaching and learning materials. Another effect is one kind of teaching materials used. Framework materials which use learner's experience are a good example. The carrier content comes from those with that knowledge - the specialists, the language learners. By owned authentic materials we mean materials which the individual learners use or produce versus authentic material from the discipline. Thus the business report that is being written or the taped lecture or recommended reading text on which notes need to be made have an immediacy and focused purpose that published material can not have.

Psychological research has shown that there are quite different ways of viewing the world and approaching learning. Our general approach may be predominantly right-brained or left-brained or a mix. Our culture also affects our learning style. Learning is a social process and so attitudes to learning and views of language have cultural dimensions to them, determined by national culture, professional culture, and individual culture. In language learning significant factors are also the extent to which an individual is visually, aurally or kinesthetically oriented. Visually oriented learners need to see words to remember them and will read and write a lot; auditory oriented learners can recall pronunciation and meaning from hearing only.

Kinesthetic learners are stimulated by touch and movement and benefit from learning through games and drama. In addition, in ESP situation we also need to activate and build on the learning styles and strategies which have been developed through the specialist field that is through the academic and professional culture. Learning style is different from leaning strategies which are specific behaviors or techniques learners use such as grouping words, holding mental conversation with themselves, getting someone to read aloud to them, watching TV. The strategies chosen are often linked to the individual's learning styles. Following a text while it is read aloud is helpful for visually oriented learners, while watching TV can suit auditory learners. Research studies have



shown that learning can be enhanced by teaching in ways that encourage students to activate their own learning styles.

Reference:

1. Dudley-Evans va St Jonning " Ingliz tili aniq maqsadlardagi rivojlanishi" Kambrij: Kambrij universiteti nashriyoti
3. Hardingning "Ingliz tili aniq maqsadlar uchun"(2007)
4. Jordanning "Ingliz tili akademik maqsadlar uchun(2005) o'qituvchilar uchun o'quv qo'llanma, Kambrij universiteti nashriyoti
5. Brinton va P.Masterning "Ingliz tili aniq maqsadlarining yangi usullari"



INGLIZ VA O'ZBEK IBORALARIDAGI FARQLI VA O'XSHASH JIHATLAR

Yarasheva Dilnoza Rustamovna,

Xorazm viloyati Urganch shahar

12-maktab ingliz tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Bugungi kunda o'rganishga katta talab bo'lgan Ingliz tilini chuqur o'zlashtirayotgan o'zbek o'quvchilari, shubhasiz, so'z boyligining ajralmas bo'lagi hisoblangan ibora, matal va maqollarga duch kelishadi. Mazkur maqola ingliz va o'zbek tilidagi iboralardagi o'xshash va farqli qirralar haqida bayon etadi.

Kalit so'zlar: Ibora, o'xshashlik, farqli jihatlar.

Ma'lumki, dunyo bo'yicha ko'plab xalqlar turli xil ibora, so'z qochirmalar, maqollar bilan so'z boyligini bezashni xush ko'radi. O'zbek va ingliz xalqi ham bundan mustasno emas, albatta. Biz ingliz tilini o'rganish jarayonida juda ko'plab qiziqarli ibora va maqollarga duch kelamiz va ularning o'zbek tilida o'xshash variantlarini ham topishimiz mumkin. Ko'p hollarda biz o'zbeklar oddiy so'zlashuv jarayonida ham iboralardan foydalanishni kanda qilmaymiz. Ehtimol, shu sababli ham ingliz tilidagi iboralarni tarjima qilish vaqtida ularning o'zbekcha variantlarini topish va taqqoslab yod olish bizning asosiy o'rganish uslubimizdir. Shu yo'l bilan ularni o'z tilimizda yanada mustahkamlaymiz.

Yuqorida aytib o'tganimdek, ingliz iboralarining o'zbekcha variantini topish o'ta mushkul masala emas, agarda ularning ma'nosini to'g'ri chaqsangiz, albatta. Misol uchun “chap oyog'i bilan turmoq” iborasini olaylik. Mazkur iborani ko'p qamrovli jamiyat a'zolari hech qanday muammosiz tushuna oladi. Chunki undan odatiy so'zlashuvda ko'p foydalaniladi. Bunga ingliz tilidagi “get up on the wrong side of the bed” iborasi mos tushadi. Bu iborani: “Yotoqdan noto'g'ri tomoni bilan turmoq” deb so'zma-so'z tarjima qilishimiz mumkin. Inglizcha variantida ba'zi bir kichik farqlar bor, xolos. Biroq ma'no o'sha-o'sha, ya'ni kunning boshlanishidan hech qanday sababsiz yomon kayfiyatda bo'lish. Aniqroq aytadigan bo'lsak, noto'g'ri tomon bilan uyg'onish yomon kayfiyat sababchisidir.

Suvdan quruq chiqmoq. Nahotki suvga tushib, undan quruq holatda chiqish mumkin bo'lsa?! Albatta, ha. Faqat u ibora bo'lsa. “Get away clean” iborasi esa uning ingliz tilidagi variantidir. Ular bir xil ma'no kasb etadi: ayb ish qilib, aybsizdek ko'rinish. Ya'ni biz, odatda, xato yoki gunoh ishlarni qora rangi bilan sifatlaymiz. Bu vaziyatda esa qora va kir holatdan top-toza chiqib ketish ma'nosidir. “Clean- toza” so'zining qo'llanishi shu sababdir.

Keling endi ingliz va o'zbek iboralarining kelib chiqish tarixiga nazar tashlasak. “Feel on a cloud nine” = o'zini yettinchi osmonda his qilmoq. Bu ikki iboraning ma'nosi bir-xil: juda xursand bo'lish. Ingliz variantida to'qqizinchi osmonning tanlab olinishi Buddizmga borib taqaladi. Bu dinda komillikka yetishning o'nta bosqichi bor va ular o'n qavatli bulut bilan ifodalanar ekan. Agarda inson ularning to'qqizinchi qatlamiga yetsa, bu uning komillikka yetishganini bildirgan va xursandchilik belgisi hisoblangan. O'zbekcha muqobilida esa yettinchi osmon deb olingan. Buning sababi esa Islom diniga borib taqaladi. Bu dinda eng buyuk mukofot hisoblangan Jannatning yettinchi osmon qatlamida ekanligi aytilgan. Eng kata xursandchilik eng buyuk mukofot Jannatga yetishganda bo'lganligi bois ham shunday tanlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

я. Keizer, Evelien. Idiomatic expressions in Functional Discourse Grammar. Linguistics 54 (4), 2016.



RUS TILINI O'RGANISHDA TA'LIM METODLARINING AHAMIYATI

Mayliyeva Shaxlo,
Xorazm viloyati Urganch shahar
12-maktab rus tili va
adabiyoti fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada rus tilini o'rganish muammolari, rus tilini o'qitish va rivojlantirishda ta'lim metodlari, ularning ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: rus tili, metod, ta'lim, tarbiya, chet tili, rivojlanish, o'qituvchi.

Hozirgi kunda o'sib kelayotgan yosh avlodni chet tillariga o'qitish sifatini ta'minlash, chet tillarida erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, chet tillarni o'zlashtirish orqali jahon ta'lim standartlariga javob beradigan yetuk kadrlarni tayyorlash yurtimizda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotining maqsadlaridan biridir. Til o'rgatishdagi imkoniyatlarni aniqlash va ularni yuzaga chiqarishda o'qituvchining bilimi, ijodkorligi, talabalarni o'z faniga nisbatan muhabbatini uyg'ota olishi, o'quvchi bilan hamkorlik munosabatini o'rnatish hozirgi davr talabini taqozo etadi.

Shu bilan birga aytish joizki, har bir o'rganilayotgan tilning o'ziga xos qonun-qoidalari, sirsinoatlari mavjud. Xalqaro standartlarga javob beruvchi yetuk mutaxassis kadr bo'lish uchun o'rganuvchidan tilning eng nozik qatlamlarini nazardan qoldirmaslik talab etiladi.

Ta'lim metodi - o'qituvchining o'quvchilar bilan muntazam qo'llaydigan, o'quvchilarga o'z aqliy qobiliyatlarini va qiziqishlarini rivojlantirish, bilim va ko'nikmalarini egallay hamda ulardan amalda ham foydalanish imkonini beruvchi ish usulidir. Belgilangan ta'lim berish maqsadiga erishish bo'yicha ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar o'zaro faoliyatini tashkil etishning tartibga solingan usullar majmuasi hisoblanadi. Quyida rus tilini o'rganishda yaxshi samara beradigan ayrim metodlar bilan tanishamiz.

SUHBAT metodi bu - o'quvchi shaxsini g'ayaviy, ma'naviy, axloqiy jihatdan shakllantirishda o'qituvchining jonli so'zi eng ta'sirchan usullardan biri hisoblanadi. Suhbat uchun mavzu tanlashda uning mazkur sinf o'quvchilari uchun har tomonlama mosligi, dolzarbligi muhim ahamiyatga ega. Suhbat quyidagi mavzularda uyushtirilishi mumkin:

1. Etik mavzular (ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy, jamoa orasida o'zini tutish qonunqoidalari)
2. Estetik mavzular (tabiat go'zalligi, inson go'zalligi, shaxslararo munosabatlar)
3. Siyosiy mavzular (davlatning ichki va tashqi siyosati, dunyo voqealari, xalqaro munosabatlar).

Suhbat davomida o'quvchilarga ularning o'z fikrini erkin ifoda etishlari hamda mustaqil fikr yuritishlariga imkon beruvchi savollar bilan murojaat etish juda muhimdir. Bu borada bahsmunozaraning ham katta ahamiyati bor.

O'Z-O'ZINI BAHOLASH metodi bunda xatti-harakatlari, fazilatlari, xulq atvorini tahlil qilish, asosida o'z shaxsiga baho berishga yo'naltirilgan faoliyat turi hisoblanadi. O'quvchi o'zo'zini baholash qiyin, lekin ularni bunga yetarlicha tayyorlash mumkin. Buning uchun o'quvchi o'z burchini tushunishi, tahsil va tarbiya olish uchun sababli asos bo'lishi, ya'ni tarbiyalanishni xohlashi, o'z - o'zini takomillashtirishga intilishi lozim. Bu usul ularga o'zlariga chetdan turib, xolisona baho berishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.X.Toxtaxodjayev. "Pedagogika" Toshkent – 2010 y.
2. O.Z.Suyunov. "Pedagogika Psixologiya" O'quv - majmua. Samarqand- 2013 .



UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA INGLIZ TILI DARSINI SAMARALI TASHKIL ETISH

Muzaffarova Muxlisa Muzaffarovna

Navoiy viloyati, Xatirchi tumani
2-umumiy o'rta ta'lim maktabining
ingliz tili o'qituvchisi
+99894 229 90 33

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tili darslarini tashkil etishda samaradorlikni ta'minlovchi metodlar haqida fikr yuritilgan. Chet elning ilg'or metodlari misollar orqali yoritilgan.

Kalit so'zlar: Metod, samaradorlik, tajriba, so'z boyligi, kommunikatsiya.

So'nggi paytlarda ingliz tilini o'rganadigan har qanday yoshdagi odamlar soni juda ko'paymoqda. Buning sababi hayot jarayonida ingliz tilini bilmasdan yashash qiyinlashib bormoqda. Ammo til o'rganish ham yosh davrlariga bog'liq. Hatto olimlar ham bolalar kattalarga nisbatan tilni tez va oson o'rganishlarini isbotlashgan. Bolalarda til o'rganishga bo'lgan tabiiy moyillik, ularda tadqiq qilish xususiyati kuchli ekanligi, kattalarga qaraganda bolalar vaqtining ko'pligi va o'rgangan ma'lumotlarni tez xotirada saqlashi buning asosiy sabablaridandir. Xitoy ixtirochilaridan biri Masaru Ibuka mashhur “Uchdan keyin juda kech” kitobida yozganidek: “...bolaning miyasi cheksiz miqdordagi ma'lumotlarga ega bo'lishi mumkin...”. Yana shunga e'tibor qaratish kerakki, 6-7 yoshli bolalar ma'lumotlarni ma'nosini tushunib emas, uni mexanik tarzda yodlaydi. Shuning uchun ham ingliz tilini o'rganayotgan boshlang'ich sinf o'quvchilariga tilni o'rgatishni grammatik tushunchalar berishdan boshlamaslik kerak. Aks holda chet tilini o'rgatishning dastlabki qaramlaridayoq bolani charchatib qo'yishi va til o'rganishga bo'lgan qiziqishini susaytirishi mumkin. Boshlang'ich sinfdagi o'quvchilarga chet tilini o'rgatish qiyin, shu bilan birga ma'suliyatli vazifalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinflarga ingliz tilini mazmunli va qiziqarli o'rgatish uchun quyidagi innovatsion metodlarga foydalanish mumkin.

1. Ko'rish orqali eslab qolish. Ma'lumki, yosh bolalar eshitgan narsasidan ko'ra ko'rgan predmetini eslab qoladi. Shuning uchun darsda turli xil rasmlardan foydalaning va suratdagi narsalarni ingliz tilidagi muqobilini o'quvchilarga yodlatib boring.

2. Qo'shiq va she'rlar orqali tushunish yoki eslab qolish qiyin bo'lgan so'zlarni musiqaga solib kuylash. Bunda yangi so'zlarni eslab qolish bilan birga bolaning og'zaki nutqi ham rivojlanadi. Bunga misol qilib bolalarning ingliz tili alifbosini qo'shiq qilib o'rganishlari shunchaki yodlashdan ko'ra samaraliroq ekanligini ko'rsatish mumkin.

3. TO raqobatbardosh grammatika va so'z boyligini ko'paytirishga yordam beradigan o'yinlarning aksariyatini o'z ichiga oladi. Bunda bolalar o'qituvchi bergan turli xil topshiriqlarni bajaradi. Natijada o'quvchilar orasida raqobat vujudga keladi va til o'rganishga bo'lgan raqobat yanada oshadi. Zero, Xitoy mutafakkirlari aytganidek: insonning barcha qiziqishlari raqobat orqali vujudga keladi”.

4. Multfilmlar orqali o'rgatish. Ma'lumki, bolalar turli xil multfilmlar ko'rishni juda ham xush ko'rishadi. Ingliz tilidagi multfilmlarni ko'rish jarayonida esa, multfilmdagi gaplarni tushunmasada, multfilm qahramonlarining harakatlari orqali ular ishlatayotgan so'zlarni tushunishga harakat qilishadi. Bu esa bolalar uchun qiziq va til o'rganish uchun samarali yo'l.

5. Qiziqarli o'yinlar orqali o'rganish. Ingliz tili fanini o'qitishda turli xil o'yinlar orqali o'rgatishning o'rni beqiyosdir. Dars davomida har xil o'yinlar o'rgatib turish sinfdagi fanni o'rganishga bo'lgan ishtiyoqni yanada oshiradi. Faol bo'lmagan o'quvchilarni ham darslarda yaxshi qatnashishga undaydi. Dars davomida boshlang'ich sinflarga quyidagi o'yinlarni o'ynatish mumkin:

A) Quvnoq topishmoqlar (Merry Riddles)

B) Pantomima – o'qituvchi biror so'z aytadi o'quvchi uni harakatlar bilan sinfdoshlariga tushuntiradi, tengdoshlari bu qaysi so'z ekanligini topishlari kerak bo'ladi.

C) Ushlab ko'rib topish. Bunda meva va savzavotlarni paypaslab uni qaysi meva yoki sabzavot ekanligini inglizcha nomini aytishadi.

Darhaqiqat, sezgi a'zolari orqali til o'rganish boshqa usullarga qaraganda foydali va samarali hisoblanadi. Masalan, o'quvchi birgina olmani tatib ko'rish jarayonida uning rangi, ta'mi, hajmi,



hidi qanday ekanligini biladi va uning inglizcha nomini ham aytadi. Natijada esa o'qituvchi o'quvchilardan ranglarning inglizcha nomini so'rab qolsa, bolalar darrob meva yegan paytini eslaydi. Demak, bundayusullardan foydalanish o'quvchining ma'lumotlarni uzoq muddatda xotirasida saqlab qolishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilariga til o'rgatishni majburiyat sifatida emas, aksincha, qiziqarli o'yinlar va innovatsion metodlardan foydalanish bugun zamon talabiga aylanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yu. Umurzaqova “ Kids inglish”
2. A. Qodirov, M. Saidbekova “Ingliz tili o'qitish metodikasi”
3. B. Hayitbayev “ General inglish”
4. M. Muxtorov “Boshlang'ich sinflarda ingliz tili”



MATNLAR USTIDA ISHLASH USULLARI

Ostanova Dilrabo O'ktamovna

Sirdaryo viloyati Sardoba tumani

4-maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

ANNOTASIYA: O'quvchi nutqining mukammal san'at asaridek jozibali, ta'sirchan, shu bilan bir qatorda aniq va ixcham shaklda ifodalanishi uchun anchagina mehnat talab etiladi. Ushbu maqolada shu haqida fikrlar keltirilgan

TAYANCH SO'ZLAR: Tasviriy matn, hikoya matni, muhokama matni, diagramma matni, auidiomatn, mumtoz matn, she'riy matn...

Matnlardagi iste'moldagi tarixiy so'zlar, nafaol yoki o'zlashma so'zlar izohini o'rganish, matnda ilgari surilgan g'oyani aniqlash barobarida har bir punktuatsion, orfografik va orfoepik qoidalarga asoslangan amaliyotlarni ham diqqat bilan o'rganmoq mahorat Maktabini o'taydi Demak, ona tili ta'limi o'qituvchisining vazifasi shogirdini ana shunday mahoratni egallashiga yo'l-yo'riq ko'rsatishdir. Quyida matn ustida ishlash texnikasini shakllantirishga yo'naltirilgan didaktik topshiriqlardan namunalar keltiramiz.

1. Matn g'oyasini aniqlash.

“Jadvalli test” usuli yordamida matnni didaktik tahlil qiluvchi topshiriq. Bunda o'quvchi ko'pvariantlilikka asoslangan topshiriqlar ustida ishlaydi. Natijada bir tomondan didaktik tahlil orqali matnning ta'limiy va tarbiyaviy jihatlarini ochilsa, ikkinchi tomondan esa o'quvchining fikrlash doirasi o'rganiladi:

ROSTGO'Y BOLA (Turkman xalq ertagi)

Bir kishining o'g'li bo'lgan ekan. Ularning qirqta oltin tangasi bor ekan. Otasi shu qirq oltin tangani o'g'lining eski choponi yoqasiga tikib, uni savdogarlarga qo'shib yuboribdi.— O'g'lim, hecham yolg'on gapirma, halol bo'lg'in, — deb o'g'liga buyuribdi. Savdogarlar yo'l yurishsa ham mo'l yurishibdi, bir joyga yetib borishganda ularga qaroqchilar hujum qilishibdi. Qaroqchilar o'zaro maslahatlashib, „mana bu yalangoyoqqa u-bu narsa bersakmikin“ deyishibdi. Qaroqchilardan biri bolani masxara qilib so'rabdi:— Ey, yalangoyoq, sendan nimani ham olish mumkin?

— Menda qirqta oltin tanga bor, — deb javob beribdi bola.

— Senda qirqta oltin tanga nima qilsin? — deyishibdi qaroqchilar kulib.

Shunda bola choponining yoqasini yirtib, oltin tangalarni ko'rsatibdi.

— Nega bularni bizga ko'rsatding? — deb so'rashibdi qaroqchilar. — Biz senga pul bermoqchi edik, endi bo'lsa buni ham olib qo'yamiz.

— Hechqisi yo'q, otam halol bo'l, yolg'on gapirma, deb o'rgatgan, — deb javob beribdi bola.

Hayron bo'lgan qaroqchilar savdogarlarga mol-mulkini, pullarini qaytarib berib, halol mehnat qilish uchun qaroqchilikdan voz kechishibdi. (144 ta so'z)

Topshiriqlar bir necha variantli javoblardan iborat, to'g'ri deb javoblarni shartli belgilar asosida beriladi.

2. Mumtoz matn ustida ishlash ko'nikmasini shakllantirish

Bilamizki, mumtoz matnlarning aksariyati aruz vaznida yozilgan she'riy asarlardir. O'quvchini bunday matnlarni tahlil qilishi uchun, avvalo, ko'nikma hosil qilish kerak. Buning uchun, avvalo, “uy ishi”ga barmoq vaznidagi she'riy asarlarni nasriy yo'l bilan mazmunini yoritish kabi mustaqil vazifalar berib borilsa, gap tarkibidagi o'zgarishlar(inversiya)ni to'g'ri qabul qiladi va gaplarni odatdagi tartib bo'yicha joylashtira olishni o'rganadi. Kichik-kichik tarqatmalar shaklida mustaqil bajarish uchun qo'shimcha mashqlar beriladi.

3. Nazorat ishlari tahlili:

a) Xatolar ustida ishlash.

Bilasizki, yozma nazorat sinovi o'tkazilgandan so'ng, albatta, uning tahlili uchun qo'shimcha bir soat ajratiladi. Negaki, aniqlangan xatolarning yo'l qo'yilishiga sabab nimada ekanligini o'rganilmasa, o'z vaqtida bartaraf etilmasa, bu kichik-kichik xatolar e'tiborsizlik tufayli nutqiy savodxonlikda jiddiy nuqson paydo bo'lishiga olib keladi. Eng avvalo, o'quvchini o'z ishini tahlil qila olishi va o'zga ishlar bilan qiyoslay olishi hamda baho bera olishiga o'rgatish



lozim. Bunda ishoraviy, imloviy, uslubiy xatolarni bartaraf etishning oddiy usuli hamkorlikda: jamoa bilan ishlash yaxshi natija beradi. Yozuv taxtasiga yo'l qo'yilgan xatolar birma bir yoziladi. “Bu – meniki!” ta'limiy didaktik o'yini orqali guruhlar xatolarni ajrata boshlaydi. Ha, anglaganingizdek, uch guruh: tinish ishoraviy, imloviy va uslubiy xatolarni ajratib, uni to'g'ri variant bilan almashtiradi. Shu vaqtning o'zida javobga izoh berib o'tadi. b) Didaktik tahlil: Yuqoridagi jadvalli tahlil savodxonlik bo'yicha xizmat qilsa, mazmunini didaktik tahlil qilish usuli ham o'quvchining o'z ishiga xolis baho berishini ta'minlaydi. Jarayonni hamma, o'zlashtirishi va dunyoqarashi turli, o'quvchi uchun qulay tashkil etish maqsadida didaktik ta'lim usullaridan biri “Chiroyli nutq sohibi”ni o'tkazish yaxshi samara beradi. Bunda jamoalar har bir o'qilgan ijodiy ishga munosabat beradi va baholaydi. Yuqorida ko'rilgan barcha ta'limiy usullar ona tili ta'limi oldiga qo'yilgan vazifalarni qaysidir ma'noda ado etishda vosita bo'lishiga ishonaman. Davlat ta'lim standartida qo'yilgan talablar: mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o'zgalar fikrini angelaydigan –muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirish kabilarni bajarishda xizmat qiladi.

Xulosa o'rinda shuni aytishim joizki, o'quvchining qaysi sohada faoliyat yuritishidan qat'i nazar, birinchi navbatda, nutqiy savodxonligi mukammal darajada bo'lishi zarur. Ijodkorlik shakllangan bo'lishi zarur! Bu - davr talabi! O'z bilimini amaliyotda namoyon etishi uchun aniq, ravon va sof nutq egasi bo'lsinki, mamlakat taraqqiyotiga yetuk milliy kadr sifatida xizmat qilsin! O'zbek tilining juda katta imkoniyatlari xususida tanlagan sohasi orqali targ'ib qilsin!

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hasanboyev J., To'raqulov X., Haydarov M., Hasanboyeva O., Usmanov N. Pedagogika fanidan izohli lug'at. – Toshkent: Fan va texnologiya. 2009. – B.154.
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 4-jild. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. –B.169.
3. “Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik” moduli bo'yicha o'quv-metodik majmua.- Toshkent, 2016. –B. 42.



UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA INGLIZ TILI DARSLARIDA QO'LLASH MUMKIN BO'LGAN METODLAR

Safartosheva Mutabar Abduqodirovna

Navoiy viloyati Xatirchi tumani
52-umumiy o'rta ta'lim maktabining
ingliz tili o'qituvchisi
+99894 221 90 33

Ahmadova Yulduz Ahmad qizi

Navoiy viloyati Xatirchi tumani
52-umumiy o'rta ta'lim
maktabining ingliz tili o'qituvchisi
+99893 326 54 14

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tili darslarini tashkil etishda samaradorlikni ta'minlovchi metodlar haqida fikr yuritilgan. Chet elning ilg'or metodlari misollar orqali yoritilgan.

Kalit so'zlar: Metod, samaradorlik, tajriba, so'z boyligi, kommunikatsiya.

So'nggi paytlarda ingliz tilini o'rganadigan har qanday yoshdagi odamlar soni juda ko'paymoqda. Buning sababi hayot jarayonida ingliz tilini bilmasdan yashash qiyinlashib bormoqda. Ammo til o'rganish ham yosh davrlariga bog'liq. Hatto olimlar ham bolalar kattalarga nisbatan tilni tez va oson o'rganishlarini isbotlashgan. Bolalarda til o'rganishga bo'lgan tabiiy moyillik, ularda tadqiq qilish xususiyati kuchli ekanligi, kattalarga qaraganda bolalar vaqtining ko'pligi va o'rgangan ma'lumotlarni tez xotirada saqlashi buning asosiy sabablaridandir. Xitoy ixtirochilaridan biri Masaru Ibuka mashhur “Uchdan keyin juda kech” kitobida yozganidek: “...bolaning miyasi cheksiz miqdordagi ma'lumotlarga ega bo'lishi mumkin...”. Yana shunga e'tibor qaratish kerakki, 6-7 yoshli bolalar ma'lumotlarni ma'nosini tushunib emas, uni mexanik tarzda yodlaydi. Shuning uchun ham ingliz tilini o'rganayotgan boshlang'ich sinf o'quvchilariga tilni o'rgatishni grammatik tushunchalar berishdan boshlamaslik kerak. Aks holda chet tilini o'rgatishning dastlabki qaramlaridayoq bolani charchatib qo'yishi va til o'rganishga bo'lgan qiziqishini susaytirishi mumkin. Boshlang'ich sinfdagi o'quvchilarga chet tilini o'rgatish qiyin, shu bilan birga ma'suliyatli vazifalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinflarga ingliz tilini mazmunli va qiziqarli o'rgatish uchun quyidagi innovatsion metodlarga foydalanish mumkin.

Ko'rish orqali eslab qolish. Ma'lumki, yosh bolalar eshitgan narsasidan ko'ra ko'rgan predmetini eslab qoladi. Shuning uchun darsda turli xil rasmlardan foydalaning va suratdagi narsalarni ingliz tilidagi muqobilini o'quvchilarga yodlatib boring.

Qo'shiq va she'rlar orqali tushunish yoki eslab qolish qiyin bo'lgan so'zlarni musiqaga solib kuylash. Bunda yangi so'zlarni eslab qolish bilan birga bolaning og'zaki nutqi ham rivojlanadi. Bunga misol qilib bolalarning ingliz tili alifbosini qo'shiq qilib o'rganishlari shunchaki yodlashdan ko'ra samaraliroq ekanligini ko'rsatish mumkin.

TO raqobatbardosh grammatika va so'z boyligini ko'paytirishga yordam beradigan o'yinlarning aksariyatini o'z ichiga oladi. Bunda bolalar o'qituvchi bergan turli xil topshiriqlarni bajaradi. Natijada o'quvchilar orasida raqobat vujudga keladi va til o'rganishga bo'lgan raqobat yanada oshadi. Zero, Xitoy mutafakkirlari aytganidek: insonning barcha qiziqishlari raqobat orqali vujudga keladi”.

Multfilmlar orqali o'rgatish. Ma'lumki, bolalar turli xil multfilmlar ko'rishni juda ham xush ko'rishadi. Ingliz tilidagi multfilmlarni ko'rish jarayonida esa, multfilmdagi gaplarni tushunmasada, multfilm qahramonlarining harakatlari orqali ular ishlatayotgan so'zlarni tushunishga harakat qilishadi. Bu esa bolalar uchun qiziq va til o'rganish uchun samarali yo'l.

Qiziqarli o'yinlar orqali o'rganish. Ingliz tili fanini o'qitishda turli xil o'yinlar orqali o'rgatishning o'rni beqiyosdir. Dars davomida har xil o'yinlar o'rgatib turish sinfda fanni o'rganishga bo'lgan ishtiyoqni yanada oshiradi. Faol bo'lmagan o'quvchilarni ham darslarda yaxshi qatnashishga undaydi. Dars davomida boshlang'ich sinflarga quyidagi o'yinlarni o'ynatish mumkin:

D) Quvnoq topishmoqlar (Merry Riddles)



E) Pantomima – o'qituvchi biror so'z aytadi o'quvchi uni harakatlar bilan sinfdoshlariga tushuntiradi, tengdoshlari bu qaysi so'z ekanligini topishlari kerak bo'ladi.

F) Ushlab ko'rib topish. Bunda meva va savzavotlarni paypaslab uni qaysi meva yoki sabzavot ekanligini inglizcha nomini aytishadi.

Darhaqiqat, sezgi a'zolari orqali til o'rganish boshqa usullarga qaraganda foydali va samarali hisoblanadi. Masalan, o'quvchi birgina olmani tatib ko'rish jarayonida uning rangi, ta'mi, hajmi, hidi qanday ekanligini biladi va uning inglizcha nomini ham aytadi. Natijada esa o'qituvchi o'quvchilardan ranglarning inglizcha nomini so'rab qolsa, bolalar darrob meva yegan paytini eslaydi. Demak, bunday usullardan foydalanish o'quvchining ma'lumotlarni uzoq muddatda xotirasida saqlab qolishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilariga til o'rgatishni majburiyat sifatida emas, aksincha, qiziqarli o'yinlar va innovatsion metodlardan foydalanish bugun zamon talabiga aylanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yu. Umurzaqova “ Kids inglizh”
2. A. Qodirov, M. Saidbekova “Ingliz tili o'qitish metodikasi”
3. B. Hayitbayev “ General inglizh”
4. M. Muxtorov “Boshlang'ich sinflarda ingliz tili”



ВОСПИТАНИЕ – ФУНДАМЕНТ ЛИЧНОСТИ.

Мирзалиева Фатима Абдужабборовна,
учитель русского языка 27 школы
Норинского района Наманганской области

АННОТАЦИЯ: В данной статье для того, чтобы учащийся в будущем стал зрелой личностью, в первую очередь, какие пути следует пройти от семьи до заботы педагога, и этапы освещены в упорядоченном порядке.

КЛЮЧЕВАЯ СЛОВА: семейная атмосфера, педагогическое мастерство родителей, этапы образовательно-воспитательных процессов

Семья – колыбель духовного рождения человека. Многообразие отношений между его членами, обнаженность и непосредственность чувств, которые они питают друг к другу, обилие различных форм проявления этих чувств, живая реакция на малейшие детали поведения ребенка – все это создает благоприятную среду для эмоционального и нравственного формирования личности. Скудность, однообразие, монотонность эмоционального опыта раннем детстве могут определить характер человека на всю его жизнь. От того, на что и как направлено влияние семьи, во многом будет зависеть результат воспитания. Чтобы он был успешным, родители должны знать основные педагогические требования и создавать необходимые условия для воспитания ребенка в семье. Что же это за условия? 1) Прежде всего – семейная атмосфера, когда каждый из родителей и членов семьи понимает свою ответственность за воспитание детей; 2) рационально организованный быт, режим жизни ребенка в семье; 3) любовь родителей к ребенку; 4) авторитет родителей, единство требований к детям всех членов семьи; 5) уважение к личности ребенка; 6) единые, согласованные требования семьи и школы.

В моем классе реализуется воспитательная программа «Я – гражданин Узбекистана». Главное в этой программе – системный подход к формированию гражданской позиции школьника, создание условий для его самопознания и самовоспитания. Система воспитания дает учащимся установку на правильный, социально одобряемый образ жизни в школе и вне ее, формирует патриотическую позицию школьников, устойчивые привычки в поведении, отношении к людям, к делу, к построению модели собственной жизнедеятельности. Свой план я составляю исходя из этой воспитательной программы. Одним из ее направлений является формирование гражданского отношения к своей семье.

Задачи этого направления: 1) формировать уважение к членам семьи; 2) воспитывать семьянина, любящего своих родителей, родственников; 3) формировать у школьников понятия сущности основных социальных ролей, умение разрешать возникающие семейные трудности.

Я использую следующие формы работы с родителями. 1. Работа с родительским комитетом (знакомство с семьями учеников, выявление причины непосещения детьми школы, помощь учителю в проведении праздников, привлечение родителей к чтению лекций, к проведению экскурсий). 2. Родительские собрания на темы «Мотивация учения и пути ее формирования в семье», «Охрана здоровья детей – основные направления работы школы», «Роль книги в воспитании учащихся», «Семья и воспитание у детей трудолюбия» и др. 3. Индивидуальная работа с родителями. 4. Дни открытых дверей: каждую четверть даю открытый урок, с тем чтобы родители увидели успехи и недочеты в учебе детей, познакомились с выставкой детских работ. 5. Конференции для родителей: «Высокая должность – отец», «Гармония общения – залог психоэмоционального состояния ребенка». 6. Лекторий для родителей: «Возрастные особенности младших школьников», «Воспитание у младших школьников культуры поведения». 7. Семейные праздники: «Папа, мама, я – дружная семья», «Будем знакомы», «Спасибо скажем бабушкам, спасибо скажем мамам», «Семейный круг» (разработку см. ниже) и др. Цель всех этих семейных мероприятий: научить каждого школьника учиться, жить и работать в коллективе; превратить обучение в творческий процесс, в ходе которого формировались бы познавательные интересы школьников, развивались их способности, самостоятельность



мышления, желание и умение активно работать; воспитывать чувства дружбы и товарищества, ответственности за свои поступки. Цели работы с родителями: повысить педагогическую культуру родителей, привлечь их к активному участию в учебно-воспитательном процессе, создать дружный, сплоченный коллектив родителей, детей, учителей. Родители – не просто частые гости в классе, они непосредственные участники воспитательного процесса, первые мои помощники во всех делах. Я убеждена в том, что воспитание духовно богатой, высококультурной и нравственной личности может успешно осуществляться лишь в тесном сотрудничестве с семьей

Список использованной литературы

1. Ш.М. Мирзиёев. Доклад «Сегодня как никогда важно внимание к просвещению». 19 октября 2016 г.
2. Ш.М. Мирзиёев «Стратегия действий по пяти приоритетным направлениям Республики Узбекистан на 2017-2021годах.» Указ Президента Республики Узбекистан о стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан. 2017г.



DICTIONARY COMPILING AS ONE OF THE CHALLENGING ISSUES IN MODERN ENGLISH LEXICOLOGY

Gofforova Diyorakhon Muzafarovna
Fergana state university 1st stage student

Annotation: this article provides information about the role and importance of dictionaries in learning and teaching English.

Key words: lexicography, dictionary, translation, examples, information.

The main aim of the given paper is to illustrate the role of dictionary compiling and challenging issues while compiling dictionaries in Modern English lexicology. The object of the work is connected with methodology. It specifies for vocabulary, how to use semantic, formal and functional description of all individual words.

The theory and practice of compiling dictionaries is called lexicography. The history of compiling dictionaries for English comes as far as back as the Old English period, where we can find glosses of religious books. Regular bilingual dictionaries began to appear in the 15-th century such as: Anglo-Latin, Anglo-French, Anglo-German. It is important to state that, the first unilingual dictionary explaining difficult words appeared in 1604, the author was Robert Cawdry and he compiled his dictionary for school children. Apart from this, in 1721 an English scientist and writer Nathan Bailey published the first etymological dictionary which explained the origin of English words. It was the first scientific dictionary and it was compiled for philologists. In 1775 an English scientists compiled a famous explanatory dictionary, the author was Samuel Johnson. Every word in his dictionary was illustrated by examples from English literature, the meanings of the words were clear from the contexts in which they were used. It is essential to state that, the dictionary was a great success and it influenced the development of lexicography in all countries and the dictionary influenced normalization of the English vocabulary.

New English dictionary or Oxford English dictionary was written from 1888 up to 1928. It covers the vocabulary of English with full historical evidence and it gives the full history of words, it has a supplement containing neologisms. There are two main types of dictionaries: general dictionaries and special dictionaries. General dictionaries are divided into explanatory dictionaries and parallel or translation dictionaries. The best known explanatory dictionaries are: —The Shorter Oxford dictionary in two volumes, WNID, New Comprehensive Standard Dictionary, the New Random House Dictionary, Webster's colligate Dictionary. Problems of dictionary compiling. Stages are collection of material, selection of entries and their arrangement, setting of each entry, selection of lexical units for inclusion, arrangement of entries, definition of meanings, illustrative examples. The most important one is 1) the selection of lexical units for inclusion. There is the basic problem of what to select and what to leave out in the dictionary. 2) their arrangement, 3) the setting of the entries. The most complicated type of entry is that found in explanatory dictionaries. In explanatory dictionaries of the synchronic type the entry usually presents the following data: accepted spelling and pronunciation; grammatical characteristics including the indication of the part of speech of each entry word. 4) the selection and arrangement (grouping) of word-meanings, 5) the definition of meanings, 6) illustrative material, 7) supplementary material.

The most complicated type of entry is found in explanatory dictionaries. The entry of an explanatory dictionary of the synchronic type usually presents the following data: accepted spelling, pronunciation, grammatical characteristics, the indication of parts of speech, definition of meanings, modern currency, illustrative examples, derivatives, phraseological units, etymology, synonyms, antonyms. —The methodology of the dictionaries, which was initially developed by prof. A. A. Weijnen (at the Catholic University of Nijmegen), has already been described in Kruijsen en Van Keymeulen (1997), so I limit myself to a few major points. All three dictionaries are arranged systematically (with alphabetical indexes) and combine a dictionary with a word atlas, since for every dictionary the focus is not on one dialect but on a group of related dialects. The dictionaries are divided into three separate parts: I. Agricultural vocabulary; II. Technical vocabularies; III. General vocabulary (i. e. the vocabulary not restricted to professional activities). Every fascicle of the dictionary is devoted to a certain conceptual field (e. g. 'housing', 'wild animals', etc.) and consists of a series of concepts related to it (onomasiological arrangement). For every



concept the heteronymy (the different lexemes which can be used to refer to the concept) in the different dialects of the area under investigation is presented, together with general indications as to frequency and location (details with regard to phonetics and location are kept in an automated database) [35].

Many dictionary projects derive their lexical information from a variety of sources. Some methods are complementary; the results of one method may be used as the input for another. The methods differ firstly with respect to the relative validity of the data: lexemes taken down from spontaneous speech are thought to be of higher quality than those collected purposively. Secondly, the methods differ with regard to the possibility of being carried out systematically. Thirdly, methods may vary according to the type of vocabulary one wants to collect. Some elements of the lexicon are more easily collected by purposive questioning than others, because the introspective capacity of a language user differs according to the different lexical types. The main difference in this respect is between the 'open' (e. g. substantives, adjectives, verbs) and the 'closed' word categories (e. g. adverbs, prepositions, conjunctions). A classic dichotomy, finally, is the distinction between direct and indirect methods, i. e. fieldwork conducted orally or by correspondence respectively. In our view, it is the presence of an intermediary, rather than the medium of communication, that makes a method direct or indirect.

In conclusion dictionary compiling plays a great role in Modern English Lexicology. It is important to state that, the dictionary was a great success and it influenced the development of lexicography in all countries and the dictionary influenced normalization of the English vocabulary.

REFERENCES:

1. Arnold —Modern English lexicology. -Moscow, 1986 p295.
2. Atkins, S. B. T. , Rundell, M. (2008). The Oxford Guide to Practical Lexicography. Oxford: Oxford University Press.
3. Ginzburg —English lexicology. Moscow, second edition, 1979 p269.



O‘ZBEK TILI DARSLARIDA KOMMUNIKATIV TAMOIL ASOSIDA DARSLARNI TASHKIL ETISH

Xudayqulova Noila Ummatovna
Fatullayeva Gulnoza Rustamovna
 Navoiy viloyati Zarafshon shahar
 10-maktab o‘zbek tili o‘qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu uslubiy tavsiyada o‘zbek tili darslarini kommunikativ tamoil asosida tashkil etish bo‘yicha zarur tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: kommunikativ tamoil, to‘g‘risini tanla, urg‘u, xattot, notiq, 5daqqa.

Bugungi kunda yurtimiz milliy mustaqilligining yangi bosqichiga o‘tildi. Bu, albatta, barcha sohalarda erishayotgan turli islohotlar kabi uzluksiz ta‘lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, ta‘lim muassasalarida jahon ta‘lim standartlari asosida o‘qitish, savodxonlikni oshirish yuzasidan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Hatto, oliy ta‘limning har bir yo‘nalishida ona tili va adabiyot fanining mavqeyini oshirish masalalari ham bosqichma-bosqich o‘zi yechimini topmoqda. Xo‘sh, bu masalalar natijaviyligi — yoshlar tarbiyasiga oid hukumat qarorlari ijrosini ta‘minlash, XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirishga erishish kabi quyidagi ustuvor vazifalar bilan hamohangdir:

-o‘quvchilarda filologiya fanlarini o‘qitish asosida bilimlarini hayotda qo‘llay olish hamda to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish;

-har sohada bilimlarni hayotga tatbiq eta olish, iqtisodiy, huquqiy, o‘qish savodxonligi, mantiqiy fikrlash, tanqidiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirish, chet tillarida muloqot qilishga erishish;

-ma‘naviy-axloqiy, siyosiy madaniyatga egalik, fuqarolik burchi va kitobxonlik, mas‘uliyat hislari shakllangan bo‘lishi kabi.

O‘zbek tili ta‘lim boshqa tillarda olib boriladigan umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida kommunikativ tamoilda ikkinchi til sifatida o‘qitiladi. O‘quvchilarda mantiqiy mushohada yuritish ko‘nikmalarini shakllantirish, mustaqil va ijodiy fikrlashga o‘rgatish, og‘zaki va yozma nutq malakalarini rivojlantirish o‘zbek tilini yetarli darajada egallashlari maqsadida O‘zbek tili o‘quv rejasi takomillashtirildi.

“To‘g‘ri tanlay bil” usuli

Usul shiori: Xatolarni tuzatgin,
 Tengdoshlarga o‘rgatgin.

Bu usulda «h» va «x» harflari ishtirok etgan so‘zlarni jadvalga to‘g‘ri joylashtiring. So‘zlarni diqqat bilan o‘qib, nechanchi so‘zda «h» va «x» ishtirok etgan bo‘lsa, o‘z jadvalingizga «+» yoki «-» belgisini qo‘ying.

So‘zlar: 1) ..ushbo‘y 2)masla..at 3) ...osil 4) ..ohlamoq
 5) ..uquq 6) ...onadon 7) islo.. 8) ...indiston 9) mav.. etmoq 10) ..alqsevar
 11) sa..ovat 12) no..osdan 13) ..urmat 14) ..avoyi 15)obira..mat

T/J	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
X															
H															

“Qiyoslash” metodi. Bir predmet haqida aniq tasavvurga ega bo‘lish uchun uni ikkinchisi bilan qiyoslash o‘quvchida yorqin tasavvur hosil qiladi. Shu ma’noda o‘quvchiga ona tilini boshqa bir tilga qiyoslab o‘rgatish eng samarali usuldir. O‘qituvchi ona tili darslarida, xususan, fonetika mavzusini tushuntirayotganda ma’lumotlarni o‘quvchiga imkon qadar u o‘rganayotgan biror chet tilidagi zaruriy bilimlar bilan taqqoslasa, dars yanada samarali bo‘ladi. O‘qituvchining



taqqoslanayotgan tilni qay darajada bilishi natijaga salbiy yoki ijobiy ta'sir ko'rsatadi. “Urg‘u” mavzusini tushuntirish uchun unga istagancha ta'rif keltirgan bilan kutilgan natijaga erishish qiyin. Lekin o'zbek tili urg'usini rus, nemis yoki bo'lmasa ingliz tillaridan biridagi so'z urg'usi bilan solishtirish, o'quvchida darhol tushuncha hosil qiladi: (bolalar ребята children), ya'ni o'zbek tilida urg'u, asosan, so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi. Boshqa tillarda esa, aksincha. Zero, taqqoslash – o'quvchida mustaqil fikrlash ko'nikmasini ham shakllantiradi. Bu esa bugungi ta'limning maqsadini tashkil etadi. O'quvchida solishtirish jarayonida o'zbek tilining o'zigagina xos bo'lgan jihatlari haqida tushuncha paydo bo'lgach, o'z tilidan faxrlanish, shuning barobarida, unda milliy g'urur ham shakllanib boradi.

“Kim xattot?” usuli. Sinf uch guruhga bo'linadi. Qur'a tashlash yo'li bilan ulardan biri ekspert, qolgan ikkisi bahslashuvchi jamoalarga ajratiladi. Ekspert

guruhi jamoasi x va h undoshi ishtirok etgan so'zlarni aralash holda aytaveradi, bu so'zlardan bir jamoa tarkibida x undoshi ishtirok etgan so'zlarni, ikkinchi jamoa tarkibida h undoshi ishtirok etgan so'zlar qatorini yozib boradilar. Belgilangan vaqtda jamoalar ishi to'xtatiladi. Ekspertlar jamoasi ikkala guruh ishlarini tekshirib beradi. Ish yakunida o'qituvchi uchala guruh ishlarini ko'rib chiqib baholaydi.

“Kim notiq?” usuli. O'qituvchi ekspert bo'lib turadi. Uchta jamoaga uchta o' unlisi ko'proq ishtirok etgan she'riy matn beriladi. Guruhlar kelishib olib, bittadan notiq tayinlaydi. Ular matnlarni o'qiydi. Guruhning boshqa a'zolari o' tovushi ishtirok etgan so'zlarni farqiga ko'ra ikkiga ajratib chiqadi. Qaysi jamoa ikkala topshiriqdan ham ball olsa, g'olib bo'ladi.

5 «daqiqa» usuli

Bu interfaol usulni xohlagan fanning xohlagan mavzusini o'rganish jarayonida qo'llash mumkin. O'quvchilarni stol atrofida shunday joylashtirish kerakki, bir-birining nima yozayotganligini ko'rmasin. Usulni o'qituvchi yoki a'lochi o'quvchi boshqarib borishi mumkin. U vazifani tanlaydi. O'quvchi 5 daqiqa ichida topshirilgan topshiriqni bajaradi. O'quvchilar yozishni bir vaqtda tugatishi shart. Geografiyadan joy nomlari, tarixdan xronologik sanalar, ona tili va adabiyotdan gap bo'laklari, matematika, fizika, kimyodan formulalar bo'lishi mumkin. Eng ko'p nom yozgan va uni izohlab bergan o'quvchi g'olib hisoblanadi.

Xulosa qilinganda, o'qituvchilarning sifatli darslari orqali o'quvchilar buyuk ma'naviy merosini o'rganish, ma'naviy qadriyatlarimizdan faxrlanish, insoniy fazilatlaridan g'ururlanish tuyg'ulari- borliqni idrok etish madaniyatini hamda ularning savodxonligini oshirish, ijobiy fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanadigan adabiyotlar:

1. Zamonaviy dars. J.G'. Yo'ldoshev va boshqalar. Toshkent 2007-yil.
2. Internet saytlari: www.Ziynet.uz, www.edu.uz



О‘ЗБЕК ТИЛИ ДАРSLARIDA NUTQIY MAVZULARNI O‘RGATISH BO‘YICHA USLUBIY TAVSIYALAR

Xudayberdiyeva Norbibi Yorqulovna
Ostonova Yulduz Baxtiyarovna
Navoiy viloyati Zarafshon shahar
10-maktab o‘zbek tili o‘qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu uslubiy tavsiyada o‘zbek tili darslarida nutqiy mavzularni o‘qitish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: nutqiy kompetensiya, eslab qolish, gapirish, sirli kataklar, kimoshdi

Yurtimiz taraqqiyoti bugungi o‘quvchilarning qanday tarbiyalanayotganligi, zamonaviy bilim va kasb-hunarni egallashga layoqati bilan o‘lchanadi. Ma’lumki, ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan o‘quvchilarga o‘zbek tili darslari mantiqiy tafakkur qila olish salohiyati, aqliy rivojlanishi, dunyoqarashi, kommunikativ savodxonligi va o‘z-o‘zini anglash salohiyatini shakllantirishga, jismonan sog‘lom bo‘lishga, milliy urf-odatlarini o‘zida singdirish va ardoqlash, ularga rioya qilishga o‘rgatadi. Shu bois o‘zbek tili darslarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va takomillashtirish, ta’lim jarayoniga axborot kommunikatsiya va pedagogik texnologiyani joriy etish, o‘qitish sifatini yanada mustahkamlash, yosh avlodni sog‘lomlashtirish borasida ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbek tili darslarida asosiy vazifa o‘quvchilarning nutq odobini tarbiyalash, zukkolik, tezkorlik va hozirjavoblik singari fazilatlarini shakllantirish, mustaqil fikrlash ijodiy faoliyat ko‘rsatishdan iborat.

Boshqa millat vakillarining o‘zbek tilini puxta egallashi orqali o‘zbek milliy, madaniy qadriyatlarga hurmat bilan munosabatda bo‘ladigan, o‘zbek tilida jamiyatda, kundalik turmushda turli mavzularda og‘zaki va yozma erkin muloqot yurita oladigan, mustaqil fikrli, muomala madaniyatiga ega, qobiliyatli, savodxon kompetentli komil shaxsni tarbiyalash nazarda tutilgan. Ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan umumta’lim maktablarning rus guruhlarida o‘zbek tili kommunikativ-nutqiy tamoyilda ikkinchi til sifatida o‘qitiladi. Shuning uchun ta’lim mazmunida asosiy diqqat-e’tibor nutqiy va lingvistik kompetensiyaga qaratilgan bo‘lib, o‘quvchilar o‘zbek tilidan egallaydigan lingvistik bilimlari vositasida kundalik turmush, tabiat va jamiyat, ijtimoiy-madaniy hayot hamda mutaxassislik sohalarida og‘zaki va yozma erkin muloqot yuritish ko‘nikma va malakalari hamda kompetensiyalarning elementlarini shakllantirish ko‘zda tutiladi.

Bunda biz bir qancha interfaol usullardan foydalanishimiz mumkin.

“Eslab qoling” usuli. Bu usul xotira mashqi hisoblanadi. Bu usul orqali o‘quvchilarda **tinglab tushunish, so‘zlab berish ko‘nikmasi** shakllantiriladi.

Bunda o‘quvchilar bilan matnlar ustida ish olib boriladi. Dastlab, matn o‘qituvchi tomonidan audeo, video shaklda, yoki og‘zaki o‘qib eshittiriladi. Keyingi bosqichda o‘quvchilar tomonidan ketma-ketlikda o‘qiladi. So‘ng kitoblar yopilib, matnning so‘zlari so‘raladi. To‘g‘ri matn so‘zlarini eslab qolish qiyin.

O‘quvchilar matnning so‘zlarini aynan yodda saqlashi shart. Bu usul o‘quvchilarni e’tiborli bo‘lishga undaydi. Bunda o‘quvchilar matn tahlilini o‘rganadi. Matnni aynan davom ettirilmagan o‘quvchiga salbiy fikr bildirilmaydi.

Bu usul o‘quvchilarni fanga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va xotirasini o‘stiradi.



Tinglab tushunish: o‘qituvchi va suhbatdoshining nutqini, eshitilgan va eshittirilgan nutqni, tinglangan matndagi asosiy axborotni, dolzarb mavzulardagi radio va teledasturlarni tushunish.

Gapirish: uchrashuvda o‘zini tanishtirish, iltimos bilan murojaat etish, taklif etish va taklifni qabul qilish/rad etish, ma’lumot olish va berish, o‘zgalar fikrini qisqacha sharhlash, muhokamalarda ishtirok etish, mavzularni muhokama qilishda o‘z shaxsiy qarashlari va fikrlarini bildirish. O‘rganilgan mavzu doirasida o‘z fikrini bog‘lanishli so‘zlab berish, berilgan mavzu doirasida taqdimot qila olish.

O‘qish: mavzuga oid materiallarni, adabiy-badiiy matnlarni, ommabop materiallarni (gazeta, qisqa hikoya, shaxsiy va elektron xatlar) o‘qish.

“Sirli kataklarni to‘ldir” usuli. O‘quvchilarga kataklarni to‘ldirib, tovushdosh so‘zlar hosil qilish vazifa qilib topshiriladi. Masalan, toy so‘zini soy so‘zigacha davom ettirish talab etiladi. Namuna: toy, loy, moy, voy, oy, choy, yoy, soy

Tavsiya etilgan so‘zlar. 1. bosh, tosh, osh, qosh 2. bol, pol, tol, sol, gol, mol, xol

“So‘z juftlarini davom ettir” usuli. O‘quvchilarga san‘at – sanat, qal‘a – qala, she‘r-sheer, sava-sava singari so‘zlar berilib, shunday so‘z juftlari tuzishni davom ettirish va ularning ma‘nosini sharhlash topshiriladi. Berilgan so‘z juftlarini belgilangan miqdorda (masalan: 10-15 ta so‘z jufti) yetkazgan o‘quvchi g‘olib deb topiladi. Bu usul sinf o‘quvchilarini guruhlariga ajratib, sinf taxtasida ham bajartirilishi mumkin. Qatordagi har bir o‘quvchi doskaga chiqib, bitta so‘z jufti yozadi va bo‘rni ikkinchi o‘quvchiga tutgazadi. Shu tartibda davom ettiriladi.

«Kimoshdi» (auksion) usuli

Dastlab auksionga qo‘yilgan narsa e‘lon qilinadi. Masalan, auksionga Muhammad Yusufning “Ulug‘imsan, Vatanim” kitobi qo‘yilgani va unga eng ko‘p miqdorda ball (pul) to‘plagan guruh sazovor bo‘lishi mumkin. So‘ngra oldindan tayyorlab qo‘yilgan savollar beriladi. Savollarning narxi e‘lon qilib boriladi va ballar hisoblab boriladi.

1. So‘z turkumlari tilshunoslikning qaysi bo‘limida o‘rganiladi? (150 ball – so‘m)
2. So‘z turkumlari ma‘no va vazifasiga ko‘ra nechta guruhga bo‘linadi? (100 ball – so‘m)
3. Yordamchi so‘z turkumlari qaysilar? (50 ball – so‘m)
4. Ot deb nimaga aytiladi? (200 ball – so‘m)
5. Holat fe‘llariga misollar keltiring. (100 ball – so‘m)
6. Fe‘l nechta nisbat shakliga ega? (250 ball – so‘m)
7. Ot deb nimaga aytiladi? (150 ball – so‘m)
8. Fe‘l qanday ma‘no guruhlariga ajratiladi? (200 ball – so‘m)



“Ikkala bo‘g‘inida bir xil unli bo‘lgan so‘zlar ro‘yxatini tuzing” usuli. Bu usulda birinchi bo‘g‘inida ham, ikkinchi bo‘g‘inida ham bir xil unli qo‘llaniladigan so‘zlarni (masalan: tutun, burun, burgut, uzun, mushuk, uchun, tushum v.h) topish va so‘zlar ro‘yxatini muayyan miqdorga yetkazish topshiriladi. Belgilangan miqdorda eng ko‘p so‘z topa olgan o‘quvchilar o‘yin g‘olibi sanaladi.

Xullas, ta‘lim jarayonida nafaqat ta‘lim beruvchi va ta‘lim oluvchilar hamkorligidan iborat faol usullarni, balki ta‘lim oluvchilar o‘rtasidagi hamkorlikni ham ta‘minlovchi interfaol usullardan ham foydalanish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. SH. Po‘latov “Ta‘lim menejmenti, yoxud ta‘lim muassasasini ilmiy-metodik boshqarish texnologiyasi”.

2. Internet saytlari: -ziyoNet .uz, kitob.uz, multimediya .uz



ОНА ТИЛИ ТА’ЛИМИДА “USTOZ - SHOGIRD” TIZIMINI JORIY ETISH YO‘LLARI

**Yakubova Erkatosh Nurmurodovna,
Axmedova Mahliyo Abduraxmonovna**
Navoiy shahar 2-umumta’lim maktab
Ona tili va adabiyot fani o’qituvchilari

Bugungi kunda mustaqil fikrlovchi, ishonch-e’tiqotli shogirdlarni tarbiyalashda va zamon talabiga mos, jamiyatdagi barcha yangilanishlarni uyg’unlashtirish uchun shaxsiy yetuklik bilan birga kasbiy kompetentlikka ega kadrlar yetkazib berishda “Ustoz - shogird” tizimi alohida o’ringa egadir. O’qituvchi barkamol avlod ta’lim-tarbiyasi uchun javobgar shaxs bo’lib, nafaqat ma’naviy-axloqiy madaniyati bilan atrofdagilarga o’rnak bo’lishi, shu bilan birga, pedagogik mahoratini ham namoyon eta olishi, yetuk o’qituvchi sifatida malakaliy kadrlarni tayyorlash ishiga o’zining munosib hissasini qo’shishi zarur. O’qituvchi yetarli darajada shaxsiy fazilatlar va kasbiy xususiyatlarga ega bo’lishi lozim.

Chunki, murakkab, mashaqqatli, kutilmagan holatlarga boy, ammo jamiyatning zaruriy ehtiyoji hisoblangan ta’lim-tarbiya tizimini yangicha ko’rinish va yangicha mazmunda amalga oshirish, dars jarayonida innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarni samarali qo’llash orqali ta’lim samaradorligiga erishish davr talabidir. Ta’lim muassasasi bitiruvchisi o’z hayotida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o’z o’rnini egallashi, duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi, o’z sohasi, kasbi bo’yicha raqobatbardosh bo’lishini ta’minlashda asosan pedagog kadrlar salohiyati hal qiluvchi omil hisoblanadi. Demak, jamiyatdagi barcha yangilanishlarni uyg’unlashtirish uchun shaxsiy yetuklik bilan birga **kasbiy kompetentlik** ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O’qituvchining shaxsiy fazilatlarini sirasiga: iymon-e’tiqodi, dunyoqarashining kengligi, faolligi, odob-axloqi, fuqarolik burchini his qilishi, ma’naviyati, dilkashligi, talabchanligi, qat’iyligi va o’z maqsadlariga intilishi, insonparvarligi, huquqiy bilimdonligi mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy talablariga o’z fikr – mulohazasi bilan faol ishtirok etishi kiradi. Albatta, bu kabi fazilatlar va xususiyatlarni chuqur egallashda “Ustoz - shogird” tizimi juda qo’l keladi. Chunki ustoz o’z faoliyati davomidagi tajribalariga suyanan holda shogirdiga yo’l-yo’riq ko’rsatadi. Avvalambor, “Ustoz - shogird” an’anasi malaka oshirishning uzviy bir shakli sifatida o’rganilsa, albatta unda xalqimizning ma’naviy – ma’rifiy hayotida azaldan shakllanib kelayotgan “ta’limni-tarbiyadan, tarbiyani-ta’limdan ajratib bo’lmaydi” – degan sharqona hayot falsafasini ko’rish mumkin. Qolaversa, “Ustoz - shogird” malaka oshirish usuli ustozning oldiga shunday majburiyat va vazifalarni yuklaydiki, bunda shogirdlarning individual rejasi bo’yicha bilim, ko’nikma, malakalarni o’zlashtirib borishlarini, individual rejada belgilangan tadbirlarning o’z vaqtida to’liq va sifatli bajarilishini, shuningdek, uzluksiz malaka oshirish jarayoni monitoringini olib boradi. Ya’ni ustoz bevosita shogirdlarining darslarini kuzatadi, tahlil qiladi, amaliy-uslubiy tavsiyalar beradi, zamonaviy o’quv-laboratoriya asbobuskunallari va jihozlaridan samarali foydalanish bo’yicha ularga ilg’or pedagogik tajribalarini o’rgatadi va amaliyotga tatbiq etishga ko’maklashib boradi.

Jamiyatda ta’lim tizimi takomillashib borgan sari o’qituvchining kasbiy tayyorgarligiga bo’lgan talab ham ortib boradi. Demak, bugungi kundagi til o’qitishning talablari ham yuqoridagi fikrlar asosida o’quv materialini o’zlashtirish murakkab jarayon bo’lib, til hodisalarini kuzata olishi, izlanishi, alohidaliklarini sharhlash, qiyoslash, umumiylikni aniqlash, farqlarini topish, tasnif etish, hukm chiqarish, alohidaliklarni aniqlash, qo’llash singarilar bilan bog’liq.¹ Bular ijodiy tafakkur va mustaqil fikrlashning muhim belgilari bo’lib, ularning har biri o’ziga xos xususiyatlarga ega. Shuningdek, bularni to’liq o’zlashtirgan bola jamiyatning talablariga javob bera oladi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni aytish joizki, ona tili darslarini zamonaviy ko’lami, maqsad va vazifalari keng qamrovli bo’lib, asosiy maqsad ta’lim samaradorligini oshirish, o’quvchilarga bilim berish barobarida bilim olish yo’llarini o’rgatishdir.

“Ustoz-shogird” an’anasi barcha o’qituvchilarga, ayniqsa, shogird-o’qituvchining o’z mas’uliyatini, mahoratini shakllantirishga faoliyatini samarali tashkil etilishiga, o’z kasbiga bo’lgan ishtiyoqini oshiradi. Tajribali ona tili o’qituvchilari o’z shogird-o’qituvchilarga kunlik darslarga

1 G’ulomov A., Ne’matov H. Ona tili ta’limi mazmuni. T.: “O’qituvchi”, 1995.



tayyorgarlik ko‘rishda, taqvimiy ish reja tuzishda, ish reja asosida dars ishlanmasi tayyorlashda, uslubiy qo‘llanma tayyorlashda, talab qilinadigan me‘yoriy hujjatlarni tayyorlashda, ko‘rgazmali qurollar va slaydlar tayyorlash hamda maqolalar yozishda amaliy yordam beradi. Shuningdek, doimiy taqvoli, tavoze’li, yuksak sabr va matonat egasi bo‘lishlari kerakligi haqida o‘z tavsiyalarini bermog‘i lozim. O‘z navbatida ular ham o‘quvchi – talabalarga o‘zlarining tavsiyalarini beradilar. Ustoz va muallimning o‘zini bilimdon bo‘lishi, ilm tahsil qilishning turli qulay yo‘llarini o‘ylab topishi, shogird esa tirishqoq, bajaruvchi xotirasiga saqlovchi, o‘rganganlarini hayotda, o‘z o‘rnida tatbiq eta olishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.



RUS TILI FANINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN SAMARALI FOYDALANISH

Рысдаулетова Гулнора Аргиновна

Navoiy viloyati Uchquduq tumani
4-umumiy o'rta ta'lim maktabining
rus tili fani o'qituvchilari
Telefon : +998(94)254 66 88
shokirova_188@mail.ru

Annotasiya: Rus tili fanini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish haqida so'z boradi. Shuningdek ayrim interfaol metodlarni tahlili ham keltirib o'tiladi.

Kalit so'zlari: rus tili, dars, interfaol ta'lim, interfaol metod, B-B-B chizmasi, Klaster, Aqliy hujum.

O'quv jarayonini tashkil etishda ko'plab ta'limiy metodlardan foydalanib kelinmoqda, ular orasida interfaol ta'lim va uning asosini tashkil etuvchi interfaol metodlar ayniqsa samarali sanaladi. Quyida rus tili fanini o'qitishda qo'llaniladigan interfaol metodlarning ba'zilar haqida to'xtalib o'tamiz. Interfaol va interaktiv so'zlari bir xil ma'noda bo'lib, interaktiv so'zi inglizcha "inter" - "birgalikdagi" va "act" - "harakatlanish" so'zlaridan olingan. Interaktivlik birgalikda harakatlanish yoki suhbat, dialog rejimida nimadir (masalan, kompyuter) yoki kimdir (o'qituvchi) bilan bo'lish demakdir. Bundan kelib chiqadiki, interaktiv ta'lim - avvalo dialogli ta'lim bo'lib uning davomida o'qituvchi va o'quvchi, o'quvchi va kompyuter o'zaro hamkorligi amalga oshiriladi.

Interfaol ta'limning asosini yuqorida aytilganidek interfaol metodlar asosida darsni olib borish tashkil etadi. Ta'limning interfaol metodlari o'quvchilarning ulkan ta'limiy qudratidan foydalanish va faollashtirish, o'quv jarayoniga musobaqa elementlarini kiritish imkonini beradi: ta'lim oluvchilar guruhining aqliy kuchi uning a'zolari kuchi yig'indisidan ko'proq (ya'ni guruh natijasi individual natijalar yig'indisidan doimo ortiq). Interfaol metodlarni tasnifi

O'rganilayotganlarini o'zlashtirishga da'vat qilish metodlari Yangi materialni anglash metodlari O'rganilganlarini fikrlashga imkon beruvchi metodlar

Erkin yozish. Klaster. Aqliy hujum. B-B-B chizmasi. Chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi. Blits-so'rov. Insert chizmasi. B-B-B chizmasi. O'qitish bo'yicha qo'llanma. Bir-biriga o'rgatish. Bir-biridan so'rash. Ikki qismli kundaliklar. Eng asosiy tushunchalar Eng asosiy tushunchalar, takrorlash. T-chizma. Toifalash jadvali. Nima uchun? chizmasi. "Qan.day?" diagrammasi. Venn diagrammasi. Besh minutlik esse. O'n minutlik esse.

O'rganilayotganlarini o'zlashtirishga da'vat qilish metodlari ushbu metodlardan umumiy o'rta ta'lim tizimida o'qitiladigan deyarli barcha fanlarni o'rgatishda foydalanish mumkin bo'lib, agar ushbu metodlar to'g'ri qo'llansa albatta yaxshi natijaga erishish mumkin. Buning uchun o'qituvchining o'zi yuqoridagi metodlarni qo'llash haqida tushunchaga ega bo'lishi lozim. Erkin yozish, Klaster, Aqliy hujum, B-B-B chizmasi, Chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi, Blits-so'rov kabi metodlar o'quvchilarni tez o'ziga jalb qiladi, ularning darsdagi faolligini oshiradi. Rus tilida darslarida ushbu metodlardan o'quvchilarning yoshiga moslagan holda dastlab sodda shaklda keyinroq murakkab shaklda foydalanish kerak. Boshlang'ich sinflarda ham yuqori sinflarda ham ushbu metodlarni qo'llash orqali tashkil etilgan darslar samarali bo'ladi. Yangi materialni anglash metodlari o'quvchilarni fanni o'zlashtirishda o'zaro hamkorlik, bilmagan, tushunmagan narsalarini ustozidan, do'stlaridan so'rab o'rganish va o'zgalarga o'rgatishga qaratilgan metodlardir. Ushbu metodlar nafaqat aqliy shuningdek tarbiyaviy ahamiyati ham samarali sanaladi ya'ni ushbu metodlar, o'quvchilarni o'rtasida do'stlik, halollik, mexr-oqibat kabi tuyg'ularni shakllantiradi. O'rganilganlarini fikrlashga imkon beruvchi metodlar o'quvchilarni yangi o'tilgan mavzuni qay darajada o'zlashtirganlarini aniqlab beruvchi metodlardir. Ularni qo'llash orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlash, o'rganigan bilimlarini taqqoslay olish kabi ko'nikmalar shakllanadi.

O'quv jarayonida ushbu metodlarni darsning maqsadi va mazmunidan kelib chiqib, loyihalashtirib qo'llash quyidagi natijalarga olib keladi:

- * o'rganuvchilarning o'qishga qiziqishlari va motivatsiyasi kuchayadi;
- * o'rganuvchilarning darsda zerikishi va charchashining oldi olinadi;
- * o'rganuvchida ijodiy ishlash ko'nikmalari va faol fikr rivojlanadi;



* mavzu bo'yicha yangi assotsiativ fikr va tasavvurni erkin va ochiq jalb qilishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda til o'rganish o'quvchilar uchun murakkab jarayon sanaladi. O'quvchilar xorijiy tillarni o'zlashtirishda doimo qiyinchiliklarga duch keladilar. Biz yuqorida sanagan interfaol metodlar esa anashu qiyinchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi va o'quvchilarni xorijiy tillar, xususan rus tilini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishlarini orttirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirzayeva F. Kasbiy fanlarni o'qitishda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish (uslubiy qo'llanma). Toshkent - 2013
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/interfaol-metodlar-o-quvchilar-kreativligini-oshirishning-muhim-omili>
3. www.ziynet.uz

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 7-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.12.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000